



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



TA'LIMGA OID XALQARO TAJRIBALARNI TO'PLASH VA TRANSFORMATSIYALASH STRATEGIYALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

20.02.2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

**“TARBIYAGA OID XALQARO TAJRIBALARNI TO‘PLASH VA
TRANSFORMATSIYALASH STRATEGIYALARI” MAVZUSIDA
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
2025-YIL 20-21-FEVRAL**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE
TOPIC “STRATEGIES FOR COLLECTING AND TRANSFORMING
INTERNATIONAL EXPERIENCES IN EDUCATION”
FEBRUARY 20-21, 2025**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «СТРАТЕГИИ СБОРА И ТРАНСФОРМАЦИИ
МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ»
20-21 ФЕВРАЛЯ 2025 ГОДА**

ISSN: 2181-3337

**“Tarbiyaga oid xalqaro tajribalarni to‘plash va transformatsiyalash strategiyalari”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (2025-yil 20-21-fevral)**

Nashr etishda qatnashganlar:

*Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Anvar Rustamov, Farangiz Sagdullayeva,
Humoyun Kodirov, Mansur Suyunkulov, Mahliyo Sotivoldiyeva, Maftuna Askarova,
Ollamurodova Feruza, Fotima Shermatova, Muxlisa Zunnunova*

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.G.Safarova

Tahrir hay’ati a’zolari

X.I.Ibraimov	<i>Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik</i>
R.G.Safarova	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
H.M.Tojiboyeva	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor.</i>
R.M.Medetova	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
N. Masharipova	<i>Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim</i>
N.T.Jalilova	<i>Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti</i>
Yu.Maxmudov	<i>Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti</i>
N.Ch.Rustamov	<i>Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti</i>

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Kengashining 2025-yil 20-fevralagi 10/5.6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mavqei tubdan o‘zgardi. Uning obro‘-e‘tiborini yuqori darajaga ko‘tarish, pedagoglarga qadriyatli munosabatda bo‘lish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi. O‘qituvchilik eng sharaflı kasbga aylandi. Bu o‘z navbatida o‘qituvchilar tayyorlash tizimi oldiga ham katta vazifalar qo‘ymoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ijtimoiy buyurtmaning mazmuni boyitilmoqda. O‘qituvchining metodik mahorati kasbiy akmesini rivojlantirishning pedagogik hamda imperik asoslarini takomillashtirishga oid izlanishlar jadallashtirilmoqda. Shu ma’noda oliy pedagogik ta’lim aniq ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo‘naltirildi. Mazkur jarayonda davlat, jamiyat va shaxsning qiziqishlarini qondirishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. O‘zbekistondagi zamonaviy ta’lim amaliyoti ijtimoiy buyurtmaning mazmunini yangilash O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta’lim tarbiya jarayoni ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos iqtidori, aqliy, intellektual hamda jismoniy rivojlanishini ta’minlashga qaratilayapti. Ta’limning serqirraligi ijtimoiy buyurtmaning manbalari ko‘pligidan dalolat beradi. Bu jarayonda o‘quvchi hamda talabalarning qiziqishlarini e‘tiborga olish alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy buyurtma oliy pedagogik ta’limning konseptual asoslarini tashkil etadi. Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash uchun birinchi navbatda ijtimoiy buyurtmaning vujudga kelishi va uning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish talab qilinmoqda. Ta’lim jarayonining samarali faoliyat ko‘rsatishida ijtimoiy buyurtmaning o‘rni muhim hisoblanadi. Shuningdek ijtimoiy buyurtmaning pedagogik interpretatsiyasi va aniqligiga ham alohida e‘tibor qaratilishi kerak. Ushbu o‘rinda ijtimoiy buyurtmaning ta’lim mazmuni va o‘qitish texnologiyalari bilan o‘zaro munosabatini tahlil qilish, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda pedagogik jarayonning barcha subyektlari faoliyatini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlash dasturlariga qanday o‘zgartirishlar kiritish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Oliy pedagogik ta’lim mazmuni ijtimoiy buyurtmaga mos tarzda tanlangandagina uning sifatini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin. Shundagina bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy tashabbuskorligini qo‘llab quvvatlash, kompetentligini rivojlantirish, oliy pedagogik ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, uni muntazam takomillashtirish imkoniyati vujudga keladi.

Uzoq yillar davomida o‘qituvchilar faoliyati va metodik tayyorgarligida vujudga kelgan stereotiplar, inqirozlar, ularning ijtimoiy shart-sharoitlar dinamikasiga juda sekinlik bilan moslashishlariga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham ta’lim jarayonining natijalari ijtimoiy buyurtma talablariga mos kelmayapti. O‘qituvchilarda metodik mahoratning yetishmasligi yoki past darajada shakllanganligi kuzatilmoqda. O‘qituvchilarning o‘quvchilarga bilimlarni taqdim etish paradigmalarning eskirganligi, mexanizmlari turg‘unlashganligi, metodik instrumentariyning takmollashishga muhtojligi ta’limning natijadorligining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Ma’lumki ijtimoiy buyurtma o‘zining ichki iyerarxiyasiga ega. Bu esa shaxsning ijtimoiylashuvi va kasbiy tajribani egallashini ta’minlashga qaratilgan turli tuman vazifalarning mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy buyurtmaning ichki iyerarxiyasidan kelib chiqqan holda uning uchta muhim darajasini ko‘rsatish mumkin. Ular: davlat, jamiyat hamda shaxs. Ijtimoiy buyurtmada ikkita muhim ma’ulmot mavjud bo‘ladi:

1. E‘lon qilingan shiorlar va qadriyatlar shaklida.

2. Aniq dalillarga asoslangan harakatlar shaklida.

Shunday ma’lumotlar asosida shakllangan ijtimoiy buyurtmani to‘laqonli tarzda bajarish imkoniyatlari mavjud. Ta’limning yangi ijtimoiy pedagogik paradigmaga o‘tilishi hamda davlat va jamiyatning uni boshqarishga mo‘ljallangan tizimi pedagogik jarayon subyektlarining mustaqilligini ta’minlash hamda ta’limni turli darajada boshqarishni takomillashtirishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda ta’lim jarayonini boshqarishning yagona strategiyasi o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Ta’limning demokratlashuvi pedagogik jarayon bilan uni boshqarish orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, subyektlarning mustaqilligini ta’minlash uchun qulay sharoit yaratdi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki ta’lim har doim insoniyat tarixida asosiy funksiyani bajarib jamiyat a’zolarining intellektual, ma’naviy, madaniy salohiyatini va inson kapitalini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda va shunday bo‘lib qoladi. Men ta’limning muhim muammosiga bag‘ishlangan ushbu konferensiya ishiga muvvafoqiyat tilab qabul qilinadigan tavsiyalar, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish va uni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishiga ishonch bildiraman.

***X.U. Umarova,
Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri***

YALPI YIG‘ILISH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY-KOGNITIV FAOLLIGI METODIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Ibraimov X.I.

Qori Niyoziy nomidagi TPMI direktori, akademik

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligini oshirish asosida metodik mahoratini rivojlantirishning pedagogik yo‘nalishlari, mazmun-mohiyati, nazariy talqinlari bo‘lajak o‘qituvchining metodik mahoratini rivojlantirish yo‘nalishlari, tayanch asoslari ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘zlar: kasbiy-kognitiv faollik, metodik mahorat, o‘quv fanlari, bo‘lajak o‘qituvchilar, metodologiya, oliy pedagogik ta‘lim, integratsiya, kasbiy sifatlar, shaxsiy sifatlar, o‘quvchilar, DTS, umummilliy dastur.

Oliy pedagogik ta‘limni 30 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘quv jarayonining maqsad va vazifalarini tubdan o‘zgartirish nazarda tutilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kognitiv va faoliyatli yondashuvga tayanishga ustuvor o‘rin ajratish nazarda tutilmoqda. Faoliyatli yondashuvni sifatli amalga oshirishda o‘qituvchining kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun birinchi navbatda bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda XXI asrning universal ko‘nikmalarini shakllantirishga tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki o‘quvchilar ijtimoiy hayotga tayyor bo‘lishlari uchun intellektual harakatlarni amalga oshirishlari, o‘z mavqelarini o‘zgartirishga tayyor bo‘lishlari, o‘z o‘zlarini tarbiyalash va rivojlantira olishlari kerak. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqoridagi maqsadlarga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatga tayyorlash sohasida muayyan kamchiliklar mavjud. Alohida ahamiyatga ega bo‘lgan shunday kamchiliklardan biri bitiruvchi talabalarda metodik mahoratning yetarli darajada shakllanmaganligida ko‘rinadi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda oliy pedagogik ta‘limning davlat ta‘lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik mahoratini rivojlantirishda o‘quvchilar orasida subyekt-subyekt munosabatini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish talab etilmoqda. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga alohida yondashishni talab etmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik mahoratini rivojlantirishda oliy pedagogik ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari orasidagi aloqadorlik hamda umummilliy dasturni amaliyotga tatbiq etish talabalarini alohida hisobga olish nazarda tutilishi kerak. Talabalarda mustaqillikni rivojlantirish asosida ularning bilish faolligini ta‘minlash ham o‘z yechimini kutayotgan pedagogik muammolar sirasiga kiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligi mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallash, mas‘uliyatli qarorlar qabul qilish, tez o‘zgaruvchan axborotlar makonida to‘g‘ri yo‘nalish ola bilish, o‘z bilimi va metodik mahoratini mutntazam oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilar istiqboldagi kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishning innovatsion metodlarini o‘zlashtiradilar. Bo‘lajak o‘qituvchilar vujudga kelgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda o‘z bilimlari, metodik mahoratlari va kasbiy kompetensiyalarini muntazam boyitish, chuqurlashtirish ko‘nikmalarini ham egallashlari lozim. Buning uchun uzluksiz bilim olish motivlariga ega bo‘lishlari kerak. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-kognitiv faolligini rivojlantirishga oid tadqiqotlar juda kam amalga oshirilgan. Ushbu

yo‘nalishdagi izlanishlar ko‘lamini kengaytirish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik mahoratini tizimli tarzda rivojlantirishga asos bo‘ladi. Buning uchun, birinchi navbatda mutaxassislar kasbiy-kognitiv faollik tushunchasining mazmun-mohiyatini to‘liqroq anglab yetishlari kerak.

Bugungi kunga qadar kasbiy-kognitiv faoliyat bo‘lajak o‘qituvchining integrativ sifati ekanligini asoslashga oid izlanishlar juda kam amalga oshirilgan. Bunday sifatga ega bo‘lish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirish, kasbiy ko‘nikma malakalarining mohiyatini chuqurroq anglashga intilish, yuqori darajadagi kasbiy mahoratni egallashga bo‘lgan motivlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligi ijtimoiy faollikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi (R.Safarova, X.Tojiboyeva, F.Ibragimova, I.Kopotyuk). V.P.Kuzovleva o‘zining bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga bag‘ishlangan ishlarida kasbiy ijodiy faollik tushunchasini qo‘llagan. Mualliflar o‘z izlanishlarida kasbiy-kognitiv faollikni talabalarni bilim va metodik mahoratni samarali va faol o‘zlashtirishga intilishi, muayyan fanni o‘qitish jarayonida muvaffaqiyatli ishlash mahoratiga ega bo‘lish, ta‘lim-tarbiyaviy jarayonida o‘zining funksional yetukligini namoyon etish layoqati sifatida baholaganlar. Oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish faolligi uzluksiz ta‘limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qituvchining metodik mahoratini keng ko‘lamda namoyon etishga asos bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligi metodik mahoratni jadal o‘zlashtirishi, uning intellektual hamda kasbiy faoliyatga tayyorligi, o‘qitishning ilmiy uslublarni qo‘llay olishi, o‘quv tarbiya jarayonning faol subyekti sifatida o‘zni namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-kognitiv faollikni tarbiyalash pedagogik rivojlanishning manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-kognitiv ehtiyojning rivojlanishi yuqori darajadagi kompetenlikka ega bo‘lgan pedagoglarni tayyorlashning muhim shartidir. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligi birinchi navbatda metodik mahoratni rivojlantirishning mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarning kasbiy rivojlanishi zarur bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatlari tarkibining o‘zgarishiga ham olib keladi. Ayniqsa bu fan o‘qituvchilari metodik mahoratini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lib, alohida yondashuvni talab qiladi. Buning uchun:

1. Fan o‘qituvchining faoliyati o‘quv predmetining mazmun-mohiyatini o‘quvchilar ongiga yetkazish bilan bog‘liq. O‘quvchilar o‘quv fanini o‘zlashtirishga kirishishgan dastlabki kunidan boshlab pedagogik jarayonga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular uchun ona tili, adabiyot, tarix kabi o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirishga oid rang-barang faoliyatni amalga oshirish ehtiyoji vujudga keladi. Shuning uchun ham bo‘lajak fan o‘qituvchisi o‘quvchilarning intellektual hamda axloqiy rivojlanishlari uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini taqdim etishga oid metodik mahorat hamda ularni qo‘llab quvvatlash, intellektual faoliyatga undash kompetensiyasiga ega bo‘lishlari talab etiladi. O‘quvchilarning yosh va gender xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular faoliyatining ahamiyati, muloqoti, jamiyatning insoniy quvvatlarining asosi sifatida rivojlantirilishi lozim. Buning uchun o‘qituvchilar yuqori darajadagi metodik mahorat va psixologik madaniyatga ega bo‘lishlari kerak.

2. O‘quv fanlarini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar tizimli tarzda universal xarakterdagi o‘quv harakatlarini egallashlari lozim. Chunki ularning o‘zlashtirilgan bilimlari o‘qib o‘rganishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bo‘lajak fan

o‘qituvchisining faoliyati ta’lim jarayonida kafolatlangan natija olish mahoratiga ega bo‘lishga yo‘naltirilishi lozim. Chunki o‘quvchilarning rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy-kognitiv faolligi va metodik mahoratiga bog‘liq. Ta’lim jarayonining asosiy natijasini o‘quvchilarning bilish, moddiy borliqni anglash, ma’naviy rivojlanishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan bilimlar tashkil etadi.

3. Ta’lim jarayonida o‘quv predmetlarining mazmunini o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarning intellektual sohalari va shaxsiy sifatlari rivojlanadi. Chunki ta’lim oluvchilarning intellektual hamda shaxsiy taraqqiyotini ta’minlash axborotlashgan jamiyat, innovatsion xarakterdagi iqtisodiyot, tolerantlikka asoslangan demokratik xarakterdagi fuqarolik jamiyati, madaniyatlar dialogi va millatlararo hurmatga asoslangan O‘zbekiston jamiyatining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Bunday sifatlarni shakllantirish uchun esa o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlari tarkibini boyitish talab qilinmoqda. Mazkur talab o‘qituvchining alohida metodik mahoratga ega bo‘lishni taqozo etadi. Shuning uchun bo‘lajak fan o‘qituvchilarining metodik mahoratini kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish ularning kasbiy shakllanishini ta’minlash, kognitiv faolligi va pedagogik tafakkurini jamiyatning yangi talablari asosida boyitish, pedagogik faoliyat kotsepsiyasining mazmun-mohiyatini anglagan holda kasbiy faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlash imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy ongini metodik mahoratga yo‘naltirish uchun ularda motivatsiya hosil qiluvchi, refleksiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi, tanqidiy fikrlashga undovchi, fikriy ijodiy tashabbuskorlik, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari uchun qulay pedagogik vaziyatlarni vujudga keltiruvchi pedagogik muhitni taqozo qilmoqda. Buning uchun pedagogika turkum fanlar mazmunini integratsiyalash, madaniyatshunoslik va kognitiv yondashuvga ustuvorlik berish bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvomadaniy va funksional bilimlarini boyitish, ularda yangicha xulq-atvor motivlarini hosil qilishni taqozo etmoqda.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodologik mahoratini rivojlantirish ularni o‘qitish metodlari bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta’lim metodikasini gumanistik mazmun bilan boyitish, muammolarni mustaqil izlab topishga yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash, taqozo qilinmoqda. Bunday metodlar sirasiga loyiha, tadqiqotchilik, muammoli izlanish metodlarini kiritish mumkin.

5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘qituvchilari, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilimlari integrativ xarakterga ega. Ular serqirra pedagogik faoliyatni amalga oshiradilar. Shu bilan bir qatorda didaktik hamda metodik xarakterdagi kompleks pedagogik harakatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun metodik mahoratining umumiy qismini pedagogik nazariyalar, pedagogik funksiyani bajaradigan metodikalar tashkli etishi lozim. Didaktika bo‘lajak o‘qituvchining xususiy metodik mahorati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda bo‘lajak o‘qituvchining metodik mahorati ta’lim mazmuni bilan uni o‘qitish metodlari orasidagi mutanosiblikni ta’minlash asosida rivojlantirilishi lozim. Pedagogikaning fundamental masalalari bilan o‘qituvchining xususiy metodik mahorati orasida aloqadorlikning ta’minlangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik mahoratini rivojlantirishda umumpedagogik nazariyaga tayanish ularda kasbiy-kognitiv faollikning yaqqol namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.G.Safarova. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: “Science and innovation”, 2024. – 186 bet.
2. Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari: pedagogika fanlari doktori diss. T.: TDPU, 2022-yil. 222 bet.
3. И.Копотюк. Методика преподавания: оценка профессиональных компетенций у студентов : учебное пособие для вузов / Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 212 с.
4. B.Xodjayevva b. Pedagogikaning pragmatik asoslari. – T.: Ijod nashr. 2023, - 408 b.

A COGNITIVE APPROACH TO DEVELOPING METHODOLOGICAL SKILLS IN HIGHER EDUCATION: GLOBAL EXPERIENCES

Dr. Anita Banerjee

*Associate Professor, & Head (Dept. of Management & Social Sciences, Amity University,
Tashkent*

Abstract. *Developing the methodological skills of future teachers is essential for enhancing the quality of education worldwide. This article examines how cognitive approaches have been implemented internationally in teacher training programs to develop methodological skills, highlighting challenges, innovative solutions, and exemplary case studies. Through examples from the United States, Finland, Japan, India, and other countries, the article identifies effective strategies and discusses current trends and statistical outcomes in building cognitive-based methodologies in teacher education.*

Keywords: *teachers, cognitive, education, critical thinking, psychology training.*

I. Introduction

The abilities that educators need to possess are growing more complicated in an increasingly worldwide educational environment. Cognitive techniques are being used in teacher training programs, especially in higher education, to make sure that instructors have the methodological know-how to improve student engagement and instructional effectiveness. However, this shift is complicated by national differences in education systems, cultural norms, and available resources. By examining these issues and drawing on a variety of global experiences, educational institutions can develop more flexible and successful teacher-training models.

1.1 What is the Cognitive Process

Memory, problem-solving, and critical thinking are among the mental processes that are the emphasis of the cognitive approach to teacher education. By focusing on how educators may comprehend and use learning processes to enhance teaching strategies and develop students' analytical abilities, it is consistent with contemporary educational psychology. Teachers who receive cognitive-based teacher training are more equipped to identify various learning styles, make wise decisions about their lessons, and create adaptable, flexible teaching strategies.

II. Global Experiences: Strategies and Case Studies

1. United States: Promoting Problem-Solving and Critical Thinking Capabilities

The use of cognitive science in educational approaches has a lengthy history in the United States. Teach for America and other graduate programs place a strong emphasis on problem-based learning (PBL), in which aspiring educators gain knowledge by addressing actual educational problems. The U.S. Department of Education reports that cognitive-based techniques like case-based learning and reflective teaching are currently included in 75% of teacher preparation programs.

Example : As an illustration, the School of Education at the University of Michigan employs video-analysis training, in which aspiring educators examine recorded classroom scenarios to pinpoint efficient techniques and approaches. Research indicates that 87% of students who receive this type of training exhibit improved classroom management and instructional skills.

2. Finland: Prioritizing Tailored Education

Finland's education system, which is considered to be one of the best in the world, emphasizes active involvement and individualized learning through a strong cognitive approach. Comprehensive cognitive psychology training is a part of Finnish teacher education, enabling prospective teachers to adapt their instruction to the requirements and cognitive abilities of each individual student. Additionally, teacher candidates participate in lengthy practicums where they get feedback and learn how to adjust their teaching strategies.

For instance, the University of Helsinki's teacher training curriculum include a "learning by doing" component in which teacher candidates spend six months observing, instructing, and evaluating their own performance. Finland's continuous performance in PISA rankings, particularly in reading and problem-solving abilities, can be attributed to this strategy. Finnish pupils routinely place in the top 5 worldwide in reading, arithmetic, and Science . This success is largely attributed to the high methodological standards of its teachers.

3. The Republic of Singapore

The focus of Singapore's teacher education programs is on cognitive-based tactics like differentiated instruction, which adapts teaching methodologies to students' cognitive skills, and pedagogical content knowledge. Teachers receive training in scaffolding, a key idea in cognitive science that aids students in moving from easy to difficult problem-solving exercises.

Data: Singapore's students routinely place first in reading, arithmetic, and science, and the country routinely tops the OECD's PISA test results. Singapore's reading score of 549 in the 2018 PISA rankings was much higher than the OECD average of 487.

4. Canada

Drawing on cognitive theories that encourage active learning, Canada uses reflective practice and inquiry-based learning in its teacher education programs. Metacognition, or thinking about one's own thinking, is a strategy that Canadian teacher educators advise aspiring educators to utilize to improve their teaching strategies.

Statistics: In PISA tests, Canada is ranked in the top 10 for reading, science, and math. In 2018, Canadian students' average reading score was 520, significantly higher than the OECD average.

5. Japan: Reflection-Based Practices and Collaborative Learning

"Lesson study," a cooperative method of professional development in which teachers prepare, observe, and discuss lessons together, is a major component of Japanese teacher preparation. This cognitive-based method helps aspiring educators build strong analytical and

observational abilities by emphasizing reflection and iterative growth. This approach has promoted a culture of ongoing learning in addition to enhancing teacher competencies.

For instance, teachers in Tokyo’s Shibuya Ward regularly engage in lesson-study sessions, which improves student performance. Ninety percent of participating instructors claim better problem-solving abilities and higher-quality education, according to the Ministry of Education, Culture, Sports, Science, and Technology (MEXT).

6. India

The country has been making progress in integrating cognitive techniques into its teacher education system. The 2020 National Education Policy (NEP) marks a dramatic change in India's approach to teacher preparation. The policy places a strong emphasis on helping aspiring educators enhance their critical thinking and problem-solving abilities, shifting away from rote memorization and toward more cognitively stimulating teaching strategies.

Reforms in Teacher Training: The NEP 2020 emphasizes the necessity of bolstering teacher training institutes (TTIs) by incorporating cognitive-based teaching practices into curriculum design. With a focus on holistic, student-centered learning, future educators are being prepared in the ways that kids learn and think.

Novel Models: Based on cognitive science, several Indian states have developed novel approaches to teacher education. For example, Kerala has implemented programs that teach teachers inquiry-based learning and differentiated instruction, which are modeled after those in Finland and Singapore.

Reflective Teaching: In India, teacher preparation programs are now including reflective teaching techniques. The emphasis is on motivating educators to consider their pedagogical approaches and modify their ways to accommodate students' cognitive needs.

Statistics: Only 40% of India's more than 17,000 teacher education institutes are operating effectively, according to the National Council for Teacher Education (NCTE). By emphasizing cognitive approaches, the aim is to raise the standard of teacher education, which should enhance student results.

As an illustration, Azim Premji University in India incorporates cognitive science into its curriculum and trains instructors in the usage of concepts-based learning and mind mapping. Data from the Azim Premji Foundation indicates that these cognitive techniques have improved teacher effectiveness by 30% among participants from rural areas..

Implementing Cognitive Approaches in Teacher Education Presents Difficulties

Even with the aforementioned successful instances, there are still a lot of obstacles to overcome when integrating cognitive-based approaches into teacher preparation:

Resource Restrictions: Access to technology, training materials, and qualified teachers are all necessary for cognitive-based teaching approaches. Budgetary constraints frequently prevent developing nations from accessing these resources.

Cultural Opposition to Change: Cognitive approaches frequently call for a move away from rote learning and toward more interactive techniques. Communities and educators may be reluctant to stray from traditional teaching practices, which might lead to resistance to this shift.

Absence of Skilled Trainers: Knowledgeable trainers are necessary to implement cognitive-based training. Finding lecturers with expertise in cognitive science is a challenge for many schools, particularly in less urbanized areas.

Overemphasis on Theoretical Knowledge: Teacher preparation programs in a number of nations overemphasize educational theory while undervaluing its practical application. As a result, aspiring educators are ill-equipped to use cognitive methods in actual classroom settings.

Administrative and Policy Restraints: Although the government must strongly promote educational changes, uneven policies and bureaucratic hold-ups may prevent cognitive techniques in teacher education from being widely adopted.

Future Paths and Solutions

Investing in Training and Resources

Countries must set up funds expressly for cognitive approaches teacher training. Funding and training assistance can be obtained through partnerships with international organizations such as the OECD and UNESCO, especially for areas with limited resources. Teachers can access training and resources remotely with the help of digital tools and platforms, which also provide affordable solutions.

Making Use of Technology

Cognitive-based learning can be aided by digital resources. For example, Canada simulates classroom settings using technology, allowing aspiring educators to practice cognitive-based techniques. Additionally, India might increase the amount of educational technology it uses to help teacher education programs with cognitive training.

Programs for Professional Development and International Collaborations

Creating international networks of teacher preparation programs can help share best practices and give access to a variety of cognitive training strategies. Online courses, exchange programs, and cooperative workshops can promote shared learning experiences and close skill gaps.

Encouragement and Assistance for Policies

By establishing guidelines and providing rewards for teacher preparation programs, policymakers can significantly contribute to the advancement of cognitive techniques. Improved instructional quality and increased student engagement are the results of specific legislative reforms implemented in nations like Singapore, which require new teachers to complete cognitive-based training.

Programs for Cultural and Community Awareness

Resistance can be lessened by programs designed to inform stakeholders and communities about the advantages of cognitive-based learning. Pilot programs and demonstration projects that highlight better student results can be effective catalysts for broader adoption of these strategies.

Conclusion

One option to improve educational outcomes globally is to use cognitive techniques in higher education to help future teachers develop their methodological abilities. Even while nations like the US, Finland, Japan, and India are making progress in this area, difficulties still exist, particularly in situations with limited resources. Educational institutions around the world can embrace cognitive approaches to guarantee that aspiring teachers have the abilities required for a dynamic, changing classroom environment by taking inspiration from effective international models and putting specific solutions into practice.

REFERENCES

1. U.S. Department of Education, 2022. Teacher Preparation and Cognitive Approaches.

OLIIY TA’LIMDA MATEMATIK FANLARNI O‘QITISHNING METODIK MUAMMOLARI TAHLILI

Miryusupova Muxabbat Mirqosim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

miryusupovmirjalol080@gmail.com

Davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratdi. Ta’lim sifatini zamonaviy va jahon talablari darajasiga yetkazish takomillashtirishga alohida e’tibor berildi. Hozirgi kunda matematik fanlarni o‘qitishda oq bo‘r va qora doska orqali samarali natijaga, mavzudan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin emas.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga doir katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Bugungi kunda o‘qituvchi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to‘la auditoriyaga katta hajmdagi bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. O‘tkazilgan ko‘pgina tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, o‘qitishga yangicha qarash, talabalarni o‘qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Oddiy so‘z bilan aytganda, talabalar o‘quv

jarayoniga faol jalb qilingandagina berilayotgan materiallarni oson idrok etadi, tushunadi va eslab qoladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashni taqozo etadi.

Hozir Oliy ta’lim matematikasida o‘quv dasturlarini tuzishda uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash asosiy masaladir. So‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga (12 yillik majburiy ta’lim, umumta’lim maktablarida 10-11- sinflarda o‘qitishning qayta tiklanishi va boshqalar) muvofiq matematik ta’limning o‘quv dasturlariga mos o‘zgarishlarning o‘ylanmasdan shoshma- shosharlik bilan kiritilishi natijasida matematika fani ham o‘qituvchi ham o‘quvchi uchun umumta’lim fanlari orasida eng qiyin fanga aylangani, maktab dasturi va oliy ta’lim dasturi o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik sustlashganining natijasidir. Albatta bu muammoning yechimini faqat umumta’lim maktablari matematikasini o‘zgartirish bilan hal bo‘lmaydi. Bunda Oliy ta’lim matematikasi tub asos hisoblanadi.

Oliy ta’lim matematikasida “Matematika” yo‘nalishi talabalari uchun o‘qitiladigan matematik analiz fanining metodik muammolari:

Matematik analiz fani o‘qishning dastlabki bosqichlarida maktab matematikasining mantiqiy davomi sifatida to‘g‘ri mavzular asosida tuzilganligini biz o‘qishning dastlabki bosqichidagi talabalarga chuqurlashtirilgan tarzda funksiyalarning limitlari, funksiyaning differensial va hosilasi, hosilaning fizik, geometrik ma’nolari asosida uning mazmuni ko‘rsatib beriladigan darslarida

ko‘rishimiz mumkin. Matematik analizning tanqidiy tahlili sifatida uni alohida fan sifatida elementar matematikaning ma‘nosini ochib beradigan mavzular asosida tashkil etilmaganligini olishimiz mumkin.

Matematik analizning elementar matematika masalalariga tatbiqlari, uni kam tadqiq qilgan mavzulari va oliy ta‘lim matematikasining boshqa fanlariga integratsiyasi chuqurroq o‘rgatilishi buning uchun esa fanning mavzulari isloh etilishi kerak.

Matematik analiz fanini leksiya darslarida ko‘rgazmali materiallarni, kompyuter texnologiyalarini, tizimlashtirilgan taqdimotlarni interfaol tarzda qo‘llash orqali–ma‘ruza, suhbat, aqliy-hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat metodlarini qo‘llash mumkin.

Matematika o‘qitish metodikasi tahlili: Matematika o‘qitish metodikasi matematik mavzuni maqsadga yo‘naltirilgan holda turli metodikalar, usullar va vositalar asosida o‘qitishdir. Matematika o‘qituvchisi nafaqat o‘z fani bo‘yicha chuqur bilimli bo‘lishi kerak, balki unda psixologiya va metodika ham yuksak darajada rivojlangan, zamonaviy AKT lardan xabardor bo‘lishi kerak. Metodikani rivojlantirish uchun uni bo‘lajak pedagoglarga xalqaro mezonlar asosida o‘qitish kerak va buning uchun fanning mavzularini isloh qilish kerak. Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta‘lim dasturlari yaratib, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo‘lishi kerakki, u bolalarda matematikaga muhabbat uyg‘otsin. Buning uchun o‘quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o‘ziga kerakligini anglashi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oliy ta‘lim matematik fanlarini mavzular kesimida o‘rganish talab etiladi. Kelajak bunyodkorlari bo‘lgan pedagog kadrlarni mahoratli qilib tayyorlashda ayniqsa quyidagi fanlarning o‘rni beqiyos.

Matematika o‘qitish metodikasi

Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi Matematika fanlarini kasbga yo‘naltirib o‘qitish Matematika o‘qitishda texnologiyalar va loyihalash Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari

Shuningdek, matematika fanlari darsliklarining nazariy bilimga ko‘proq yo‘naltirilganligi va real hayotdan uzilib qolganligi oqibatida matematika o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydigan, hayotiy muammoni yechishga va tadqiq etishga yo‘naltiradigan qiziqarli fan sifatidagi jozibadorligini yo‘qotgani aytishimiz mumkin. Ta‘lim inspeksiyasi tomonidan o‘tkazilayotgan milliy va xalqaro tadqiqotlarda (PISA) ham bu o‘z isbotini topmoqda. Bu kabi muammolar oliy ta‘lim tizimida ham dolzarbligicha qolmoqda.

Oliy ta‘lim muassasalarida matematikani o‘qitishda kadr tayyorlaydigan yo‘nalish va mutaxassislikning o‘ziga xosligini inobatga olmasdan “bir qolip barchasiga mos tushadi” tamoyili asosida o‘qitilishi ham tanqid ostiga olinmoqda.

Matematika fanining umumiy, statistik tahlili.

Ta‘lim inspeksiyasi va Matematika instituti mutaxassislari tomonidan bu borada Finlandiyaning tajribasini o‘rgangan holda, nafaqat matematik ta‘lim dasturlarini, balki uni o‘qitish metodikasi va o‘quvchilarda matematik ko‘nikmalarni baholash tizimini takomillashtirish, matematika fanlari o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbari Matematika sohasida ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish PQ 4708 ga asosan:

Tegishli yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi qoshidagi Matematika instituti bilan hamkorlikda ishchi guruh tuzildi. Shuningdek, ishchi guruh a’zolari tomonidan 21 fan bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimi uchun konsepsiyalar loyihalari tayyorlanib, “Uzluksiz ta’limda fanlar uzviyligi” muhokamalar portaliga joylashtirildi. Bugungi kunga qadar mazkur portalga

3000 dan ortiq takliflar kelib tushgan. Bundan tashqari, ta’lim turlari aro o‘xshash fanlar saralab olinib, mazkur fanlarning bir-birini takrorlovchi hamda o‘ziga xos tomonlari qiyosiy o‘rganildi.

Ta’kidlanishicha, fan dasturlari qiyosiy tahlili natijasiga ko‘ra, maktabgacha ta’lim bosqichida 44 ta, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda 184 ta, kasbiy ta’limda 78 ta, oliy ta’limda 151 ta, ya’ni 4 ta ta’lim bosqichida jami 457 ta mavzu qisqartirilishi taklif qilingan. Shuningdek, uning so‘zlariga qaraganda, maktabgacha ta’lim bosqichida 115 ta, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda 601 ta, kasbiy ta’limda 131 ta, oliy ta’limda 173 ta, ya’ni barcha ta’lim bosqichlarini hisoblaganda jami 1020 ta mavzu yangidan kiritilishi yoki takomillashtirilishi kerak.

Xususan, mazkur masalani birgina matematika fani misolida ko‘radigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim bosqichida 3 ta, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda 20 ta, kasbiy ta’limda 3 ta, oliy ta’limda 3 ta, ya’ni 4 ta ta’lim bosqichida jami 29 ta mavzuda ta’lim turlari orasidagi uzviylik ta’minlanmagan. Shuningdek, barcha ta’lim turlari bo‘yicha fan dasturlaridagi 94 ta mavzu takomillashtirilishi yoki yangi kiritilishi kerak. Shuningdek, fan dasturlarini PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarga moslashtirish uchun 4 ta ta’lim turida jami 89 ta mavzu kiritilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. (2021). Ta’lim sohasini isloh qilish va sifatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. Tojiyev M. Alimov A.Y. .Pedagogik texnologiya : ta’lim jarayoniga tatbiqi. Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida “Matematika o‘qitish metodikasi” fanining modeli. I-qism. 135-b
3. Jumaniyozova N. A. (2019). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning matematika o‘qitishdagi o‘rni. O‘zbekiston Pedagogika Jurnali, 4(25), 45-52.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press. Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning rivojlanish jarayoniga ta’sir qiluvchi metodlar haqida ma’lumot.
5. Tajikbayev, U. R., & Abdurashidov, M. M. (2020). Interfaol metodlarning matematika ta’limida qo‘llanilishi. Ilmiy-Amaliy Konferensiya Materiallari.
6. OECD (2019). PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing. Xalqaro tadqiqotlar (PISA) orqali ta’limda kompetensiyalarni o‘lchash metodlari.
7. Jonbekov, F. R. (2021). Matematika o‘qitish metodikasi: Yangi yondashuvlar. Yosh Pedagoglar Jurnali, 1(3), 12-18.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE LABOR MARKET: AN ECONOMIC PERSPECTIVE

Abdullayev Abdurahman Alisher ugli

Former student of Academic Lyceum of TUIT

Abstract: Following article examines the impact of Technology and AI on the Job Market, including information about the history, current trends and future hypothesis regarding these innovations.

Keywords: Artificial Intelligence, labor market, automation, job displacement, employment polarization, high-skill roles, globalization, wage disparity, policy recommendations, lifelong learning.

Introduction. In recent years, Artificial Intelligence (AI) has become an integral force in modern economies, transforming industries with unprecedented speed and efficiency. Its accessibility and vast applications—spanning healthcare, finance, manufacturing, e-commerce, transportation, education, and beyond—offer powerful opportunities to improve productivity. Historically, technology has already reshaped labor markets, as machinery reduced the need for physically demanding jobs, allowing industries to achieve higher efficiency.

Today, AI further accelerates these trends, raising productivity but also creating challenges for certain job sectors. Many roles, particularly those involving routine tasks, are being replaced by automation, while the demand for skilled workers who can manage and develop these technologies grows. This article examines the impact of AI and automation on the labor market, exploring historical effects on job displacement, current economic impacts, sector-specific transformations, and trends in job demand. By considering future workforce needs, we explore how countries might strategically adapt education, labor policies, and economic frameworks to thrive alongside AI advancements.

Since the onset of industrial automation, economists have noted that technology boosts productivity but also displaces certain jobs, a concept famously termed “creative destruction” by Joseph Schumpeter (1942). Robert Solow’s “Solow Growth Model” (1956) also identified technology as a fundamental driver of long-term economic growth. These theories highlight both the promise and disruption inherent in AI, which is accelerating this cycle.

In the 1970s, Japan’s automotive industry leveraged automation to streamline production and reduce dependency on manual labor. As economist David Ricardo’s “Comparative Advantage Theory” (1817) suggests, Japan gained a competitive edge by automating assembly tasks, thereby addressing its aging workforce. This shift established Japan as a leader in automotive exports but also displaced low-skill jobs, reinforcing labor market polarization—a phenomenon analyzed in detail by David Autor (2003), who found that technology widens the gap between high- and low-skill roles.

The rise of office software in the 1980s and 1990s, such as Microsoft Word and Excel, transformed the U.S. job market by reducing demand for middle-skill clerical roles like typists and filing clerks, while increasing the need for high-skill IT positions in software development and IT management. This shift resulted in job market polarization, where opportunities for skilled workers grew, but traditional office roles declined.

Example: In the U.S. office sector, the widespread adoption of office software led to a surge in demand for IT support and development roles, especially in urban tech hubs like Silicon Valley. Meanwhile, rural areas, where office roles were harder to replace, experienced economic stagnation. The resulting income inequality reflected the growing divide between tech-centered regions and areas reliant on middle-skill office jobs. For displaced clerical workers, this shift underscored the necessity of upskilling and reskilling to adapt to a technology-oriented labor market.

With advancements in software and communication technologies, companies began offshoring routine tasks to countries with lower labor costs. This trend, which gained traction in the early 2000s, particularly impacted customer service, data entry, and IT support roles, where remote work was both feasible and cost-effective.

Example: The Philippines capitalized on the offshoring trend, establishing itself as a global hub for outsourced customer service, particularly from North America and Europe. Companies like IBM, Accenture, and Convergys set up extensive operations in the Philippines, leveraging the country's English-proficient workforce and competitive labor costs. This boom turned business process outsourcing (BPO) into a vital economic contributor for the country, fueling urban growth in cities like Manila and Cebu. Conversely, this shift led to job displacement in the U.S. and Europe, as middle-wage customer service positions became less available, reshaping employment patterns in those economies.

Autor's Skill-Biased Technological Change theory (2003) suggests that AI adoption disproportionately affects routine, middle-skill jobs, pushing workers toward high-skill tech roles or low-skill manual labor. AI impacts vary across sectors, but wage polarization is a consistent trend. The U.S. office sector in the 1980s saw a decline in middle-skill roles (e.g., typists and filing clerks) as office software became ubiquitous. This reduced demand for clerical jobs but boosted high-skill roles, resulting in income disparities that persist today.

AI-enabled communication and process management tools have fueled globalization, allowing companies to offshore roles like customer service and IT support. Claudia Goldin and Lawrence Katz's *Race Between Education and Technology* (2008) suggests that countries need to continually upskill their workforces to stay competitive as global labor distribution shifts.

The Philippines capitalized on the rise of global outsourcing, becoming a major hub for customer service. This shift contributed significantly to the Philippine GDP but simultaneously displaced jobs in North America and Europe, reshaping income distribution and job availability.

Generative AI has transformed content-heavy roles in marketing and customer service, automating tasks previously performed by entry-level employees. Research by Frey and Osborne (2013) estimated that content creation and customer service roles have a high probability of automation, posing risks for job displacement in these areas.

Entry-level roles, such as junior content creators and customer service representatives, face replacement risks, which could lead to higher unemployment among low-wage workers. This aligns with Keynesian economic concerns about reduced aggregate demand due to rising unemployment.

In manufacturing, AI and robotics have automated labor-intensive tasks, from sorting to quality control. Goldin and Katz's "Skill-Biased Technological Change" theory suggests that this shift increases the demand for skilled technicians while reducing opportunities for low-skill manufacturing workers.

Germany and China have enhanced output and efficiency through automation, though these

advances also increase income inequality as workers without access to training face job insecurity.

AI is also transforming healthcare by supporting diagnostics and managing patient records. However, reliance on AI in these areas may sideline human judgment, as seen in recent studies by Acemoglu and Restrepo (2019), who warn of "deskilling" in automated professions.

In diagnostics, AI aids medical imaging and illness detection, improving accuracy but also necessitating retraining for healthcare professionals to effectively collaborate with AI systems. This specialization aligns with the growing demand for tech-integrated roles in healthcare.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya fanini o‘qitishning mavjud holatini tahlil qilish, uning ahamiyati va qo‘llanilayotgan usullarning samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Ma’lumki, tarbiya fanining mazmun va metodik asoslari o‘quvchilarning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Ammo, ba’zi kamchiliklar, xususan, o‘qituvchilarning malakasi va ta’lim jarayonidagi innovatsion usullarning yetarlicha joriy qilinmaganligi ko‘zga tashlanadi. Bundan kelib chiqib, tarbiya fanini o‘qitishda yangi metodikalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini kengroq joriy qilish, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov, Sh. A. (2020). "Tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy usullar." Toshkent: Maorif.
2. Sharipova, L. M. (2019). "Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya fani: tahlil va tendensiyalar." Ta’lim va pedagogika jurnali, 4(1), 22-30.
3. Abdullaeva, M. X. (2021). "Tarbiya fani va o‘quvchilarning axloqiy rivojlanishi." Oliy ta’lim va pedagogika, 6(3), 45-52.
4. Maxmudova, G. N. (2022). "Tarbiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar." Pedagogikada yangi tendensiyalar, 3(2), 78-85.
5. Toshmuxamedov, X. B. (2018). "Tarbiya fanini o‘qitishning amaliyotdagi samaralari." Oliy ta’limda pedagogika, 7(4), 54-61.
6. Perov, V. I. (2020). "O‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalash: nazariy asoslar va amaliyot." Rossiya ta’limi, 9(2), 33-40.

YOSH O‘QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA NEYROTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

U.N. Xodjamqulov

ChDPU, Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasulova Madinabonu Ro‘zi qizi

Pedagogika yo‘nalishi 2 kurs talabasi

Shodiyeva Aziza Asliddin qizi

Pedagogika yo‘nalishi 2 kurs talabasi

Hozirgi kunda ta’lim va texnologiyalar yangilanmoqda, va bu o‘z navbatida yoshlarning intellektual rivojlanishini yangi darajaga olib chiqmoqda. Tafakkurni rivojlantirish uchun yangi usullar qo‘llanilmoqda, bu yerda neyroteknologiyalar o‘zining muhim o‘rnini topmoqda. Neyroteknologiyalar insonning miyasini o‘rganish, uning ishlash prinsiplarini tushunish va ulardan foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlardir. Bu texnologiyalar yoshlar uchun samarali o‘qitishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida yosh o‘quvchilarning tafakkurini

rivojlantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalar tez rivojlanib, insonning intellektual salohiyatini oshirishda yangi usullar, texnologiyalar va metodikalar paydo bo‘lmoqda. Neyrotexnologiyalar, ya’ni neyronaukalar va o‘qitishning integratsiyalangan metodlari yoshlar uchun intellektual rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Ular miyaning ishlash mexanizmini tushunish va miyani tarbiyalashda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Neyrotexnologiyalar insonning neyrofiziologiyasini, ya’ni miyaning qanday ishlashini va uning faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan. Bu texnologiyalar ta’limda yoshlar uchun ularning tafakkurini shakllantirishda yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Neyrotexnologiyalar o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish, ularning yodlash qobiliyatlarini oshirish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, neyrotexnologiyalar psixologik va emotsional aspektlarni ham inobatga oladi, ya’ni o‘quvchiga stressni kamaytirish, shubhalarni yengish va o‘qish jarayonini kayfiyat bilan bog‘lashga yordam beradi.

Neyrotexnologiyalar — inson miyasini o‘rganish, uning ishlashini tahlil qilish va uning faoliyatini boshqarishga qaratilgan texnologiyalar jihatidan to‘plangan ilmiy sohadir. Bu sohada tadqiqotlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda yangi usullar va texnologiyalarni ishlab chiqishga olib kelmoqda. Neyrotexnologiyalar miyaning quyidagi jihatlarini inobatga olishga yordam beradi:

Miyaning ishlashini qayta qurish va yangi miya to‘qimalarini yaratish qobiliyati, bu esa yoshlarda ta’lim olish jarayonida faoliyatni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Miyaning faoliyatga bo‘lgan munosabatiga, yangiliklarga va muammolarga moslashish qobiliyatini rivojlantirish.

Yosh o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda neyrotexnologiyalarning ahamiyati katta. Ushbu texnologiyalar quyidagi sohalarida foydalaniladi:

Neyrotexnologiyalar yoshlarda tafakkurni shakllantirish va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishda samaralidir. Masalan, vizualizatsiya, yodlash va diqqatni bir joyga to‘plash imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Neyrotexnologiyalar interaktiv o‘qitish usullarini o‘rganish va o‘quvchini belsandas o‘zgaradigan muhitda tarbiyalash imkoniyatini yaratadi. Miya ishlashidagi o‘zgarishlar yosh o‘quvchilarning ta’sirga nisbatan yuksak sezgirligini ko‘rsatadi.

• Neyrotexnologiyalar yoshlar ustida ta’sir ko‘rsatib, ularning emotsional intellektlarini rivojlantiradi. Bu yoshlarga mustaqillik va ijodkorlik, ishonch va fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Neyrobioobrat aloqa yosh o‘quvchilarning miya faoliyatini monitoring qilish va ularga foydalanish mumkin bo‘lgan ishonchli ma’lumotlarni berish imkonini yaratadi. Bu usul o‘quvchilarning diqqatini to‘plash, stressni kamaytirish va tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu texnologiya o‘quvchilarning stressni boshqarish va emotsional holatlarini tartibga solishga yordam beradi. Miya faoliyatini kuzatish orqali o‘quvchilar o‘z holatlarini his qilish va ularni o‘zgartira olishadi.

Virtual reallik va augmentlangan reallik texnologiyalari yosh o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi. Bu usullar orqali o‘quvchilarga real hayotda qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yinlar, misollar va muammolar yechimi taklif etiladi.

Neyrotrenajorlar, masalan, kognitiv trenajorlar, yoshlarning yodlash qobiliyatlarini, diqqatni, yordam berish va yo‘naltirish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu turdagi trenajorlar so‘nggi

tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan va ularning samaradorligi yaxshi ko‘rsatkichlarga ega. Neyrotexnologiyalardan foydalanishda pedagogik metodikalarning to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodikalar:

• **Ajratilgan nazariy va amaliy ishlash:** Texnologiyalar qo‘llaniladigan o‘quv dasturlari amaliy tajriba bilan birlashtirilishi kerak.

• **Interaktivlik va o‘rganish jarayonini shaffoflashtirish:** O‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash, ularni yoshga mos va qiziqarli texnologiyalar bilan tanishtirish.

• **Har bir o‘quvchining individual salohiyatiga qarab:** Neyrotexnologiyalardan foydalanishda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Neyrotexnologiyalar yosh o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat aqliy, balki emotsional va ijodiy rivojlanishni ham ta‘minlashga yordam beradi. Neyrotexnologiyalarning ta‘limdagi qo‘llanilishi, ularning miya faoliyatini yaxshilash, yangi yo‘nalishlarni yaratish va o‘quvchilarni murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar, o‘z navbatida, kelajakda yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish va ularni muvaffaqiyatga erishishga yordam berishga olib keladi.

Neyrotexnologiyalar yoshlarning tafakkurini rivojlantirishda muhim instrumentlardan biriga aylanmoqda. Bu texnologiyalar orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning murakkab muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish mumkin. Neyrotexnologiyalar ta‘limda yanada samarali usullarni ishlab chiqishga yordam beradi va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ushbu texnologiyalarning kelajagi o‘quvchilarning intellektual va emotsional rivojlanishida muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muqaddas Khahramonovna Rakhmanova Development of creative skills of students as a problem in the educational cluster environment. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments PCJPD: B.182-190

2. M.Q. Raxmanova. Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy va pedagogik omillarning o‘zaro aloqadorligi Mug‘allim h m yzliksiz bilimlendirio‘ 2024 y. №2 289-294

3. Raxmanova M. Q. Individual yondashuv asosida talabalarning kreateligin rivojlantirish. Science and innovation ideas in modern education Vol. 2 No. 1 (2024) 82-87

4. Raxmanova M.Q Talabalarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods 2024. <https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1> 48-52 .

5. Gafurdjan Israilovich Mukhamedov , Jabbor Eshbekovich Usarov, *, Dustnazar Omonovich Khimmataliev , Kodirova Feruzakhon Usmanovna , Raxmanova Mukaddas Kaxramonovna , Safiyeva Mokhinur Akram kizi , Eshbekova Nargiza Jabbor kizi , Dekhkonov Hasanboy Ubaydullayevich , Aay Susilawati Creative competence of future chemistry for students relating to environment. Journal of Engineering Science and Technology Special Issue on ISCoE2024 Vol. 19 No. 6 (2024) 65 - 72   School of Engineering, Taylor’s University 65-72

6. Raxmanova M.Q Ta‘lim klasteri muhitida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammo sifatida Pedagogical Cluster- Journal of Pedagogical Developments PCJPD: Volume 2 Issue 5, May 2024, online: ISSN 2956-896X 182-190

7. Zarifjonova, L. T. (2022). "Neyropsixologiya va ta‘lim." Toshkent: O‘zbekiston ta‘limi.

8. Sharipova, N. A. (2021). "Neyrotexnologiyalar va ularning ta'limga ta'siri." *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 1(3), 45-52.
9. Abdullaev, M. T. (2020). "Yoshlarning tafakkurini rivojlantirish: Neyropedagogika metodlari." Toshkent: Nega-Press.
10. Boybekova, N. S. (2023). "Virtual reallik va neyrotexnologiyalar ta'limda." *Neyronaukada yangi tendensiyalar*, 7(2), 78-85.
11. Maxmudova, G. B. (2019). "Neyrotrenajorlar va ularning ta'limdagi ahamiyati." *Oliy ta'lim muassasalari jurnali*, 4(1), 112-119.
12. Davlatova, L. A. (2020). "Neyrotexnologiyalar va yoshlarning intellektual rivojlanishini rag'batlantirish." *Oliy ta'limda innovatsiyalar*, 2(6), 34-41.
13. Aminova, K. V. (2018). "Pedagogikada neyropsixologiyaning asosiy yo'nalishlari." *Ta'lim nazariyasi va amaliyoti*, 5(2), 22-29.
14. Yuldasheva, R. X. (2022). "Neyrobioobrat aloqa va ta'lim." *Ta'lim va ilm*, 6(4), 93-100.
15. Petrova, V. I. (2021). "Neyropedagogikadagi yangi texnologiyalar." *Rossiya ta'limi jurnali*, 8(3), 56-64.

NEYROPEDAGOGIK VOSITALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING SHAXSIY QOBILIYATLARINI ANIQLASH METODIKASI

U.N. Xodjamqulov

ChDPU, Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiboyeva Mohinur Akmal qizi

Pedagogika yo'nalishi 2 kurs talabasi

Tohirova Xadicha Zafar qizi

Pedagogika yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada neyropedagogik vositalar asosida o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash metodikasiga e'tibor qaratilgan. Ushbu metodika o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijodiy salohiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Neyropedagogik vositalar ta'lim jarayonida individual yo'nalishlarni belgilash va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi ta'lim strategiyalarini yaratish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: neyropedagogika, shaxsiy qobiliyatlar, ta'lim metodikasi, kognitiv qobiliyatlar, emotsional rivojlanish.

Jahonda globallashuv va faol axborot almashinuv jarayonida ommaviy madaniyatning tobora avj olib borishi, XX asrda terrorizm, yektremizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi illatlar davlatlar rivojiga to'siq bo'lgan bo'lsa, XXI asrda yuqoridagi vayronkor illatlar qatorida raqamli fobiya, raqamli demans, sotsial qaramlik kabi illatlar tobora katta auditoriyani qamrab olmoqda. O'quvchilarda mazkur buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitetni hosil qilishda axloqiy qarashlarni, insoniy fazilatlarini Soft skills – hayotiy ko'nikmalar sifatida rivojlantirishga ustuvorlik

berilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta’lim tajribalaridan kelib chiqib, o’quvchilarda faol fuqarolik komretensiyalarini, insoniy fazilatlarni, ya’ni qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni rivojlantirishda neyropedagogik yondashuv bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan samarali yekanligi alohida ye’tirof yetilmoqda.

Neyropedagogika – bu ta’lim jarayonida miya faoliyatining neyrofiziologik mexanizmlarini o’rganish va ularni ta’lim-tarbiya ishlariga tatbiq etishga qaratilgan yangi pedagogik yo’nalishdir. Neyropedagogikaning asosiy maqsadi – o’quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash va ularning o’ziga xos ta’lim olish usullarini ishlab chiqishdir. Neyropedagogik vositalarning ahamiyati Neyropedagogik vositalar o’quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlashda bir qator afzalliklarga ega: Ob’ektivlik: Neyropedagogik vositalar o’quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatlarini ob’ektiv baholash imkonini beradi. Individuallashtirilgan yondashuv: Ushbu vositalar har bir o’quvchining o’ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Erta diagnostika: Neyropedagogik vositalar yordamida o’quvchilarning qobiliyatlarini erda bosqichda aniqlash mumkin. Ilmiy asoslanganlik: Ushbu vositalar neyrofiziologiya va psixologiyaning ilmiy tamoyillariga asoslanadi. O’quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash metodikasi O’quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlashda quyidagi neyropedagogik vositalardan foydalaniladi:

Neyropsixologik testlar: Vizual-motor koordinatsiyasi testlari: O’quvchining ko’z-qo’l muvofiqlashuvini baholaydi. Diqqat konsentratsiyasi testlari: O’quvchining diqqatni jamlash va saqlash qobiliyatini baholaydi. Xotira testlari: O’quvchining vizual, audial va motor xotirasini baholaydi. Tafakkur testlari: O’quvchining abstrakt tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammo yechish qobiliyatini baholaydi. Elektroensefalografiya (EEG): Miya faoliyatini o’rganishga imkon beradi. O’quvchining qaysi miya yarim sharlarining faolligi yuqori ekanini aniqlash mumkin. O’quvchining diqqat darajasi, stressga chidamliligi va boshqa ko’rsatkichlarni baholash mumkin. Funksional magnitno-rezonans tomografiya (fMRT): Miya faoliyatini vizual tasvirlashga imkon beradi. O’quvchining qaysi miya sohalari ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini aniqlash mumkin. O’quvchining ta’limga bo’lgan qiziqishi, motivatsiyasi va boshqa ko’rsatkichlarni baholash mumkin.

Neyropedagogik vositalar asosida o’quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash metodikasi, ta’lim jarayonida individual yondoshuvni ta’minlashga yordam beradi. Bu metodika miya faoliyatini tahlil qilish, emotsional va kognitiv qobiliyatlarni o’rganishga yo’naltirilgan bo’lib, har bir o’quvchining shaxsiy xususiyatlarini aniqlab, ularga mos ta’lim yo’nalishlarini belgilashga imkoniyat yaratadi. Neyropedagogik vositalar orqali talabalarning aqliy, emotsional va ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish, ularning akademik faoliyatini oshirish va o’qishdagi samaradorlikni yaxshilash mumkin. Bu metodika, o’qituvchilarga shaxsiy darajadagi qobiliyatlar va ehtiyojlarni hisobga olib, samarali ta’lim usullarini ishlab chiqishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, neyropedagogik vositalar o’quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini aniqlashda muhim rol o’ynaydi. Ushbu vositalar yordamida o’quvchilarning ta’limga bo’lgan qiziqishini oshirish, o’quv jarayonini individuallashtirish va o’quvchilarning potensial imkoniyatlarini to’liq ro’yobga chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muqaddas Khahramonovna Rakhmanova Development of creative skills of students as a problem in the educational cluster environment. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical DevelopmentsPCJPD: B.182-190

2.M.Q.Raxmanova. Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlannirish jarayonida ijtimoiy va

pedagogik omillarning o‘zaro aloqadorligi Mug‘allim ham yzliksiz bilimlendirio‘ 2024 y.№2
289-294

3.Raxmanova M. Q. Individual yondashuv asosida talabalarning kreateligini rivojlantirish.
Science and innovation ideas in modern education Vol. 2 No. 1 (2024) 82-87

4.Raxmanova M.Q Talabalarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari.
Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods 2024.
<https://westerneuropeanstudies.com/index.php/1> 48-52 .

5. Gafurdjan Israilovich Mukhamedov , Jabbor Eshbekovich Usarov, *, Dustnazar Omonovich
Khimmatalliev , Kodirova Feruzakhon Usmanovna , Raxmanova Mukaddas Kaxramonovna ,
Safiyeva Mokhinur Akram kizi , Eshbekova Nargiza Jabbor kizi , Dekhkonov Hasanboy
Ubaydullayevich , Aay Susilawati Creative competence of future chemistry for students relating to
environment. Journal of Engineering Science and Technology Special Issue on ISCoE2024 Vol. 19
No. 6 (2024) 65 - 72 © School of Engineering, Taylor’s University 65-72

6. Raxmanova M.Q Ta’lim klasteri muhitida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish
muammo sifatida Pedagogical Cluster- Journal of Pedagogical Developments PCJPD: Volume 2
Issue 5, May 2024, online: ISSN 2956-896X 182-190

7. Zarifjonova, L. T. (2022). "Neyropsixologiya va ta’lim." Toshkent: O‘zbekiston ta’limi.

JISMONIY TARBIYA DARSLARI JARAYONIDA I-IV SINF O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA JISMONIY SIFATLARINI OSHIRISH AHAMIYATI

Abduraximov Davron Dilmurotovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari jarayonida
o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va jismoniy sifatlarni oshirish yo‘llari, ahamiyati haqida fikr
yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanganlik, fiziologik mexanizmi, chiniqtirish
tadbirlari, jismoniy faollik, jismoniy mashqlar.

Аннотация В данной статье рассматриваются пути и значение совершенствования
физической подготовленности и физических качеств учащихся на занятиях по физическому
воспитанию в младших классах.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическое развитие, физиологический
механизм, тренировочная деятельность, двигательная активность, физические упражнения.

Abstract. This article discusses ways and importance of improving physical fitness and
physical qualities of students during physical education classes in elementary grades.

Key words: physical education, physical development, physiological mechanism, exercise
activities, physical activity, physical exercises.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining barkamol avlod bo‘lib shakllanishida nafaqat aqliy, balki
jismoniy sog‘lomligi ham birday zarur. O‘quvchilar jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanganligini
aniqlashda jismoniy sifatlarning pedagogik va fiziologik mexanizmlari mavjud bo‘lib, jismoniy
mehnat va jismoniy mashqlar sport bilan umuman shug‘ullanmaydigan yoshlarning tanasidagi ba’zi
xususiyatlarning jismoniy mashq qilishi natijasida o‘zgarishi, ortiqcha yuk berish natijasida salbiy

natijalar ko‘rsatishi masalasiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Chunki jismoniy mashq va jismoniy tarbiya bilan u yoki bu darajada shug‘ullanuvchilarda vujudga keladigan fiziologik o‘zgarishlar nazardan chetda qolmasligi maqsadga muvofiq. Ma‘lumki, jismoniy mashq bilan shug‘ullanuvchilar (shuningdek sportchilar ham) doimo tetik, gavda-qomatlari tik, qo‘llari va yuzlari chayir (chiniqqan) bo‘ladi. Oddiy turgan paytlarda ham 15-20 kg yukni mashina yoki boshqa ulovlarga (eshak, ot, xo‘kiz, arava va hokazo.) emin-erkin ko‘tarib ortaveradi. Lekin ko‘rinishida gavdali yoki ixcham bo‘lsada, ba‘zi bir yoshlar yuqorida aytilgan faoliyatni erkin bajara olmasligi mumkin. Chunki, ko‘pchilik yoshlar hozirgi davrda darsdan kelib, ovqatlanib olgach, yotib dam olishga odatlanganlar. Bu ijtimoiy-turmush tarbiyamiz tarzidan namunadir. Bunga eng asosiy sabab darsdan toliqib kelish emas, balki televizordagi kino, videotasvir, konsert va hokazodir. Bunday odatlar yosh bolalar (5-10) orasida ayniqsa ko‘paymoqda. Ular ham vaqti kelib, darsdan keyin «dam olish»ga shoshilishi muqarrardir. Shu o‘rinda aytish lozimki, bundan 15-20 yillar avval katta yoshdagilar, xatto keksa kishilar ham (60-70 yosh) odamlar (mehmonlar) oldidagina emas, balki oila a‘zolari oldida, xatto yolg‘iz o‘tirganda ham yostiqqa juda kam yonboshlar edi. Bunday holat asosan qishloq sharoitlarida, ko‘p takrorlanishini o‘sha davr keksalari quyidagicha ifoda etar edi, ya‘ni: «Yonboshlasang, yotaversang beling mo‘rt (bo‘sh) bo‘ladi. Kishilar oldida yonboshlash uyat (xurmatsizlik) bo‘ladi». Bu gapda olam jahon tarbiyaviy mazmun va mohiyat borligini keksalarimiz yaxshi bilishadi.

Qishloq sharoitlarida har bir yosh bolalar kattalarning oldida yonboshlab yoki yotmaydi.

Yuqoridagi naqlarni keltirishdan maqsad shuki, yonboshlab yoki yotib televizor ko‘rish, hatto ovqatlanish gavdani bo‘shashtiradi, bel umurtqalari oraliqlari ochiladi va o‘z faoliyatini susaytiradi. Shu sababdan yonboshlash va yotishning ham o‘rni hamda me‘yori (juda toliqqanda) bo‘lishi lozim. Umuman umurtqa pog‘onalari, shuningdek barcha a‘zoldagi bo‘g‘inlar doimo mustahkam bo‘lishi shart. Busiz faol harakatlarni (mehnat va sport) maqsaddagidek bajarish mumkin emas. Shu bilan birgalikda bu a‘zolarga tegishli asosiy mashqlarni (egilish, burilishi, yuk ko‘tarish, osilish, sakrash, suzish va hokazo.) muntazam bajarib turish, bo‘g‘inlarni chidamlilikka va odatiy harakatlarni bajarishga mos qilib turadi. Tanadagi a‘zolarining mehnat va jismoniy mashqlar natijasida vujudga keluvchi fiziologik xususiyatlar va o‘zgarishlarni quyidagilar bilan ifoda etish mumkin. Barcha faol harakatlar qon aylanishini tezlashtiradi. Bu o‘z navbatida qonning qizishi, issiqlikni tanaga chiqarishi tabiiydir. Natijada yuz, quloq va boshqa a‘zolda qizarish belgilari paydo bo‘ladi. Yuklanish (nagruzka) kuchli bo‘lganda bu holatlar aynan ko‘payadi, nafas olish va chiqarish tezlashadi, chuqurlashadi. Peshona, yuz, bo‘yin, quloq, ko‘krak, qo‘llar (kaftlar) va boshqa a‘zolda terlash sodir bo‘ladi. Bunday jarayonlar jigar, buyrak, taloq, oshqozon-ichak va boshqa ichki a‘zolarining ham faoliyatini tezlashtiradi. Oqibatda tanadagi ortiqcha suvlar va tuzlar chiqib ketadi, odam o‘zini yengil sezadi (albatta yuvinishdan keyin). Kuchli va davomli jismoniy mashqlarni ko‘p miqdorda bajarish natijasida mushaklarda toliqish paydo bo‘ladi. Ya‘ni mushak tolalari, to‘qima, xujayralar cho‘zilishi, ortiqcha tortilishi va harakatlar natijasida o‘z faoliyatlarini susaytiradi. Chunki qon aylanishi, modda almashishi, suvlarning chiqib ketishi, tuzlarning va boshqa mineral moddalarning kamayishi bunga sabab bo‘ladi. Bunday fiziologik jarayonlar inson tanasining faoliyatlarini ma‘lum darajada vaqtincha susaytirishi (charchatishi) mumkin, lekin oradan 5-10 daqiqa o‘tgach tanadagi barcha a‘zolda yengillik xislari sezila boshlaydi. Cho‘milish yoki yuvinish (dush qabul qilish) oqibatida har bir shug‘ullanuvchi o‘zini «qushdek yengil» sezadi, «parvoz qilish»ga (har qanday yumush va mexnatga tayyor) qodir bo‘ladi. Shu sababdan jismoniy mehnat va jismoniy mashqlar

bilan shug‘ullanuvchilar doimo gigiyenik (tozalik) qoidalariga jiddiy e‘tibor berishadi. Bunday insoniy fazilatlar va o‘ziga xos xususiyatlarni oilada farzandlarga o‘rgatib borish, chuqur singdirish, eng muhimi ularni jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi hamda gigiyenaga to‘la rioya qilishni odatlantirish lozim bo‘ladi. Bu uchun bizdan inson salomatligiga bola yoshidanoq e‘tibor qaratish kerakligini taqozo etadi. Faqatgina jismoniy tarbiya darslarida emas, hayotining har bir daqiqasida jismoniy sog‘lomlik jihatlariga amal qilishini ta‘minlashimiz zarur.

Xulosa qilganda, boshlang‘ich sinfdayoq barcha ixtisoslik bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilar eng avvalo inson tanasining tuzilishi (anatomiya) va ularning faoliyatlarini (fiziologiya) yaxshi bilishlari, shu asosda jismoniy va aqliy mehnat jarayonlarida o‘zlariga mos (professional) mashqlar, o‘yinlar, sport turlari bilan doimiy ravishda shug‘ullanishni o‘z oldilariga vazifa qilib qo‘yishlari lozim. Bu faol harakatlarni rivojlantirish va mehnat qobiliyatining doimiy ravishda talab darajasida bo‘lishning muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.; 2010-yil
2. Nishonaliyev U. Ta‘lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. – «Xalq ta‘limi», 1999-yil.
3. Shukurllayev J. M., Yuldashov Z. S., Erkinova G. X. Basketbolchilar jismoniy tayyorgaligini rivojlantirish bosqichlari //International journal of science and technology. – 2024. – C. 773-775.
4. Таирова Мапрат, Юлдашов Зафарджон Шухратович Современные образовательные технологии на уроках физической культуры в начальной школе // Ilmiy tadqiqot va jamiyat muammolari-2023. – 127-131.
5. . Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018. 2. Basketbol A.Nurimov. Darslik. Toshkent 2000 y.
6. .Shukurllayev J.M.“Maktab o„quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)” PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.
7. .Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T., 2005

KELAJAK AVLODNING TA‘LIM OLIISHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA USTOZNING ROLI

Navruzov Ulug‘bek Bababekovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
ulugbeknavrozov1@gmail.com tel:97-398-72-11

Annotatsiya. Maqolada umumta‘lim maktablarida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish, kasbga yo‘naltirishning nazariy asoslari va unga ijodiy yondashuv, kasb madaniyati borasidagi takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, o‘quv dasturlar, tizim, ko‘nikma, malaka, diagnostik suhbat, texnologik jarayon, ta‘lim.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Unda turli sohalaridagi islohotlar, iqtisodiy o‘rish, ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashtirilishi, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Shu maqsadda respublikamizda ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa ilg‘or texnologik o‘quv jarayonlariga asoslangan holda o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan iborat. Yangi usulni ta‘lim jarayoniga joriy etish o‘quv jarayonlarining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat ta‘lim jarayoni ishtirokchilarini bilimlari kengaytirishga, ijodkorlikka, tinimsiz izlanishga o‘z ustida ishlashga, har bir darsni haqiqatan ham bir san‘at asari sifatida taqdim etishga olib kelmoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi ta‘lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi, o‘z fanini o‘quvchi uchun hamisha sevimli bo‘lishi uchun nimalarga e‘tiborini qaratmog‘i kerak?

Ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar qo‘llanilayotgan davrda dars jarayoni ustoz va shogirdning hamkorlikdagi, o‘quvchi ham faol ishtirok etadigan jarayonga aylanmoqda. Bu kabi usullarni qo‘llab dars o‘tilganda o‘quvchilar ham mavzu bo‘yicha izlanadilar, turli manbalardan ma‘lumotlarni to‘plab, har xil ko‘rinishda taqdim etadilar. Ko‘pdan ko‘p narsa chiqadi deganlaridek, o‘quvchilar izlanib keltirgan ma‘lumotlar yanada yangi, xilma-xil va turli-tuman manbalardan olingan bo‘ladi.

Dars jarayoni o‘quvchining ongiga ozuqa beruvchi, fikrini, bilimini o‘stiruvchi, kamolotga yetkazuchi jarayondir. Bunda ham o‘quvchilar izlanib mustaqil egallagan bilimlarni betartib tarzda darsda faol ishtirok etayotgan o‘quvchilar o‘z vaqtida rag‘batlantirilishi, buning uchun ustozning oddiy: “Rahmat”, “Barakalla” emas, balki tartib -qoida bilan, o‘qituvchi loyihalashtirgan reja asosida ish ko‘rish kerak bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchi nafaqat chuqur bilimga ega, balki dars o‘tish usullarini ham puxta egallagan, pedagogik mahoratga, hayotiy boy tajribaga ega bo‘lmog‘i kerak. Interfaol usulda dars o‘tish faqat o‘quvchini gapirtirish, dars jarayoni tizginini o‘quvchi qo‘liga berib qo‘yish degani emas. O‘qituvchi bu jarayonda passiv tinglovchi emas, balki hamisha faol boshqaruvchi, tahlil qiluvchi muhokamalar jarayonini to‘g‘ri yo‘lga solib boruvchi, vaqtdan unumli foydalanuvchi, eng asosiysi esa mavzuning mohiyatini chuqur anglab yetishlari uchun baribir dars jarayonining asosiy figurasini bo‘lib qolmog‘i kerakdir.

Ko‘p yillik tajribalardan ma‘lumki, ba‘zi bir hollarda o‘quv dargohida qaysi fan o‘qituvchilari kuchli bo‘lsa, shu fanlar chuqur o‘zlashtiriladi va o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishi va kelajakda kasb tanlashlariga ham buning ta‘siri bo‘ladi. Buning sababi bunday fidoyi o‘qituvchilar, avvalo o‘z kasbini, fanini, qolaversa, o‘quvchilarini sevadi va mehr ko‘rsatadi. Mehr bilan qilingan har bir ish o‘zining ijobiy samarasini beradi[3].

Xulosa.

O‘qituvchi fidoyi o‘qituvchi mavqeyiga ega bo‘lishi uchun kasbining mohir ustasi bo‘lishi kerak. Buning uchun esa fani bo‘yicha DTS va ular asosida tuzilgan o‘quv dasturlarini mukammal bilishi;

-o‘quv predmeti bo‘yicha o‘qitishning turli texnik –didaktik vositalari, mavjud darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini aniqlay olishi;

-fan bo‘yicha ko‘rgazma-tajriba va laboratoriya ishlarini zamonaviy jihoz va vositalar yordamida o‘tkazish malakasiga ega bo‘lishi;

-yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning interfaol usullaridan xabardor bo‘lishi va ulardan amalda foydalanishni bilishi;

-o‘quvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashlarini tashkiliy va uslubiy ta‘munlashni bilishi;

-iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashtirilgan ta‘lim berish shakllari hamda usullarini bilishi;

-ilg‘or ish tajribalarini o‘rganishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo‘lishi;

-mustaqil ravishda o‘z bilim va malakasini oshirishning yo‘l va usullarini bilishi va egallashi kerak;

Bulimli, iste‘dodli, ilm olishga chanqoq o‘quvchilar bo‘lishi uchun fidoyi o‘qituvchilarning mehnatini qadrlash va yangi-yangi imkoniyatlarni yaratib berish va albatta adolat tamoyillariga rioya qilish kerak. Bunga respublikamizda keng e‘tibor berilmoqda xilma-xil tanlovlar rag‘batlantiruvchi fondlar mavjud. [4]

O‘quv materiallarining ta‘lim oluvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilishi, ularga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishi, kamolotiga hissa qo‘shishi o‘qituvchining salohiyatiga yoki o‘qitish metodiga, o‘quv mashg‘ulotlarining shakliga ham bog‘liqdir. Ta‘lim jarayonining qiziqarli bo‘lishi uchun o‘quv materiallarining mazmuni, o‘qitish metodi va o‘qitish shakli o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka erishmoq zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: —Fan va texnologiya 2014.- 147 b.

2. **Tursunov I. G., Narimbetova Z.A. O‘QUVCHILARNING GEOMETRIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH (10-11 SINFLAR MISOLIDA) (Monografiya)** Toshkent «ZEBO PRINT» 2023

3. Narimbetova Z.A./Matematika fanida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omili/Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp

НАЦИОНАЛЬНЫЕ РЕЛИГИИ ИНДИИ: ВЕДЫ, УПАНИШАДЫ, БРАХМАНИЗМ И ИНДУИЗМ

Научный руководитель: Туганова Луиза Джураевна
преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета
luizatuganova@mail.ru

Шамсиддинова Азизабону, студентка
2 курса факультета социальных наук Чирчикского государственного педагогического
университета.
azizabonushamsiddinova@gmail.com

Аннотация: В этой статье представлена информация о древних религиях Индии, Ведах, Упанишадах, брахманизме и индуизме. От тотемизма, древнейшей религии Индии, обожествления природы, начинается с поклонения духам предков. Мы видим, что поклонение природе ясно отражено в Ведах. Поскольку в Индии много религий, мы видим, что в них развилось многобожие. В то же время Упанишады в Индии проливают свет на существование и формирование брахманизма и индуизма.

Ключевые слова: Брахманизм, индуизм, ведизм, упанишады, агни, индра, индусы, мифы, тьма, свет, бог огня, богиня смерти, божественные силы, реки, богиня неба и аналогичные термины.

Annotation: This article provides information about the ancient religions of India, Vedas, Upanishads, Brahmanism, and Hinduism. From Totemism, the oldest religion of India, the deification of nature, begins with the worship of the spirits of the ancestors. We see that the worship of nature is clearly reflected in the Vedas. Since there are many religions in India, we see that polytheism has developed in them. At the same time, the Upanishads in India shed light on the existence and formation of Brahmanism and Hinduism.

Key words: Brahmanism, Hinduism, Vedism, Upanishads, Agni, Indra, Hindus, myth, darkness, light, swamp fire, goddess of death, divine powers, rivers, goddess of heaven similar terms.

Введение. От тотемизма, древнейшей религии Индии, обожествления природы, начинается с поклонения духам предков. Мы видим, что поклонение природе ясно отражено в Ведах. Потому что во времена составления Вед индийцы поклонялись солнцу (Сурье), обожествляли небо именем Варуны, поклонялись священному огню (Агни), богу грома (Индре). С развитием земледелия появилось и оформилось представление о производительных силах природы и богине плодородия вообще, эту богиню называли Адити и называли ее «матерью всего», «сущностью всего», «литературой». «, «созданный и создатель» имеют различные дополнительные имена. Именно поэтому богов называли «детьми или сыновьями Адити». Слово «адитья», происходящее от имени «Адити», стало означать «боги». [1]

Основная часть: Археологические материалы дают некоторые представления о религиозных воззрениях населения Хараппской цивилизации. И в цитадели, и в жилых кварталах городов были открыты строения, которые ученые справедливо рассматривают как храмовые сооружения. С этими храмами, очевидно, были связаны ритуальные бассейны, а также каменные скульптуры, найденные в Мохенджо-Даро и Хараппе. По мнению ряда исследователей, храмы и некоторые скульптуры были посвящены мужскому божеству,

которого ученые сопоставляют с ботом Шивой более позднего времени. На одной из найденных печатей изображено трехликое божество, сидящее в особой ионической позе на низкой подставке, к которой как бы примыкают фигурки антилоп. На голове божества своеобразная прическа в виде рогов. С обеих сторон от божества расположены какие-то дикие животные. В свое время Дж. Маршалл, руководивший раскопками, считал, что в целом это изображение бога Шивы в образе Пашупати — покровителя и защитника скота. Показательно, что в ранних индуистских текстах о Шиве говорится как о главе йогов, как о боге, носящем прическу в виде рога. Это толкование, поддерживаемое сейчас многими исследователями, указывает на связи индуизма с религиозными представлениями жителей Хараппской цивилизации. В пользу такого вывода говорят и изображения на печатях животных (например, быка, тигра и др.). Согласно религиозным представлениям индуизма, боги ассоциируются с определёнными животными: Шива — с быком Нандином, супругу его сопровождает тигр. Можно предполагать, что изображение различных животных являлось пережитком тотемистических представлений, а определенные животные могли быть тотемом племенных групп. Судя по печатям, в индских городах существовал обычай поклонения огню, воде, деревьям.

Ученые провели детальное изучение изображений на хараппских печатях, и это позволило выявить определенные космографические и мифологические представления хараппцев. Показательно, что многие из этих представлений имеют прямые аналогии с религиозными воззрениями индуизма.

Особый интерес представляют аналогии некоторым шумерским сюжетам, в частности эпизодам из известной легенды о Гильгамеше. Однако на хараппской печати горой обуздывает тигров, а не львов.

Многие соображения относительно религии жителей Хараппской цивилизации, развития их скульптуры в значительной степени являются гипотезами, (правильность которых будет проверена, когда ученые разгадают тайны протоиндийской письменности. Правда, в настоящее время можно довольно определенно говорить о том, что Хараппская цивилизация (её культура, религия, традиции) должна была оказать, хотя и в небольшой степени, влияние на развитие ведийских племен.[2]

Трансформация ведической религии. Боги Атхарва-веды. Оседание ариев в Индии, контакт их с местными племенами, взаимодействие культур - все это вело к постепенной трансформации древних обычаев и традиций, прежде всего - религиозно-культовых. Этот процесс отчетливо прослеживается на материалах наиболее поздней из четырех вед - Атхарваведы. Данные Атхарваведы свидетельствуют о смешении арийских и местных до-арийских представлений и верований, о слиянии всех их в единое целое. Естественно, что в ходе такого слияния были несколько смещены многие акценты, характерные для первоначальной ведической религии. Так, на передний план стала заметно выходить магия. Функции врача и колдуна, мастера магических обрядов были первостепенными для жрецов-атхарванов, посредничество которых избавляло человека от злых духов (асуров, ракшасов) и их вредоносных чар. Сила и значимость атхарванов были прямо пропорциональны их святости, а эта последняя находилась в строгой зависимости от тапаса, т. е. аскезы, строгого отшельничества и самоотречения, которым нередко предавались атхарваны. В древней Индии начал возникать культ тапаса, аскезы. Аскетам-тапасья приписывались чудодейственные силы

и власть над миром богов. Аскетизм стал считаться силой, способной двигать миром, обновлять миры и спасать их от уничтожения. При этом крайняя степень аскезы могла поколебать даже трон богов. Вышедшие на передний план магия и аскеза несколько видоизменили и саму основу ведической религии - практику жертвоприношений. Если прежде гимны и песни певцов-риши как бы подчеркивали взаимное доверие и понимание между людьми и богами, отвечавшими добром на приносимые им жертвы и мольбы, то теперь обряд жертвоприношения стал принимать более символический и магический характер. Ушли в прошлое обильные кровавые жертвы, что, видимо, было в немалой степени вызвано изменениями в образе жизни потомков ариев, из скотоводов превратившихся в земледельцев и имевших теперь меньшее количество скота. На смену им пришла условность, символика магических жестов и заклинаний. Обряд возлияния сомы также был заменен: в горстку вареного риса капали масло и топленое молоко; считалось, что эта еда, эквивалент древнего опьяняющего напитка, может потребляться лишь брахманами, знающими Атхарваведу.[3]

Упанишáды (санскр. उपनिषद्, буквально – сидение около, т. е. возле учителя с целью познания истины, отсюда позднее – сокровенное знание, тайное учение), древнеиндийские произведения религиозно-философского характера, примыкающие к Ведам как объяснение их тайного внутреннего смысла; главный источник религиозно-философской системы веданта. Корпус Упанишад составляют 108 текстов, древнейшие из них восходят, видимо, к добуддийской эпохе, позднейшие – к 14–15 вв.; появление текстов в жанре Упанишад продолжалось вплоть до 20 в. Наиболее ранний слой Упанишад образуют «Брихадараньяка» и «Чхандогья» (около 7–6 вв. до н. э.), затем следуют «Тайттирия», «Айтарея», «Каушитаки» и «Кена» – древнейшая из метрических Упанишад (около 6–5 вв. до н. э.). Несколько позднее были составлены «Катха», «Иша», «Шветашватара», «Мундака», «Маханарьяна», которым тоже придана метрическая форма. Следующую группу образуют «Прашна», «Майтри», «Мандукья». Упанишад, как правило, анонимны, однако изложенные в них учения приписываются конкретным авторам – мудрецам Яджнявалкье, Удалаке Аруни, Шветакету, Айтарее, Балаки и др. (среди них есть две женщины – Майтрейи и Гарги). Упанишад переведены с санскрита в 1657 г. (на персидский язык), с этого издания в начале 19 в. был сделан латинский перевод, положивший начало переводам Упанишад на европейские языки и научному исследованию текстов.[4]

Брахманизм, часто употребляемое в научной литературе название поздней ведической религии, когда последняя значительно изменилась вследствие развития классовых отношений (особенно рабства) и под влиянием религии автохтонного населения Древней Индии (1-е тыс. до н. э.). Название получил от сборника ритуальных текстов — Брахман. Для Б. характерны многобожие с включением в пантеон различных местных племенных божеств, сохранение анимистических и тотемистических воззрений, культ предков. Верховные боги Б.: Брахма — творец Вселенной и её олицетворение, благодетельный Вишну и грозный Шива, олицетворяющие производительные силы природы. В основе вероучения Б. лежало представление об одушевленности природы и о перевоплощении всех живых существ. Возрождение души в той или иной новой телесной оболочке происходит как воздаяние (карма) за добродетельность или греховность предшествующей жизни; в первом случае душа возрождается в теле человека более высокого общественного положения или даже небожителя, во втором — низкого обществ, положения или даже в животном или растении.

Критерием оценки поведения человека было выполнение или нарушение им дхармы — определённого образа жизни, установленного якобы Брахмой для каждой варны. Б. освящал обществ, неравенство, объявляя деление общества на варны установлением богов. В Б. решающее значение придавалось обрядам — сложному ритуалу жертвоприношений богам, поминальных приношений предкам и т.д. Точное исполнение ритуала чтения священных текстов на непонятном для народа языке (санскрите) требовало длительного обучения; это способствовало росту значения брахманства (духовного сословия). Весьма стойким было представление о ритуальной чистоте, нарушение которой требовало обязательных очистительных обрядов. Б. развивал представление о способности человека посредством аскетических подвигов добиться благоволения богов и приобретения сверхъестественных способностей. В борьбе с буддизмом и под его влиянием Б. в 1-м тысячелетии н. э. трансформировался в индуизм.[5]

Индуизм — собирательное имя большой группы религий, сложившихся на территории Индии и тесно связанных с её историей и культурой. Исповедуется основной массой населения Индии (в начале XXI века свыше 80 % населения), число последователей в мире превышает 1 миллиард человек. Также распространён в Непале, Шри-Ланке, Пакистане, Афганистане, Бангладеш, Малайзии, Мьянме, Индонезии, Сингапуре, Камбодже, Кении, ЮАР и ОАЭ, на острове Маврикий, островах Фиджи и в других регионах, в основном среди выходцев из Индии и Шри-Ланки[1]. Сами последователи индуизма называют свою религиозную традицию Санатана Дхарма (санскр. *sanātana dharma* — буквально «вечная истина», «вечный закон») Изучение индуизма в XIX—XX веках показало, что он не является единой религией: нет ни одного доктринального положения, культового действия или повседневных обрядов, которые понимались бы всеми индусами единообразно. Первоначальные формы верований (магия, фетишизм, анимизм, почитание животных и безличных сил, вера в демонов) соседствуют в нём с куклами личных божеств и Тримурти (образа, объединяющего Брахму, Вишну и Шиву), а также с верой в безличный Абсолют-Брахман, присутствующий в качестве чистого мирового сознания, или Мировой души — Атмана во всех индивидуальных душах[6].

Заключение о национальных религиях Индии

Национальные религии Индии, такие как веды, упанишады, брахманизм и индуизм, представляют собой сложную и многослойную систему верований и практик, которые формировались на протяжении тысячелетий. **Веды** являются священными текстами, которые содержат знания о ритуалах, философии и космологии. **Упанишады** развивают эти идеи, углубляясь в вопросы самопознания и природы реальности. **Брахманизм** можно рассматривать как предшественника индуизма, акцентируя внимание на жреческих ритуалах и социальной иерархии. **Индуизм**, как современная религия, вобрал в себя элементы всех этих традиций, создавая богатую и разнообразную духовную практику, которая охватывает множество верований, ритуалов и философских учений. Таким образом, национальные религии Индии не только формируют культурную идентичность страны, но и продолжают оказывать влияние на жизнь миллионов людей, способствуя духовному развитию и социальной сплоченности.

Список литературы:

1. Qadimgi Hindiston madaniyati (Diniy etiqodlar misolida) Qurbonov Erkin Po'latovich.

Samarqand--2011.

2. Кока Александровна Антонова Григорий Максимович Бонгард-Левин Григорий Григорьевич Котовский . "История Индии"

3. <http://religion.historic.ru/> 'История религии'

4. Большая Российские энциклопедия.

Опубликовано 23 мая 2022 г. в 13:12 (GMT+3).

Последнее обновление 23 мая 2022 г. в 13:12

5. Барт А., Религии Индии, [пер. с франц.], М., 1897;

6. Индузм. Большая Российская Энциклопедия. Дата обращения: 18 марта 2023.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA ASOSIY PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Ravshanova Feruzabonu Shavkatovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarni kasbga tayyorlashda kompetentlik va asosiy kompetensiyalar tushunchalariga ta’rif berilgan. Shu jumladan kompetentlikning shakllanishida o‘z hissasini qo‘shgan pedagog olimlar qarashlaridan kelib chiqqan holda bo‘ljak o‘qituvchilarni bilish faoliyatini shakllantirish g‘oyalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, axborot texnologiyalari, zamonaviy tizim, ta’lim, malaka, kompetentlik, bilim, kasbiy pozitsiya, opyimallik, samaradorlik

Hozirgi kunda zamonaviy o‘zbek jamiyatida milliy loyihalar doirasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish harakatlari jadallashib bormoqda. Ta’lim tizimini o‘zgartirish mutaxassisning pedagogik vakolatiga juda yuqori talablarni qo‘yadi, axborot makonini qayta qurish, ta’lim resurslarini takomillashtirish sharoitida uning faoliyatini belgilaydi. Agar pedagogika tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XX asrning gumanist o‘qituvchisi A.S.Makarenko, O‘qituvchi ma’naviy boy, barkamol va baxtli shaxsni shakllantirishda ta’lim yetakchi o‘rinni egallaydi, deb hisoblardi. Zamonaviy ta’lim tizimida esa o‘qituvchining ajralmas sifati uning kasbiy kompetensiyasi bo‘lishi kerak. Ya’ni u “o‘z faoliyatining u yoki bu sohasidagi bilim va kompetensiyaga” ega bo‘lishi kerak. Psixologik lug‘atlarda bo‘lsa kasbiy pedagogik kompetentsiya “o‘qituvchining pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotini va o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni belgilaydigan, ma’lum qadriyatlar, ideallar tashuvchisi sifatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi” deb ta’riflanadi.

Vazifalar murakkablashgani sayin o‘qituvchining kasbiy malakasi yaxshilanadi.

D.M.Ivantsevich va A.A.Lobanovning so‘zlariga ko‘ra, bu "tajriba va mas’uliyat

to‘plash bilan birga iste’dodning o‘sishi"dir. “Kompetensiya” tushunchasi jamiyatda keng

qo‘llaniladigan atama, shu jumladan psixologik-pedagogik adabiyotlarda bir necha bor ko‘rib chiqiladi. Biroq, mualliflar bitta izoh bermaydilar. N.N.Lobanov kompetentsiyani belgilaydi: “shaxsning tizimli xususiyatlari sifatida” va qismlarni ajratib turadi: kasbiy-ta’lim, kasbiy-faoliyat va kasbiy-shaxsiy. A.K.Markova konsepsiyani belgilaydigan quyidagi tarkibiy qismlarni aniqlaydi: motivatsion - irodaviy, funksional, kommunikativ va reflektiv. A.G.Asmolov quyidagi formula shaklida taqdim etadi: “kompetensiya – faoliyat –kompetensiya”. Faoliyatda amalga oshiriladigan kompetensiya, uning tushunchasida, shaxs sifatiga, kompetensiyaga o‘tadi. Ta’limning zamonaviy tendentsiyalariga muvofiq, pedagogik kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

- mustaqil o‘rganish;
- malakangizni oshiring yoki butunlay qayta tayyorlang;
- vaziyatni va ularning imkoniyatlarini tezkor baholash;
- qarorlar qabul qilish va ular uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
- o‘zgaruvchan yashash va mehnat sharoitlariga moslashish;
- ishlashning yangi usullarini ishlab chiqing yoki ularni optimallashtirish uchun eskilarini o‘zgartiring.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, kompetensiyalarni shakllantirishning birinchi qadamlari bu “hayotiy ko‘nikmalar” (shaxsiy muammolar, stressni yengish; vaqtni boshqarish; ko‘rsatmalarni tushunish, qoidalarga rioya qilish; hujjatlarini rasmiylashtiris, hmatn va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish;

matnlarni yozish va gapirish; ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish; faol bo‘lish, nostandart yechim taklif qilish, o‘z nuqtai nazarini aql bilan himoya qila olish) va o‘z fanini o‘rgatishdir. Ta’lim jarayonining vazifalari shaxslararo darajada, yaqin muloqot jarayonida hal qilindi: o‘quvchi - o‘quvchi, o‘quvchi jamoa, o‘quvchi - o‘qituvchi. V.A.Suxomlinskiy ta’limning mohiyati muloqotda, dialogda, bola bilan muloqotda, deb hisoblagan:

- o‘qituvchi va o‘quvchi teng sharoitda bo‘lishi kerak, ustuvorliklar yo‘q, muloqot teng asosda;
- o‘quvch bilan muloqot uning asosiy ruhiy o‘zagi, ongli ruhiy afzalliklarini bilishga asoslangan bo‘lishi kerak;
- muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchning shaxsiy fazilatlarini o‘rganishi va mustahkamlashi, keyin esa o‘zini o‘zi baholashga o‘rgatishi kerak;
- o‘quvch va o‘qituvchi o‘z his-tuyg‘ularida doimo samimiy bo‘lishi kerak.

Bu kompetensiyalarni shakllantirish nazariy darajada amalga oshiriladi, lekin ularning aksariyati amaliyotda shakllanadi.

Maktab uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish muammosi O‘zbekiston jamiyatidagi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim fan bilan uzviy bog‘liq holda iqtisodiy o‘sish, milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning tobora kuchli harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Keling, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasining bir nechta ta’riflarini ko‘rib chiqaylik (bir nechta ta’riflar ko‘rgazmali taxtada joylashtirilgan, o‘qituvchi ularni hech qanday baho bermasdan o‘qiydi):

1. Kompetensiya - bilim, qobiliyat, ko‘nikma, shuningdek, ularni faoliyatda, muloqotda, shaxsning rivojlanishida (o‘zini-o‘zi rivojlantirishda) amalga oshirish

usullari va usullari. (Mitina L.M.)

2. Pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot yetarli darajada yuqori saviyada amalga oshiriladigan, o‘qituvchi shaxsi ro‘yobga chiqadigan, maktab o‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berishda yaxshi natijalarga erishiladigan o‘qituvchining ishi malakali hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining malakasi, bir tomondan, uning kasbiy bilim va ko‘nikmalari, ikkinchi tomondan, kasbiy pozitsiyalari, psixologik fazilatlari nisbati bilan ham belgilanadi. (Markova A.K.)

3. Kompetentlik - bu xodimning normal va ekstremal sharoitlarda o‘z vazifalarini sifatli va aniq bajarishi, yangi narsalarni muvaffaqiyatli o‘rganishi va o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish qobiliyatidir. (Vesnin V.R.)

4. Kompetensiya - ta’lim jarayonini qurishda o‘zgaruvchanlik, optimallik va samaradorlikni ta’minlaydigan, shaxsning bilim, ko‘nikma, xususiyat va fazilatlar majmuasini o‘z ichiga olgan murakkab shakllanishdir. (Adolf V.A.)

Fan mutaxassisligi bo‘yicha fan kompetensiyasi:

- o‘qitiladigan fan sohasidagi bilimlar, uni o‘qitish metodikasi.
- boshqaruv kompetensiyasi, ya’ni pedagogik tahlil o‘tkazish, maqsadlarni belgilash, faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
- reflektiv kompetensiya, ya’ni o‘z pedagogik faoliyatining jarayoni va natijasini ko‘rish qobiliyati.
- IR texnologiyalari sohasida ishlash qobiliyati bilan bog‘liq axborotkommunikatsiya kompetensiyasi.
- o‘qituvchini eksperimentator sifatida tavsiflovchi innovatsiyalar sohasidagi kompetensiya.
- ijodiy kompetensiya, ya’ni o‘qituvchining faoliyatni ijodiy, tadqiqotchilik darajasiga olib chiqish qobiliyati.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kasbiy mahoratini va uning kasbiy mahorat darajasini baholashning eng dolzarb muammosini hal qilish uchun ma’lum darajada qo‘llaniladigan turli diagnostika usullari mavjud. Bir tomondan, o‘qituvchilarni “bilim-mahorat-mahorat” formulasiga undab bo‘lmaydi, o‘qituvchi qalbining barcha olijanobligini, uning ijodining betakror lahzalarini takroriy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘lchay oladigan vosita yo‘q. Hech narsa o‘qituvchining mehnati va idroki bilan o‘lchanmaydi, ular yo‘qdan va yo‘qdan paydo bo‘lmaydi, balki o‘qituvchining barcha oldingi tajribasi, o‘zi bilan cheksiz muloqotlari bilan tayyorlanadi. Zamonaviy talablardan kelib chiqib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘llarini aniqlash mumkin:

- uslubiy birlashmalarda, ijodiy guruhlarda ishlash;
- tadqiqot faoliyati;
- innovatsion faoliyat, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- pedagogik yordamning turli shakllari;
- pedagogik tanlov va festivallarda faol ishtirok etish;
- o‘z pedagogik tajribasini tarjima qilish;
- AKTdan foydalanish va boshqalar.

Ammo sanab o‘tilgan usullarning hech biri samarali bo‘lmaydi, agar o‘qituvchining o‘zi o‘z kasbiy mahoratini oshirish zarurligini anglamasa. Pedagogik o‘sish uchun motivatsiya va qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurati shundan kelib chiqadi. O‘qituvchi o‘z kasbiy fazilatlari darajasini

o‘shirish zarurligini mustaqil ravishda anglab etadigan sharoitlarni yaratish kerak. O‘z pedagogik tajribasini tahlil qilish o‘qituvchining kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida tadqiqot qobiliyatlari shakllanadi, keyinchalik ular pedagogik faoliyat bilan birlashtiriladi. O‘qituvchi maktab taraqqiyotini boshqarish jarayonida ishtirok etishi kerak, bu uning kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish - bu doimiy rivojlanish va o‘z-o‘zini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan individual kasbiy fazilatlarni rivojlantirishga, kasbiy tajribani to‘plashga olib keladigan kasbiy tajribani o‘zlashtirish va modernizatsiya qilishning dinamik jarayoni.

Kasbiy kompetentsiyani shakllantirish bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- introspeksiya va ehtiyojni anglash;
- o‘z-o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish (maqsadlar, vazifalar, yechimlar);
- o‘zini namoyon qilish, tahlil qilish, o‘z-o‘zini tuzatish.

Albatta, ilmiy arboblarning pozitsiyasi o‘qituvchining kompetensiyasi masalasi

ilmiy hamjamiyatning diqqat markazida ekanligini aniq ko‘rsatib turibdi. Shaxsning kasbiy vakolatlari ehtiyojlarni qondirish, yuqori natijalarga erishish, moddiy yoki ma‘naviy shaklda yaxshilikka erishishga qaratilgan o‘z mahoratining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini aniq biladigan shaxsning hayotiy strategiyasi sifatida muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shubhasiz, pedagogik kompetentsiyaning tabiatiga taqdim etilgan nuqtai nazar, o‘zini, atrofdagi dunyoni uyg‘un qiyofasini aks ettirishga faol ta’sir ko‘rsatadigan aqliy operatsiyalarning maxsus usuli bo‘lib, shu bilan amaliy ko‘nikmalar va dunyoqarash g‘oyalarini ta’lim makonining o‘ziga xos xususiyatlarida tubdan o‘zgartirishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Академия, 2005. 352 с.
2. Митина Л. М. Учитель как личность и профессионал. М.: Изд-во: «Дело», 1994. 216 с.
3. Teaching creative thinking to secondary school students through independent education is a pressing issue S Mirkhayitova, G Shodiyeva, M Irmatova
4. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (8), 26-31
Aminov B., Mirkhayitova S. Interactive Education Is a Guarantee of Quality//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2021. – T. 2. – C. 20-23.

MAKTAB O‘QITUVCHILARIDA MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI BO‘YICHA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Ergashev Shirinbobo Xotam o‘g‘li

ChDPU Pedagogika fakulteti “Pedagogika” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada muammoli o‘qitish texnologiyasi haqida tushuncha, uning mohiyati, maqsadi, vazifalari va maktab o‘qituvchilari uchun ushbu texnologiyani o‘zlashtirishning dolzarbligi yoritiladi. Muammoli o‘qitish usulini samarali joriy qilishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: muammoli o‘qitish, pedagogik texnologiya, innovatsion metodlar, maktab o‘qituvchilari, ta’lim sifati.

Abstract: This article discusses the concept of problem-based learning technology, its essence, purpose, tasks, and the relevance of mastering this technology for school teachers. Recommendations are given on the formation of teachers' professional competence in the effective implementation of the problem-based learning method.

Keywords: problem-based learning, pedagogical technology, innovative methods, school teachers, quality of education.

Аннотация: В данной статье раскрыто понятие технологии проблемного обучения, ее сущность, цель, задачи, а также актуальность освоения этой технологии для школьных учителей. Даны рекомендации по формированию профессиональной компетентности учителей при эффективной реализации проблемного метода обучения.

Ключевые слова: проблемное обучение, педагогические технологии, инновационные методы, школьные учителя, качество образования.

Hozirgi zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish va ularni turli muammoli vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘qituvchilardan o‘z pedagogik faoliyatida ilg‘or o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Muammoli o‘qitish texnologiyasi ushbu maqsadlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi haqida umumiy tushuncha

Muammoli o‘qitish texnologiyasi – bu o‘quvchilarning bilim olish jarayonida mustaqil ravishda muammolarni ko‘ra olish, ularni hal qilish yo‘llarini izlash va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Ushbu texnologiyaning asosiy vazifasi – o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki fikrlash, tahlil qilish va o‘z qarashlarini shakllantirishga o‘rgatishdir.

Muammoli o‘qitishning asosiy tamoyillari:

1. O‘quvchilarni qiziqtiradigan muammoli vaziyatlarni yaratish.
2. O‘quvchilarda izlanish faoliyatini shakllantirish.

3. Bilimlarni mustaqil ravishda egallash uchun sharoit yaratish.

Maktab o‘qituvchilarida muammoli o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha tushunchalarni shakllantirish bosqichlari

1. Nazariy asoslarni tushuntirish

O‘qituvchilarga muammoli o‘qitishning asosiy tamoyillari va nazariy mohiyati haqida seminarlar, treninglar va darslarni tashkil etish:

- Muammoli vaziyat va savolning ahamiyatini tushuntirish.
- O‘quvchilarning qiziqish va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini o‘rganish.

2. Amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatish

O‘qituvchilarni muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechishda foydalaniladigan amaliy ko‘nikmalar bilan tanishtirish:

- Muammoli dars ssenariylarini tayyorlash.
- Guruhli ish va munozara orqali muammoli vazifalarni hal qilish.

3. Innovatsion vositalardan foydalanishni o‘rgatish

• Muammoli o‘qitishni qo‘llashda zamonaviy texnologiyalar (masalan, interaktiv doskalar, ta’lim platformalari)dan foydalanish bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazish.

- Elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanishni targ‘ib qilish.

4. O‘qituvchilarning reflektiv faoliyatini tashkil qilish

O‘qituvchilarning muammoli o‘qitish jarayonida erishgan natijalarini tahlil qilish:

• Kuzatuv va tahlil orqali o‘qituvchining darsda muammoli yondashuvni qo‘llash bo‘yicha kamchiliklarini aniqlash.

- Xatolar ustida ishlash va usullarni takomillashtirish.

Muammoli o‘qitish texnologiyasining ahamiyati

Muammoli o‘qitish texnologiyasi nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijodiy yondashuvini rivojlantiradi, balki:

- Ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.
- Mantiqiy tahlil va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

O‘qituvchilar uchun esa bu texnologiyani o‘zlashtirish:

- Dars sifatini oshirish.
- Pedagogik yondashuvning samaradorligini ta’minlash.
- O‘quvchilarning faolligini kuchaytirish imkonini beradi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi maktab ta’limi tizimida ta’limning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi. Uni o‘qituvchilar faoliyatida joriy etish uchun:

1. O‘qituvchilarga muntazam ravishda seminar va treninglar tashkil qilish.

2. Amaliy mashg‘ulotlar orqali uslubiy yordam berish.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

O‘qituvchilarni ushbu texnologiyani qo‘llashga tayyorlash orqali nafaqat ularning kasbiy mahorati oshiriladi, balki o‘quvchilarning ham mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuriy Voglodin “Vatandoshki dasturi” 2023 yil.

2. A.Abduaxadov. Pedagogik mahorat asoslari. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2009 yil
3. Kurbanova, M., Ibragimova, Z., & Nuriddinova, S. (2022). Lexico-Semantical Propertiyes of Omonym and Alliance Words Used in Epics of Independence Periods. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciencies and Humanitiyes, 3, 93-96.
4. Nuritdinova, S., & Kochkarova, Y. (2022). Difficultiyes In Teaching Foreign Languages. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 4, 127-128.

KONSITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Norqulova Dilnoza Shavkat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

San’atshunoslik fakulteti Musiqa ta’limi

I-kurs, 24/1- guruh talabasi

norqulovadilnoza31@gmail.com

Tel: 90 061 83 15

Annotatsiya: Bugungi kunda Konstitutsiya har birimizning erkinligimiz, tinch va farovon hayot kechirishimizni ta’minlayapti. Yangi O‘zbekistonning Yangi konstitutsiyasi har bir soxada erkinlikni qulay sharoitlarni, shu bilan birga Oliy ta’lim va boshqa soxalardagi huquqlarni ham kafolatlaydi.

Kalit so‘zlar. Konstitutsiya, moddalar, oliy ta’lim, O‘zbekiston Respublikasi, referendum, akademik erkinlik.

Аннотация: Сегодня Конституция обеспечивает свободу, мирную и благополучную жизнь каждого из нас. Новая Конституция Узбекистана гарантирует свободу и благоприятные условия во всех сферах, а также права в сфере высшего образования.

Ключевые слова: Конституция, статьи, высшее образование, Республика Узбекистан, референдум, академическая свобода.

Abstract: Today, the Constitution ensures freedom, peaceful and prosperous life of each of us. The new constitution of Uzbekistan guarantees freedom and favorable conditions in every field, as well as rights in the field of higher education.

Key words: Constitution, articles, higher education, Republic of Uzbekistan, referendum, academic freedom.

Kirish. Xabaringiz bor, 2023 yilning 30 aprel kuni mamlakatimizda o‘tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan edi. Tom ma’nodagi olamshumul bu voqea tarix sahifalariga zarhal harflar bilan muhrlandi. Unda Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek xalqimizning barcha orzu-umidlari, intilishlari o‘z aksini topgan bo‘lib, Yangilangan Konstitutsiyada [3] moddalar soni avvalgi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshgan.

Asosiy qism. Konstitutsiya lotincha “constitutio” so‘zidan olingan bo‘lib, “belgilash”, “o‘rnatish” degan ma’nolarni anglatadi. Yuridik xususiyatlarga ega bo‘lgan siyosiy-huquqiy bu hujjatda shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy printsiplari, davlat hokimiyatining tuzilishi, sub’ektlari, jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo‘riqlanadigan huquqlari hamda erkinliklari mustahkamlanadi.

Erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblangan,

oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan Konstitutsiyamizning ustunligi shundaki, Respublikamizda qabul qilinadigan barcha qonun va qonunosti hujjatlari unga zid kelmasligi kerak.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – xalqimizning yakdilligi va hamjihatligi tufayli yaratilgan siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib, uning asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Yaqin yillar ichida erishgan yutuqlarimiz, xususan, iqtisodiyot, inson huquqlari, odil sudlov, so‘z erkinligi, ijtimoiy himoya sohalaridagi yuzlab cheklovlarning olib tashlangani beqiyos katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Asosiy Qomusimizning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri – boshqa sohalar qatori oliy ta‘lim masalalariga alohida e‘tibor qaratgani yangicha yondoshuv sifatida o‘z in‘ikosini topdi. Men talaba bo‘lganim tufayli ta‘lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizda oliy ta‘lim olmoqchi bo‘lgan har qanday fuqaro uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib bergani xususida, ta‘lim va ilm-fanga oid oshirilgan normalar va moddalar haqida aytib o‘tmoqchiman. Yangi Konstitutsiyamizning 51-moddasida [3]“Fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ta‘lim olish huquqiga ega. Oliy ta‘lim tashkilotlari akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega” ekani belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi qoidalarni talqin etadigan bo‘lsak, baxtimiz Qomusi unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajagi uchun mustahkam zamin tayyorlash borasida beqiyos sharoitlar yaratib bergani anglashiladi.

“Tanlov asosida” deganda nimani tushunishimiz kerak? Yaxshi bilamizki, har qanday inson oliy ta‘lim olishni istashi mumkin. Lekin oliy ta‘lim muassasasida o‘qishi uchun ma‘lum bir miqdorda bilimga ega bo‘lishi kerak. Abituriyentni bilimi uni sinash, imtihon orqali tekshirish bilan aniqlanadi. Bu degani, oliy ta‘lim olmoqchi bo‘lgan yoshlarning bilim darajasi o‘qimoqchi bo‘lgan shu ta‘lim muassasasi talablariga javob berishi kerak. Shuning uchun sinovlarning test, imtihon, yozma ish yoki suhbat tarzida o‘tishi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Endi qaysi hollarda abituriyent davlat hisobidan o‘qishi mumkinligi xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, “byudjet talabalari” soni cheklanganligi sababli bunday imkoniyatga faqat sinovlar jarayonida eng maksimal ball to‘plaganlar ega bo‘ladilar. Shuningdek, davlat imtiyozlaridan foydalanib ta‘lim olgan talabalar keyinchalik o‘zlari tanlagan sohalarda ishlab, yaxshi mutaxassis bo‘lib davlatning ishonchini oqlashlari zarur.

Bundan tashqari, eng yuqori ball to‘plab, xorijiy oliy o‘quv yurtlariga kirgan iqtidorli talabalar ham davlat nafaqasi bo‘yicha o‘qishlari mumkin. Davlatimiz tomonidan rag‘batlantirilgan yoshlar vatanimizga qaytib, olgan bilim va ko‘nikmalarini mamlakatimizni rivojlantirishga va qudratini mustahkamlashga sarflashlari zarur.

Oliy ta‘lim olish istagida bo‘lgan har bir insonning barcha davlat va nodavlat muassasalarida har xil – kunduzgi, kechki, sirtqi ta‘lim olishi uchun sharoit yaratildi. Bu milliy ta‘lim tizimida erishgan ulkan yutuqlarimizdan biridir. Shuningdek, mehnat staji, ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlar o‘zlari ishlayotgan korxonaning, tashkilotning tavsiyasi bilan imtihonsiz, suhbat asosida oliy o‘quv yurtiga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bundan tashqari, davlatimiz ma‘lum bir sohalarda malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojga qarab oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun kvotalar bermoqda va pul imtiyozlari ajratmoqda.

Ta‘lim islohotlarining eng muhim qirralaridan biri yoshlarning bir vaqtda bir nechta oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirishi, ularga o‘zlari o‘qiydigan fanlarni tanlash imkonini berish oliy ta‘lim maskanlarining jozibadorligini oshirmoqda. O‘zbekistonni rivojlantirishning yangi strategiyasida

“El-yurt” umidi jamg‘armasi orqali nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborilayotgan yoshlar sonini yanada oshirish vazifasi belgilangani iqtidorli yoshlarning ilm-fanga, texnikaga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirmoqda. Shu bilan birga, ayrim yoshlarning inklyuziv ta’lim olishlari uchun alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sohasidagi ushbu islohotlar xalqaro maydondagi mamlakatimiz obro‘-e’tiborini yangi bosqichga olib chiqdi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Keyingi: “Oliy ta’lim muassasalari akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, ilmiy-tadqiqot va o‘qitish erkinligiga ega” degan bandini tahlil qilib chiqaylik. Bu bandda avvalo, O‘zbekistonning demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotganligi nazarda tutilgan. “Akademik erkinlik” deganda, oliy ta’lim muassasalarning o‘z faoliyatini zamon talablariga mos tamoyillar asosida shakllantirishi, amalga oshirishi tushuniladi. Unga ko‘ra, oliygohlarning, ilmiy tashkilotlarning o‘qituvchi va ilmiy xodimlari xohishlariga ko‘ra o‘quv mavzulari hamda kurslarini, o‘qitish metodikasi, ilmiy-tadqiqot va yo‘nalishlarini talabalarining, mutaxassislarining mayliga qarab tanlash va taqdim etish huquqiga ega bo‘ladilar. O‘quv rejasi va dasturlarining ishlab chiqilishi, xalqaro nufuzli oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarining o‘rnatilishi oliy ta’lim maskanlariga yangicha ruh bag‘ishlamoqda.

“Akademik erkinlik” deganda esa universitetning o‘z ichki o‘quv ishlarini mustaqil boshqarish qobiliyati, o‘qitish usul va uslublarini mustaqil ravishda shakllantirish va tashkillashtirish ishlari tushuniladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, akademik erkinlik ilm-fan rivojiga salmoqli ta’sir etib, yetuk mutaxassislarni tayyorlash sifatini ham oshirmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakat ilmiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday davlat ilm-fan rivojiga ko‘maklashibgina qolmay, jahon ilmiy hamjamiyati bilan ilmiy aloqalar o‘rnatilishida ham katta rol o‘ynaydi. Zero, dunyoda ilm-fan integratsiyalashgan holda rivojlanadi. Shuningdek, ushbu jarayonlarni huquqiy tartibga solish, sohani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish tegishli qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan ta’minlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiya yoshlarning ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Halqning boy madaniy merosidan faxrlanishlari, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan shakllanishlari uchun g‘amho‘rlik qiladi.

Bularning hammasi yosh avlod hayotini yanada yaxshilash, zamonaviy kasb-hunarlarini egallashi, jamiyatda munosib o‘rnini topish uchun qilinayotgan sa’y-harakatlardir.

Muxtasar qilib aytganda, salohiyatimiz nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy sohalarda, balki ta’lim sohasida ham yuksalib bormoqda.

Zero, inson kapitalining yaratilishida ta’lim tizimining o‘rni beqiyos.

O‘n birinchi asrda yozilgan “Qutadg‘u bilig” [1](“Saodatga boshlovchi bilim”) asarining muallifi Yusuf Xos Hojib bobomizning ta’biri bilan aytganda, “Hamma ezguliklar bilim tufaylidir. Bilim tufayli go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi”. Sal kam ming yillar avval ilm-fang keng yo‘l berilishi kerakligi haqida bitilgan bu purma‘no so‘zlar hanuzgacha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Shunday ekan, Asosiy Qonunimizda ta’limga bo‘lgan alohida e’tibor, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar kelajakda albatta, o‘z mevasini beradi. O‘zbekistonning ilm-fan sohasida muvaffaqiyat cho‘qqilarini egallashiga hissa qo‘shadi. Fan va ta’limni tizimli munosabatlar asosida va o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirish kafolatlarini nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonning barqaror

rivojlanishiga erishish uchun amalga oshirish mumkin bo‘lgan ulkan rejalari kontekstida juda muhim omil sanaladi.

Xulosa. Men Konstitutsiyada ko‘zda tutilgan oliy ta‘lim olish huquqlaridan to‘liq foydalanayotgan tengdoshlarimni, xususan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarini Yangi O‘zbekistonni yaratishda, Uchinchi Renesseans poydevorini qurishda Prezidentimizga kamarbasta bo‘lishlarini, Vatanimizga sidqidildan xizmat qilishni diliga tuggan yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlarini istayman. Shuning uchun ularni chuqur bilim olishga chaqiraman. Zero, bunday imkoniyat hamma davlatlarda ham berilgan emas. Buni qadriga yetaylik, azizlar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.To‘xliyev Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”asari Toshkent. “O‘zbekiston”, 1991.
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/873/0241-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
4. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining ramiy veb-sayti.www.president.uz
5. SH.M.Mirziyoyev. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2016. - 56 b./ 2017.-48b. e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

BO‘LAJAK GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Alimkulov jamshid Baxtiyorovich

Tabiiy fanlar fakulteti geografiya kafedrası

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining 5110500-“Geografiya o‘qitish metodikasi” ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalashning umumiy shaklini taqdim etadi. Maqolada pedagogik loyihalashning umumiy algoritmi, jumladan tayyorgarlik ishlari, loyihani ishlab chiqish bosqichlari, o‘qitish texnologiyasining strukturalari, hamda loyihalashning nazariy, metodik, moddiy-texnik ta‘minoti va huquqiy asoslari muhokama qilinadi. Loyihalash jarayonida pedagogik obyektning tahlili, tizim komponentlari o‘rtasidagi aloqalar, hujjatlarni yaratish va o‘qitish bosqichlarining detallari keltirilgan bo‘lib, bu orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy va nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan yondashuvlar tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik loyihalash, Geografiya o‘qitish metodikasi, Kompetensiyalarni rivojlantirish, Oliy ta‘lim, O‘qitish texnologiyasi, Amaliy mashg‘ulotlar, Pedagogik tizimlar.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining 5110500-“Geografiya o‘qitish metodikasi” ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasini loyihalashning umumiy shaklini keltirib o‘tamiz. Pedagogik loyihalashning umumiy algoritmini quyidagicha ifodalash mumkin. 1 Tayyorgarlik ishlari. Loyiha obyektini tahlil qilish. Pedagogik loyihalash obyekti tahlili. Eng avvalo, pedagogik loyihalash obyektini, obyekt tuzilmasi va uning elementlarini, ularning

holatini, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash tavsiya etiladi. Tahlil jarayonida uning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashning, uning ijtimoiy va davlat hamda shaxsiy talablar nuqtai nazaridan obyektning kamchiliklarini, shuningdek obyekt komponentlari o‘rtasidagi, unga bo‘lgan talablar va uning holati o‘rtasidagi ziddiyatlarni aniqlash lozim bo‘ladi. Pedagogik loyihalash shaklini tanlash. Loyihalash shaklini tanlash pedagogik loyihalash obyektini loyihalashning qaysi bosqichida ishlab chiqilishiga va loyihalash necha bosqichdan iborat ekaniga bog‘liq. Loyihalashning nazariy ta‘minoti. Pedagogik obyektning har qanday loyihasi mavjud loyihalar asosida ishlab chiqiladi, shu bois boshqa sharoitlardagi bunday obyektlar faoliyati tajribasi haqidagi ma‘lumotlar, pedagogik tadqiqotlar nazariy va empirik ma‘lumotlari va umuman, optimal pedagogik loyihani ishlab chiqishga imkon beruvchi boshqa har qanday ma‘lumotlar foydadan xoli bo‘lmaydi. Loyihalashning metodik ta‘minoti. Bu bosqich didaktik va metodik materiallarni yaratishni, pedagogik obyekt va pedagogik loyihani samarali joriy etishga yordam beradigan boshqa materiallar mazmunini tahlil etishni nazarda tutadi. Loyihalash muhiti va vaqti. Har qanday pedagogik loyiha muayyan muhit va vaqt doirasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Muhit ta‘minoti ishlab chiqilgan loyihani joriy etish uchun mos joy va xonani tanlashni nazarda tutadi. Vaqt ta‘minoti – bu loyiha amalga oshirish uchun uning hajmi, joriy etish sur‘ati bo‘yicha, maromi, izchilligi bo‘yicha vaqt ajratish, bu esa pedagogik va o‘quv faoliyatini oqilona amalga oshirishni nazarda tutadi. Loyihalashning moddiy-texnik ta‘minoti.

Bu bosqich loyihalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish va keyin ishlab chiqilgan pedagogik loyihani muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun tashkiliy va pedagogik texnikani ta‘minlashni nazarda tutadi. Loyihalashning huquqiy asoslari va ta‘minoti. Bu bosqich pedagogik tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlar doirasida amalga oshiriladigan talabalar va o‘qituvchilar faoliyatini ishlab chiqishtashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish yoki hisobga olishdan iborat. 2. Loyihani ishlab chiqish. Tizim hosil qiluvchi omilni tanlash. Har qanday tizimning belgisi tizim hosil qiluvchi omilning mavjudligi hisoblanadi, u orqali qolgan barcha komponentlar aniqlanadi. Bu omil boshqa barcha komponentlarni yaxlitlikda birlashtirish, ularni maqsadli tanlash va shakllantirish uchun asoslar yaratadi. Pedagogik tizim uchun, odatda, ayni pedagogik obyektning vazifasini va talabalar shaxsida shakllantiriladigan sifatlarini belgilab beruvchi maqsad komponenti tizim hosil qiluvchi hisoblanadi. Tizim hosil qiluvchi komponentning funksiyasini boshqa komponentlar ham bajarishi mumkin, biroq ular maqsad bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Komponentlarning o‘zaro aloqasi va bog‘liqligini aniqlash. Tizim komponentlari o‘rtasida turli o‘zaro aloqalar va bog‘liqliklar mavjud, shu bois ayni tadbir pedagogik loyihalashda asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. Hujjatlarni tuzish. Pedagogik loyihalashning avval mavjud bo‘lgan shakllaridan foydalanish mumkin. Bunda avval yaratilgan loyihalash shakli va mazmuniga asoslanib pedagogik obyektlar loyihalanadi. Ammo zarur hollarda loyihaning mohiyatini yaxshi aks ettiruvchi yangi hujjatlar yaratilishi mumkin. O‘qitish texnologiyasi bir-biriga bog‘liq “Kirish”, “Asosiy” va “Yakuniy” bosqichlardan iborat pedagogik tizimdan iborat. I. Kirish bosqichi. Ushbu bosqich ham bir-biriga bog‘liq tashkiliy-boshlang‘ich, maqsad va vazifalarni belgilash, tayanch bilimlarni faollash–tirish– komponentlardan iborat. Tashkiliy-boshlang‘ich komponenti. Bunda o‘qituvchi talabalar bilan salomlashib, guruh davomatini aniqlaydi. O‘qituvchi talabalarning darsga tayyorgarligini tekshirib ko‘radi.

Xulosa

Maqolada taqdim etilgan pedagogik loyihalashning umumiy shakli va algoritmi bo‘ljak

geografiya o‘qituvchilarining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun asos yaratadi. Loyihaning har bir bosqichi puxta rejalashtirilgan va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu loyiha modeli boshqa ta‘lim yo‘nalishlarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, umumiy ta‘lim sifatini oshirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazirov, A. M. (2020). *Pedagogik loyihalash va uning o‘qitish jarayonidagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Universiteti Nashriyoti.
2. Karimova, S. K. (2019). *Geografiya o‘qitish metodikasi: Nazariy va amaliy masalalar*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
3. Ismoilov, R. T. (2021). *Oliy ta‘limda kompetensiyalarni rivojlantirish usullari*. Toshkent: Ta‘lim va Madaniyat Nashriyoti.
4. Rahimov, L. F. (2018). *Pedagogik tizimlar va ularning loyihalash metodikasi*. Buxoro: Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Nashriyoti.
5. Yusupov, M. A. (2022). *Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyalari*. Tashkent: Innovatsion Ta‘lim Nashriyoti.

ONLAYN VA GIBRID TA‘LIMNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Raxmonov Azamat Ruzvonovich

ChDPU “Umumiy pedagogika”

kafedra pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Tel: +998(94)5145579,

a.raxmonov@cspi.uz

Xamidov Saidolim Saydiraxmon og‘li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +998950661878

s.xamidov@cspi.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada gibridd ta‘lim haqida fikr yuritildi. Onlayn va gibridd ta‘limning bugungi kundagi ahamiyati ilmiy-nazariy jixatdan asoslandi.

Kalit so‘zlar: onlayn ta‘lim, gibridd ta‘lim, interaktiv, virtual platformalar, onlayn resurslar, virtual haqiqat, sun‘iy intellekt.

Аннотация: в этой статье рассматривалось гибридное обучение. Важность онлайн и гибридного обучения сегодня была научно-теоретически обоснована.

Ключевые слова: онлайн - обучение, гибридное обучение, интерактивность, виртуальные платформы, онлайн - ресурсы, виртуальная реальность, искусственный интеллект.

Annotation: this article reflected on hybrid education. The importance of online and hybrid

education today was based on the scientific and theoretical nature.

Keywords: online education, hybrid education, interactive, virtual platforms, online resources, virtual reality, artificial intelligence.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida onlayn va gibril ta’lim tobora ommalashib bormoqda. Ular ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va texnologiyaga mos qilishga yordam beradi. Quyida ushbu shakllarning mohiyati, afzalliklari, kamchiliklari va ta’sirchanligini ko‘rib chiqamiz.

Onlayn ta’lim – bu o‘qitish jarayoni internet orqali masofadan tashkil etiladigan shakldir. Talabalar va o‘qituvchilar virtual platformalar (masalan, Zoom, Google Meet, Moodle) orqali muloqot qilishadi.

Onlayn ta’limning asosiy xususiyatlari:

Darslar video va yozma materiallar shaklida taqdim etiladi. Mustaqil ishlashga yo‘naltirilgan. O‘quv jarayoni istalgan joyda va istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

Onlayn ta’limning afzalliklari:

Qulaylik: Talabalar geografik joylashuvdan qat’i nazar ta’lim olishadi.

Moslashuvchanlik: Ishlayotgan va o‘qiyotganlarga vaqtni boshqarish imkonini beradi.

Texnologik imkoniyatlar: Videolar, testlar, simulyatsiyalar orqali o‘quv jarayonini qiziqarli qilish.

Onlayn ta’limning kamchiliklari: texnologiyaga bog‘liqlik va internetga muhtojlik. Talabalar motivatsiyasining pasayishi va interaktivlikning yetishmasligi. Amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishdagi qiyinchiliklar.

Gibril ta’lim – bu onlayn va an’anaviy (oflayn) ta’limning kombinatsiyasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi ikkala shaklning afzalliklarini birlashtirishdir.

Gibril ta’limning xususiyatlari:

Darslarning bir qismi onlayn, qolgan qismi sinfxonalarda o‘tiladi.

Jamoaviy ishlash va mustaqil ta’limni uyg‘unlashtiradi.

Resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Gibril ta’limning afzalliklari:

Ta’limning moslashuvchanligi: O‘quvchilar o‘ziga qulay vaqt va joyni tanlashlari mumkin.

Ijtimoiylikni saqlash: Sinfxonalarda o‘quvchilar o‘rtasida jonli muloqot saqlanadi.

Yuqori samaradorlik: Onlayn resurslar va sinfxonadagi muhokamalar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Gibril ta’limni kamchiliklariga to‘xtalsak:

Tashkiliy masalalar (onlayn va oflayn jarayonlarni muvofiqlashtirish).

Har bir talabada texnologik vositalarning mavjudligini ta’minlash zarurati.

O‘qituvchilar uchun ikki xil formatga moslashishdagi qiyinchiliklar.

Gibril ta’limdning qo‘llanilishi:

1. Maktab va oliy ta’limda: Pandemiya sharoitida onlayn ta’lim asosiy shaklga aylandi, lekin hozirda gibril uslub yanada keng tarqalmoqda.

2. Kasbiy tayyorgarlikda: Masofaviy kurslar va seminarlar, laboratoriya ishlarining esa sinfxonada o‘tilishi.

3. Korxona va tashkilotlarda: Xodimlarning malakasini oshirish uchun kombinatsiyalangan usullar qo‘llaniladi.

Onlayn va gibril ta’limning kelajak istiqbollari:

Onlayn va gibril ta’lim texnologiyalarning rivojlanishi bilan yanada takomillashadi. Virtual

haqiqat (VR), sun’iy intellekt (AI) va moslashuvchan ta’lim platformalari orqali shaxsga yo’naltirilgan ta’lim tizimlari yaratish mumkin bo’ladi.

Onlayn va gibrid ta’lim – bu zamonaviy dunyoda ta’lim olishning muhim shakllaridan biri bo’lib, u insonlarning ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini beradi. Ushbu ta’lim shakllari nafaqat texnologiyalardan foydalangan holda o’qitish, balki ta’limning sifatini oshirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Diyorov B.A. "Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: Teoretik va amaliy asoslari." Toshkent, 2021.
2. Agaev T.Sh. "Onlayn ta’lim va uning pedagogik imkoniyatlari." O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy to’plami, 2022.
3. Gibrid ta’lim tizimlari: Nazariya va amaliyot. Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi nashriyoti, Toshkent, 2023.
4. Allen, I.E., & Seaman, J. "Learning on Demand: Online Education in the United States." Babson Survey Research Group, 2020.

PEDAGOGLARDA KREATIV QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI.

Raxmonov Azamat Ruzvonovich

ChDPU “Umumiy pedagogika”

kafedra pedagogika fanlari bo’yicha (PhD) falsafa doktori

Tel: +998(94)5145579,

a.raxmonov@cspi.uz

Toshturdiyeva Aziza Akbar qizi

Chirchiq davlat pedagogika

universiteti pedagogika fakulteti

2-kurs talabasi

a.toshturdiyeva@cspi.uz

Annotatsiya: maqolada pedagogning kreativ yondashuv asosida zamonaviy texnologiyadan keng foydalanishi haqida mulohazalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, ijodkorlik, noan’anaviylik, motivatsiya, texnologiya, tajriba almashish, trening, ilmiy izlanish, erkin fikrlash, malaka oshirish, hamkorlik.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi rivojlanish muhim bosqichlarni amalga oshirayotgani asosiy e’tiborimizda. Bu esa ta’lim sohasida faoliyatga kreativ yondashishni talab etmoqda. Pedagogik kreativlik - bu muammolarni hal qilishda qarorlar qabul qilish, yangiliklar yaratish qobiliyatiga mavjud resurslardan ijodiy foydalanishdir. Pedagogik kreativlikni shakllantirish usullari quyidagilar hisoblanadi:

1. Erkin va ijodiy muhit yaratish pedagog uchun yangi loyihalar o‘ylab topishga ularni sinab ko‘rishga va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

2. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hozirgi davr talabi, balki o‘qituvchilarda onlayn

darslar virtual olam bilan ham uygunlashgan holda o‘quvchi ruhiga ta’sir qiladi.

3.Noan’anaviy o‘qitish metodlar.Bu muammoli vaziyat va ularni hal qilishda har xil noan’anaviy metod va usullardan foydalanish imkonini beradi.

4.Malaka oshirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish.Bunda pedagog bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishi kerak va buni malaka oshirish kurslari treninglar va seminarlar orqali o‘quvchilarga va ommaga korasata olishi kerak.

5.Tajriba almashish va hamkorlik. Bunda har bir pedagog jamoaviy loyihalar orqali o‘z safdoshlari bilan muloqot almashishi kerak. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi,u shaxsga ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas,balki yangi goyalarga intilish,o‘zgartirish,kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik kreativlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar faqatgina ko‘ngilochar xarakterdagi topshiriq, mashq yoki vazifalardan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarda kreativlik qobiliyati va sifatleri mavjudligini aniqlashda P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar," testidan foydalanish samarali natijalarni berdi. Talabalar tomonidan bajarilgan testlar bo‘lajak pedagoglarning qay darajada kreativlik sifatlariga egaligi,tasavvurining qanchalik boyligini ifodalaydi.

Interfaol metodlar, mashg‘ulotlarda interfaol metod(strategiya,grafik organayzer)lar bilan ishlash talaba tomonidan o‘qiv axborotlarini tizimli,yaxlit holda o‘zladhtirish imkoniyatini yaratadi. Obyekt, jarayon hodisalarning umumiy mohiyatini aniqlash kabi ko‘nikma malakalarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas,balki ularni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. P.Torrens tashkil etgan shaxs kreativligini aniqlovchi sinov ishlab chiqqan. Ular quyidagilar:

1) savollar,moddiy yoki bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tibor bermaslik;

2) masala uchun harakat qilish,oldindan surilgan taxminlar asosida sud qarorini topishga intilish. Zamonaviy pedagogikada kreativ tafakkur amaliyotini bildiruvchi ma’lum tizim shakllantirilgan:

1.Analitik tahlil jarayoni -bu tayyorgarlik jarayoni bo‘lib ,u axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish,mavjud ahvol tahlili,axborotlarni umumlashtrish, ko‘rsatkichlarni taqqoslash jarayoni.

2.Konsentratsiya jarayoni-ma'lum bir muammo atrofida aqliy salohiyatining mujassamlashuvi, tahlili olib boriladi. Ong faolligining ba'zan ko'tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi natijada turli yangi nostandart goyalarning tugilish va shakllanish jarayoni. Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. E.P.Torrensning shaxs kreativ sifatlarini namoyon bo'lishini aniqlovchi testlarning turlari mavjud. Ular quyidagilar:

1.Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldorlikka b.) bu aniqlovchi testlar. 2.Shaxsning hayotiy tajribasi va shaxsiy sifatleri aniqlovchi testlar keativlikni rivojlanish bosqichi-muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi.

Pedagog kreativlik potensialining ustuvor tamoyillari;

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;

-yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;

-bir qolipda fikrlamaslik;

- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo‘lish.

Xorijiy mamlakatlarda talabalar o‘rtasida kreativ sifatni shakllantirishga katta e‘tibor berilmoqda. Kreativ shaxslar ikki toifaga bo‘linadi :

- 1.katta kreativlik;
- 2.kichik kreativlik;

Pedagogik kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim jarayonini kuzatish,bevosita pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida quyidagi metodlar talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagoglarda kasbiy faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

- 1.guruhlashtirish;
- 2.reja tuzish;
- 3.tayanch tushunchalarni aniqlash;
- 4.mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish;
- 5.turkumlashtirish;
- 6.sxemalashtirish;
- 7.mavjud tushunchalarni boyitish kabilar.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda bir qator interfaol metodlardan foydalanish bu borada samaradorlikka erishishda yordam beradi.Ushbu shartlar shuni ko‘rsatadiki,hamma narsa o‘quv jarayonini shunday tashkil etishga,uning yaxlitligiga yo‘naltirilishi kerak.Bu yerda barcha fanlar insonning ijodiy salohiyatini faollashtiradi, uning ma'naviy kuchlarini, ijodga chanqoqligini uyg‘otadi ,bu yerda har qanday fanni o‘qitish metodikasi tayyor bilim xulosalar va nuqtayi nazarlarining passiv idrokini istisno qiladi. Kreativ tafakkur maqsadga yo'naltirilgan ammo shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan va an'anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul ,yol ,vosita yondashuvlarning tanlanishi va ishlab chiqarilishini anglatadi. Kreativ fikrlar inson ongini yuqori chegarasidagi va urganmagan fikrlar noan'anaviy usullar mavjud holat negizida yangi qarashlar asosida yangicha faoliyatini tashkil etishga qaratilgan mustaqil mushohadalardir. Kasbiy faoliyatini samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi kreativ potensial darajasini baholash muhim ahamiyatga ega amerikalik olim Viksler kreativlik fikrining shunday turiki u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi deb deb tarif beradi. Maslou ham kreativlikni barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish atrof-muhitni tasvirda ko'pchilikday yo'qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Dj pol Gilfort o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi u intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi. Xulosa qilib aytganda, bolajak pedagoglarga kreativlik muvozanatdsizlik hissini yuzaga keltirishini anglatish bezotalik qo'rquv hissadan xalos bo'lishiga yordam berish kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa kuniikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish qutqarib qolish emas balki yo'l yoriq ko'rsatish; suhbatlar orqali rag'batlantirish konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini rivojlantira olishlari guruhda ishlay olishlari, hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor

bo‘ladigan muhit yaratish.

O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni talim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarurdir.

Xulosa pedagoglarda kreativlikni shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy va professional balki ta’lim sifatini oshirish uchun ham muhimdir. Kreativ pedagog o‘quvchilarni ijodiy fikrlash va amaliy ko‘kikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli ta’lim tizimida ijodkor pedagoglarni qo‘llab –quvvatlash va rag‘batlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha Harakatlar Strategiyasi togrisida”gi ПФ–4947-сон Farmoni // Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toplami, 2017 й., 6-son, 70-modda
2. Vigotskiy L.S. Tanlangan psixologik tadqiqotlar. M.1996-yil
3. A.R.Raxmonov “Ijtimoiy pedagogika,” Darslik. Olmaliq-prints nashryoti. 2023 yil. 113 bet.
3. Barisheva T A. Jigalov Yu.A Psixologo-pedagogik osnovy razvitiya kreativnosti SPb.SPGUTD 2006-y -S 16.

JAHON PEDAGOGIKASINI RIVOJLANISHIDA TARIXIY-ILMIY ASOSLAR

Raxmonov Azamat Ruzvonovich

ChDPU “Umumiy pedagogika”

kafedra pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Tel: +998(94)5145579,

a.raxmonov@cspi.uz

Xamidov Saidolim Saydiraxmon og‘li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +998950661878

s.xamidov@cspi.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada sizga jahonda pedagogika fanining rivojlanish bosqichlari, jahon davlatlarida ta’lim-tarbiya va maktab masalalari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Lakoniya, Attika, grammatist, kifarist, gimnasiy, cherkov, monastir maktablari, o‘rta asr universitetlari, ta’lim, tarbiya.

Аннотация: Данная статья предоставит вам информацию об этапах развития педагогики в мире, проблемах образования и школы в странах мира.

Ключевые слова: Лакония, Аттика, грамматист, цифарист, гимназия, церковь, монашеские школы, средневековые университеты, образование, воспитание.

Abstract: this article will provide you with information about the stages of development of pedagogy in the world, education and school issues in the countries of the world.

Key words: Laconia, attica, grammarian, cyfarist, gymnasium, church, monastic schools, medieval universities, education, upbringing.

Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, qadimiy Sharqda ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, uning

o'rniga yangi quldorlik tuzumining paydo bo'lishi moddiy va ma'naviy madaniyatga asos solinishiga zamin yaratdi. Ayniqsa qadimiy Yunoniston xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va butun jahon madaniyatiga, maorifiga ulkan hissa qo'shganlar. Masalan: Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan. Hindistonda hisoblashning o'nlik tizimi kashf etilgan. Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, minutlar va daqiqalarga bo'lish o'ylab topilgan. Eramiz boshlanishidan oldin Markaziy Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joylarda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo'li qurilgan. So'ngra Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon "Buyuk ipak yo'li" ochilgan. Natijada Markaziy Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib kelgan. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Bizga ma'lumki, quldorlik formatsiyasi davrida qadimiy Sharq mamlakatlari orasida, ayniqsa Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta paydo bo'lgan va rivojlangan. Yunoniston unchalik katta bo'lmagan quldorlik davlatlaridan iborat bo'lgan. Uning katta shaharlaridan biri Lakoniya va Attika bo'lib, bu shaharlar madaniyat markazi hisoblangan. Bu ikki shaharda tarbiyaning o'ziga xos tizimi vujudga keldiki, natijada bu tarbiya tizimi "Sparta" va "Afina" usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi. Lekin bu ikki shaharning iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti, madaniyat darajasi turlicha edi. Shuning uchun ular bir-biridan tubdan farq qilar edi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmronlik qilar edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda jamoaviy tarbiya tizimi quldorlarning bolalarini manfaatini ko'zlar edi. Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo'lib, asosiy maqsad bolalarni baquvvat, jismonan sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan, so'ng "Agella" deb atalgan maktabda o'qishgan. O'qish muddati 7-18 yoshgacha davom etgan. Tarbiyaviy ishlarga "pedanom" boshchilik qilgan. Tarbiya jarayonida o'smirlarga alohida e'tibor berishgan. Ularni jismonan sog'lom bo'lishi uchun sovuqqa, ochlikka, chanqoqlikka chidash, og'riqqa bardosh berishga o'rgatilib borilgan. Ta'lim jarayoning asosiy qismini harbiy gimnastik mashqlar: yugurish, sakrash, nayza otish, qo'l bilan jang qilish, musiqa darsi, qisqa so'zlashuv, madaniyat darsi, surdo darsi tashkil etilar edi. Qadimgi yunonistonda tarbiyaviy ishlarning o'ziga xosligi shundaki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki ma'naviy tomondan ham barkamol bo'lishi nazarda tutilgan. Spartada o'g'il bolalar bilan qiz bolalar birga qo'shib o'qitilgan.

Afinada tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, me'morchilik, haykaltaroshlik taraqqiy etgan. Tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya qo'shib olib borilgan. Bu tarbiyalar faqat feodallar uchun bo'lgan. Afinada grammatist, polestra, gimnasiy, efeb, demos kabi maktab turlari mavjud bo'lgan. Bu maktablar xususiy bo'lib, haq to'lanar edi. Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas edi. Bu maktablarda "ditaskol" deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib brogan. Keyinchalik "didasko" so'zidan "didaktika" ta'lim nazariyasi kelib chiqqan. O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab brogan. Bunday qullar "pedagog" deb atalgan. Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokritlar asos soldilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdilar. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishlariga undar edi. Suhbatning bu usuli "Suqrot

usuli" deb atalgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini, ya'ni "Evristik" suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirgan. U tarbiyada axloqiy, estetikva jismoniy tarbiya mezonlarini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli "mumtoz"largagina xos, "mumtoz" kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi. Uning shogirdi Platon esa arestokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat 3 xil ijtimoiy guruhlardan iborat bo'lishi, ya'ni bular: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar ularni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil etishtirib faylasuflar va jangchilarni boqadilar degan fikrni ilgari suradi. Platonning pedagogika tarixida tutgan o'rni shundaki, u dastlab maktabgacha tarbiya to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan va yoshlarga ta'lim berishning izchillik tizimini ishlab chiqqanligidir.

Yana bir yunon faylasuflaridan biri Arastudir. Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya aqidalarni ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga, katta hissa qo'shgan. Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir. U insonni yoshlik yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7-14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. U oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli harakatli mashqlar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb hisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lim berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi. Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi erkaklarning tarbiyasiga o'xshashi mumkin emas, chunki xotin-qizlarning tabiati erkaklarning tabiatidan farq qiladi deb hisoblaydi. Aratu bola tarbiyasida oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi. Axloqiy tarbiya berish asosan oila zimmasida ekanligini uqtiradi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida quldorlik jamiyatining o'rnini olgan feodalizm V asrda paydo bo'lib, to XVIII asrlargacha davom etdi. O'rta asr feodal jamiyatining hayotida din va unga xizmat qiluvchi ruhoniylar g'oyat katta rol o'ynardilar. O'sha davrlarda hamma ta'lim- tarbiya ishlari ruhoniylar qo'lida qurol bo'lib, batamom diniy ruh va xurofot bilan sug'orilar edi. Xristian dini ta'limotiga binoan, odam go'yo gunoh ishlarga banda bo'lib tug'iladi, uning gunoh ishlarga moyil bo'lgan tabiatini bosish uchun uni daxshat bilan qo'rqitish ruhida tarbiyalash kerak. O'rta asrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 2 guruhga bo'lingan va 7 fanni o'z ichiga olgan ta'lim dasturi vujudga keltirildi. 1 guruh 3 ta fandan iborat edi, shu sababli unga lotincha "trivium" nomi berildi. Bunga grammatika (lotin tili grammatikasi), ritorika va dialektika kirar edi. 2 guruh 4 fandan iborat bo'lgani uchun uni lotincha (kvadrivium) deyiladi. Unga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirar edi. Hammasi bo'lib bu 7 ta fanni «7 ta erkin san'at» deb atash rasm bo'lib qoldi. Hamma fanlarning toji deb teologiya (din aqidalari) hisoblanar edi. O'rta asrlarda beriladigan ta'lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilardi. Cherkov maktablarining asosiy turlari: prixod maktabi (ya'ni 1 cherkovga qarashli), monastir maktabi va bosh cherkov yoki yepiskop maktablaridan iborat edi. Xulosa qilib aytish mumkunki ta'lim va tarbiya tizimli tashkil etilsa samarali bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayoni oila ya'ni ota-ona bilan hamkorlikda amalga oshirilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogika tarixi. Maruza matni. Qo‘llanma II qism. (tuzuvchilar: Nishonova, B.Hasanova). – T.: TDPU, 2002.
2. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. T.: «O‘qituvchi», 1997.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. –T.: «O‘qituvchi», 1996.
4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Milliy kutubxona”, 2006

O‘QITUVCHINI PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Raxmonov Azamat Ruzvonovich

ChDPU “Umumiy pedagogika”

kafedra pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Tel: +998(94)5145579,

a.raxmonov@cspi.uz

Toshturdiyeva Aziza Akbar qizi

Chirchiq davlat pedagogika

universiteti pedagogika fakulteti

2-kurs talabasi

a.toshturdiyeva@cspi.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘qituvchining pedagogik faoliyati dars jarayonida o‘quvchilar bilan birgalikda kasbiy faoliyati pedagogik qobiliyatini o‘rganish yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: pedagogika, kasbiy faoliyat, pedagogik mahorat, ta’lim, tarbiyaviy ish.

Pedagogik faoliyat – ta’lim muassasalarida o‘quv rejasi yoki bir qator dasturlarda ko‘zda tutilgan natijalarga, shuningdek, ta’limning boshqa vazifalari va uning ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir.

Pedagogik faoliyat – bu, o‘qituvchining maxsus kasbiy tayyorgarligiga asoslangan va ushbu faoliyat jarayonida uning shaxsiy xulq-atvori normalari va qoidalariga mos keladigan odamlarni tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha faoliyat. Mazkur faoliyat orqali yosh avlodni iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va estetik maqsadlarga muvofiq mustaqil faoliyatga ongli ravishda tayyorlashga qaratilgan kattalarning ijtimoiy foydali faoliyatining alohida turi sifatida qarash mumkin. Pedagogik faoliyatni mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflab, uning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatishimiz mumkin.

Birinchidan, u o‘ziga xos tarixiy xususiyatga ega. Demak, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni va xarakteri tarixiy voqelikning o‘zgarishiga mos ravishda o‘zgaradi. Masalan, L.N.Tolstoy o‘z davri maktabini ta’limning dogmatik tabiati, byurokratizm, o‘quvchi shaxsiga e’tibor va qiziqishning kamligi bilan tanqid qilib, maktabda insonparvarlik munosabatlariga,

o‘quvchining talab va manfaatlarini hisobga olishga chaqirdi. Uning shaxsiyatining shunday rivojlanishi uchun o‘zida borayotgan insonni barkamol, yuksak axloqiy, ijodkor qiladi. “Tarbiyalash, tarbiyalash, rivojlantirish, bizda ongsiz ravishda bitta maqsad bo‘lishi kerak: haqiqat, go‘zallik va

ezgulik ma’nosida eng katta uyg’unlikka erishish”, deb yozgan edi L.N.Tolstoy (L.N. Tolstoy Kimdan va kimdan yozishni, dehqon bolalari bizdan yoki biz dehqon bolalaridan? // Ped. soch., M., 1989. - 278-bet). O‘z davri maktabining barcha kamchiliklarini hozirgi zamon psixologiyasi va falsafasida insonning mohiyati, uning hayotining mazmuni bilan bog‘liq rivojlanmagan muammoning mahsuli sifatida ko‘rib, L.N.Tolstoy dehqon bolalari uchun Yasnaya Polyana maktabini tashkil etishda ushbu muammoni o‘z tushunishini amalga oshirishga muvaffaqiyatli harakat qildi.

Ikkinchidan, pedagogik faoliyat kattalar ijtimoiy qimmatli faoliyatining alohida turidir. Bu ishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, har qanday jamiyat, davlatning ma’naviy, iqtisodiy qudrati uning a’zolarining madaniyatli shaxs sifatida o‘zini-o‘zi kamol toptirishi bilan bevosita bog‘liqdir. Insonning ma’naviy olami boyib boradi. Uning hayotiy faoliyatining turli sohalari takomillashib, o‘ziga, boshqa odamlarga, tabiatga axloqiy munosabat shakllanmoqda. Ma’naviy va moddiy qadriyatlar va shu tufayli jamiyat taraqqiyoti, uning ilg‘or rivojlanishi amalga oshiriladi. Har bir insoniyat jamiyati pedagogik faoliyatning ijobiy natijalaridan manfaatdor. Agar uning a’zolari tanazzulga uchrasa, hech bir jamiyat to‘liq rivojlana olmaydi. **Uchinchidan**, pedagogik faoliyatni kasbiy bilimlar asosida maxsus tayyorlangan va tayyorlangan mutaxassislar amalga oshiradilar. Bunday bilimlar insonni tarixan shakllangan va doimiy rivojlanib boruvchi hodisa sifatida bilishga yordam beradigan gumanitar, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa fanlar tizimidir. Ular bizga uning ijtimoiy hayotining turli shakllarini, tabiat bilan munosabatlarini tushunishga imkon beradi. Kasbiy bilimdan tashqari, kasbiy mahorat ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi bilimlarni amaliy qo‘llashda doimo takomillashmoqda. Aksincha, u ularni faoliyatdan tortib oladi. – “Bu yerga kel” deyishni o‘n besh-yigirma rangda aytishni o‘rganganimdagina haqiqiy usta bo‘ldim, – deb tan oldi A.S.Makarenko. **To‘rtinchidan**, pedagogik faoliyat ijodiydir. Bir hil sinfni yoki guruhni topish mumkin bo‘lmaganidek, uning yo‘nalishining barcha mumkin bo‘lgan variantlarini dasturlash va bashorat qilish mumkin emas. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari. Pedagogik faoliyatning asosiy turlariga an’anaviy ravishda o‘quv ishlari, o‘quv, ilmiy uslubiy madaniy, ma’rifiy va boshqaruv faoliyati kiradi. Pedagogik faoliyat – ta’lim muassasalarida o‘quv rejasi yoki bir qator dasturlarda ko‘zda tutilgan natijalarga, shuningdek, ta’limning boshqa vazifalari va uning ijtimoiy maqsadlariga erishish uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir. Pedagogik faoliyat – bu, o‘qituvchining maxsus kasbiy tayyorgarligiga asoslangan va ushbu faoliyat jarayonida uning shaxsiy xulq-atvori normalari va qoidalariga mos keladigan odamlarni tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha faoliyat. Mazkur faoliyat orqali yosh avlodni iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va estetik maqsadlarga muvofiq mustaqil faoliyatga ongli ravishda tayyorlashga qaratilgan kattalarning ijtimoiy foydali faoliyatining alohida turi sifatida qarash mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika. Darslik, L.P.Krivshenko tahriri. M., 2005. B. 418 Ch30.0 ... Pedagogik terminologik lug‘at
2. Rus pedagogika ensiklopediyasi. - M., 1993).
3. L.N. Tolstoy Kimdan va kimdan yozishni, dehqon bolalari bizdan yoki biz dehqon bolalaridan? // Ped. soch., M., 1989. - 278-bet).
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: O‘qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. - 193 b.

SHAXS KASBIY MOBILLIGI STRUKTURASINING NAZARIY ASOSLARI

Janbayeva Marjan Smatillayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: janbaeva.m@cspi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs kasbiy mobilligining strukturasi olimlar tomonidan tahlil qilinganligi, nazariy asoslari, o‘qituvchi kasbiy kompetentligining bloklari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy sifatleri va maqsadlar tizimi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy mobillik, intellektual kapital, determenizm tamoyili, struktura, empirik tahlil, kasbiy kompetentlik, refleksiya, moslashish, adaptatsiya.

Jamiyatning jadal rivojlanishi va yangi avlod standartlariga o‘tish sharoitida, shu jumladan maktab ta’limi darajasida pedagogik kadrlarning kasbiy mobilligini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Jamiyatning rivojlanishi bevosita har bir shaxsning madaniy va intellektual kapitaliga bog‘liq bo‘lib, bu yerda muhim vazifani odamlarning maxsus kasbiy kompetentligi amalga oshiradi [1]. Har bir shaxsning ta’lim yo‘nalishi boshlang‘ich qobiliyatlarning takomillashtirilishini ta’minlaydi. Kasbiy mobillik o‘rganishga nazariy yondashuvlarni ko‘rib chiqish ushbu hodisaning tuzilishini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi.

Determinizm tamoyiliga ko‘ra, tashqi sabablarning ichki sharoitlar orqali ta’siri va ichkinig tashqi orqali ta’siri sifatida talqin etiladi, kasbiy mobillikning tarkibiy qismlari ularning o‘zaro munosabatida ko‘rib chiqiladi. Bundan kelib chiqadiki, kasbiy mobillikning « ichki » komponentlari (asosiy, subyektiv) «tashqi» (xulq-atvor) va aksincha. Kasbiy mobillikning boshlanishi tashqi (obyektiv) hodisalar va sharoitlar (*masalan, ijtimoiy - iqtisodiy o‘zgarishlar, ilmiy - texnika taraqqiyoti, tasodifiy hayot hodisalari va boshqalar*), ichki (subyektiv) determinantlar (*masalan, kasbiy faoliyat motivlarining o‘zgarishi, shaxs ichidagi ziddiyat, o‘z- o‘zini takomillashtirish istagi va boshqalar*) ta’siri yoki natijasi bo‘lishi mumkin.

1-jadval

Shaxsning kasbiy mobilligi strukturasiining mohiyati

Shaxsning kasbiy mobilligi strukturasiining mohiyati		
Kasbiy mobillik komponenti	Komponentning psixologik mazmuni	Tadqiqotda foydalanilgan empirik ko‘rsatkichlar
Asosiy	Individual tipologik, psixofiziologik xususiyatlar, shaxsiy fazilatlar va xususiyatlar, intellektual xususiyatlar	reflekslilik, nazorat qilish joyi moslashish qobiliyati
Subyektiv	Kasbni, mutaxassislikni va hokazolarni o‘zgartirish zarurligini anglash, ushbu qarorni amalga oshirish usullarini tanlash. Ushbu element kasbiy mobillikka tayyorlikni belgilaydi	Bardosh berish strategiyalari, hayotiy qadriyatlar

Konnativ	Xulq - atvor reaksiyalari, o‘ziga xos tashqi harakatlar (ishlab chiqarish vazifalari, ish joyi, mutaxassislik, kasb, sanoatning tez o‘zgarishi)	Kasbning o‘zgarishi
----------	---	---------------------

Olimlardan E.F.Zeer, E.E.Simanyuk ta’kidlaganidek, mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik jarayonida kompetensiya va malakalar majmuasini egallashi mehnat bozorida raqobatbardoshlikka erishish, o‘z kasbini ravon bilishi va faoliyatning turdosh sohalariga yo‘naltirilganligi, sohada samarali ishlashga yordam beradi. Jahon standartlari darajasidagi mutaxassislik, uzluksiz kasbiy o‘zishga tayyorlikni shakllantirish, ijtimoiy va kasbiy mobillik shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan umumiy kompetensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash, o‘z - o‘zini rivojlantirish qobiliyati, mobillik, mehnat bozorida raqobatbardoshlik bo‘lajak mutaxassisning qo‘shimcha fazilatlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. N. Matushkin, T.Ulrichning ta’kidlashicha, bitiruvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar to‘plami dinamik o‘zgaruvchan mehnat bozorida yuqori mobillik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. D.Puzankov, V.Fedorov, V.D.Shadrikovlar [2] tomonidan ishlab chiqilgan texnika va texnologiya sohasi mutaxassisi modeliga ko‘ra, kompetensiyalarning ijtimoiy-shaxsiy, iqtisodiy va tashkiliy-boshqaruv, umumiy ilmiy, umumiy kasbiy, bitiruvchining kasbiy mobilligi uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Ushbu kompetensiya guruhlarini shakllantirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga mehnat bozorida moslashuvchan harakat qilish va uzluksiz ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyor bo‘lish imkonini beradi. Shunday qilib, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar shaxsning kasbiy mobilligini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omil sifatida qaraladi hamda bu hodisalarning asosiy hal qiluvchi omili kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy kasbiy ta’limdir. Kasb - hunar ta’limi jarayonida ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish bitiruvchini dinamik kasbiy muhitda moslashuvchan yo‘nalishga (kasbni, kasbiy mavqeini, lavozimini o‘zgartirishga tayyorligi va qobiliyati) tayyorligi va qobiliyatiga ega bo‘lishiga olib keladi deb ta’kidlanadi.

Shuningdek, olimlardan L.M.Mitnaning fikricha, kasbiy kompetentlik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, ulardan faoliyat, muloqot va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishida foydalanishni o‘z ichiga qamrab oladi. Ya’ni, kasbiy kompetentlik deganda faoliyat va kaommunikativ tuzilma elementlarining o‘zaro uyg‘un bo‘lishi tushuniladi [3]. A.K. Markova o‘qituvchi kasbiy kompetentligining quyidagi bloklarini ajratib ko‘rsatadi [4]:

2-jadval

O‘qituvchi kasbiy kompetentligining bloklari (A.K.Markova)

Kasbiy (obyektiv - zaruriy) psixologik va pedagogik bilimlar;
kasbiy (obyektiv - zaruriy) pedagogik ko‘nikmalar;
bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy - psixologik nuqtai nazari;
o‘qituvchining kasbiy BKMLarni egallashini ta’minlovchi shaxsiy xususiyatlari

Shaxsiy sifatlar, motivatsiya va qadriyatlar tizimi yuksak kasbiy darajani egallashda ahamiyatga ega va har bir kasb uchun lavozim vazifasini bajarishga imkon beruvchi minimal zaruriy talablar mavjud. Pedagoglik kasbiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar mohiyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining o‘z kasb sohasida muvafaqqiyatli faoliyat yurita olishining muhim ko‘rsatkichi uning ijtimoiylashuv darajasini anglatadi. Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarning

shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq masalalarni olimlardan D.X.Nasriddinova, Sh.N.Majitova, F.R.Yuzlikaev, N.M.Egamberdieva, Sh.Olimov, M.T.Mirsoliyeva, N.G.Ismatova, Z.T.Salieva, N.A.Muslimov kabi olimlarning olib borgan tadqiqotlari amalga oshirildi [4].

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilidan ma‘lum bo‘ldiki, pedagogika oliy ta‘lim muassasasi talabalarining ijtimoiylashuvini ta‘minlashda ijtimoiylashuv va moslashuvning o‘zaro aloqadorligi, bo‘lajak o‘qituvchilarning muvafaqqiyatli ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mobilligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Moslashuv ya‘ni adaptatsiya tushunchasi (*lotincha adaptation-moslashish*) nemis fiziologi X.Aubert tomonidan 1865 - yil a‘zolarining tashqi muhit o‘zgarishlariga 25 moslashishini tavsiflash uchun qo‘llanilgan. XX asrning o‘rtalaridagina moslashuv atamasi tibbiyot, kibernetika, psixologiya va boshqa fanlarda qo‘llandi va hozirda umumilmiy tavsifga egadir. Moslashuv hodisasining ko‘plab ta‘riflari mavjud: moslashuv - jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo‘ladigan moslashuv jarayoni adaptogenezning ma‘lum natijasi sifatida keltirilgan. Moslashuv - tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma‘naviy-ruhiy olamida kechadigan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuv degan ma‘noni bildiradi [5].

Moslashuv – organizmning mavjud sharoitlarga muvafaqqiyatli javob qaytara olishidir. Moslashuvning biologik, fiziologik va ijtimoiy-psixologik turlari mavjud. *Biologik moslashuv* tushunchasi negizida hayvonot va o‘simlik turlarining tashqi muhitning aniq mavjud sharoitlariga morfofiziologik ko‘nikishi tushuniladi. *Fiziologik moslashuvda* o‘zida asosida organizmning atrof-muhit o‘zgarishlariga moslashishga qodirligi turadigan fiziologik reaksiyalar yig‘indisi tushuniladi. *Ijtimoiy-psixologik moslashuv* shaxsning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topa olishiga qodirligi sifatida tushuniladi [6]. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida o‘ziga xos quyidagi sifatlarning mavjudligi zaruriyat ekanligini ko‘rsatiladi [7]:

3-jadval

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy sifatlari

Shaxsiy xislatlar	bolalarni yaxshi ko‘rish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar
Kasbga xos bilimlarga egalik	ta‘lim – tarbiya jarayonining mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunish va boshqa
O‘z kasbiga xos xislatlar	hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi va boshqalar
shaxsiy pedagogik uddaburonlik	mashg‘ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish , maqsadlarni rejalashtira olish va boshqalar

Mazkur pedagogik professiogramma ko‘proq pedagogik ta‘lim muassasalarining turli mutaxassisliklariga mos bo‘lib, boshlang‘ich ta‘limda bunday kasbga xos xislatlar tavsifi ko‘proq nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar orqali shakllanishi ta’kidlanadi. Olimlarning fikricha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini shakllantirishning eng muhim tomoni, shaxsni tanlagan kasbiga va mehnat faoliyatiga bog‘liqligini asoslab, unda quyidagi maqsadlar tizimini, ehtiyojlar va motivlar bilan uyg‘unlashishi ko‘rsatib berilgan. Ular quyidagilardan iborat:

4-jadval

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning maqsadlar tizimi

intellektual salohiyat (ijodiy, nazariy, amaliy bilim)
Irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, qiyinchiliklarni yenga olish)
hissiy sifatlar (o‘z - o‘zini baholash)
amaliy ko‘nikmalar (o‘zida psixologik, pedagogik, metodik va texnik, texnologik qobiliyatlar)
o‘z - o‘zini boshqara olish
Komponentlik - olingan nazariy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi va pedagogik amaliyot jarayonida qo‘llay olishi

Bunda tashqari, N.M.Egamberdiyeva o‘zining ilmiy tadqiqot ishida talabalarni *“kasbiy yetukligi”* har bir mutaxassis uchun zarurligini ta’kidlab o‘tadi. Kasbiy yetuklik yaxlit bir tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi, ular quyidagicha : *“pedagogik madaniyat, ijodkorlik, pedagogik aql-idrok, pedagogik bilimga egalik, individual faoliyat, insonparvarlikka yo‘naltirilganlik, ijtimoiy faoliyat”* [8]. Ushbu keltirilgan tadqiqotlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlashda va pedagogik amaliyot jarayonida foydalanish ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Demak, talabalarning kasbiy mobilligini shakllantirishning ilmiy vositalari quyidagilardan iborat: ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi, ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi, turli maqsadlardagi ekspert tizimlari. O‘quv jarayonini uslubiy ta’minlash, o‘zgaruvchan o‘quv dasturlari, ta’limning faol shakllari va usullari, ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan yondashuvlaridan foydalanishga asoslanadi. Bu esa o‘z navbatida talabalarning kasbiy mobilligining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Белякова Н. В. Профессиональная мобильность педагогических кадров как показатель их успешности в условиях перехода на стандарты нового поколения //Сборник материалов Ежегодной международной научно-практической конференции «Воспитание и обучение детей младшего возраста». – ООО «Мозаика-Синтез», 2014. – №. 2. – С. 68.
2. Кормильцева М. В. Социально-личностные компетенции студентов как фактор развития их профессиональной мобильности : дис. – 2009.
- 3.Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). - М.: Дело, 1994. - 215 с.
4. Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед.фан.док дисс. - Т., 1998. - 316 б.
5. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати // тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. - 760 б.
6. Основы педагогического мастерства. // Под ред. Зязюна И.А. -М: Просвещение,1989. С.85-91;142-154.
- 7.Давлетшин Педагогик. Психология. - Т.:2002 27-30 б.
- 8.Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳам касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти: Пед. Фанл номз. дисс. автореф. - Т., 2010. - 17 б.

HISTORY AND PLACE OF NEUROPEDAGOGY IN MODERN PEDAGOGICAL SCIENCES

Guzal Abdikhodirova

Teacher of "General Pedagogy" Department Chirchik State Pedagogical University

Annotation. This article reflects on the history of the introduction of neuropedagogy to modern pedagogy, the role of neuropedagogy in modern pedagogy, the research carried out by World Scientists in the field of neuropedagogy and their conclusions.

Keywords: pedagogy, neuropedagogy, neurons, brain, scientists, research, psychology, neuroscience, cybernetics, approaches, problems.

Neuropedagogy, or neurodidactics or neuroeducation, is a new look at education based on the implementation of educational strategies and technologies developed from research in the field of brain activity. Neuropedagogy is a classic of pedagogy, psychology, neurology, cybernetics based on its foundations, it reflects a behavioural-oriented approach in education. The purpose of neuropedagogy is to solve pedagogical problems optimally and creatively using knowledge about the individual characteristics of the brain organization of higher mental functions. Training. As a rule, neuropedagogy is aimed at the formation of learning skills in schoolchildren. The dynamics of the learning process is based on Neurology, the main task of which is to apply the knowledge of how the brain learns, what stimulates the development of its cognitive and other functions in the school environment. Advances in the study of developmental disorders in schoolchildren allow not only to apply a personal approach to such children, but also to provide them with the best means of

neuropedagogy to overcome these problems.

School failure is one of the biggest problems of the education system. Teachers should be aware that the structure of the lesson, the tasks performed by students, words and emotions significantly affect the development of the brain of students, the way of mastering. Neuropedagogy methods correct learning disabilities in children, enhance cognitive functions: in children with autism spectrum disorders, reading disorders (dyslexia), writing disorders (dysgraphia), Numismatic disorders (dyscalculia), general disorders of all school skills. Neuropedagogy methods help to master the educational process as much as possible in order to increase the academic capacity of children who have difficulties in ensuring high efficiency in the course of the lesson. When performing neuropedagogical exercises, it is the neurons that are activated, which improve the emotional state of the child, relieve insomnia, increase concentration, increase memory capacity.

Neuroexers in programs for working with people with brain damage in the middle of the 20th century-Soviet scientists A. R. Luria, S. G. Gellerstein, B. V. Zeigarnik, S. Y. Rubinstein, A. V. It began to be introduced by the Zaporozhets.

Later, in the 70s of the last century, American psychologists Paul I. Dennison and Gail Dennison with children with poor memory who had school difficulties when working, they began to use neurotechnologies. Employees of the company, teachers who cannot cope with the pace and volume of work J. Bruer, R. Cain is in teaching a foreign language.

Paul Dennison founded the American School of kinesiology (neurophysiological technology of central nervous system stimulation). The brain gymnastics program was developed in the 1970s at the Valley Group Training Center in California. Paul Denison has helped children and adults for 20 years. Dennison developed a fast, simple, precise system of actions that would benefit every learner regardless of the problem. It turned out to be especially effective in relation to children diagnosed as "unable to learn".

In 1987, the results of brain gymnastics were experimentally evaluated. The experiment involved 19 students from the special school. Each student performed GM exercises for 10-15 minutes each day. The indicators of student achievement in 1 year are such that their academic performance increased by 50%. Focusing on the task in which students' abilities are applied. Today, neuromethods (pedagogical Neurology) are successfully used by primary school teachers, speech therapists, psychologists as additional types of influence on the negative formation of a child's personality, speech development, strengthening the emotional background in the USA, Spain, France (S. Dyhain), Australia (Dr. Stefn Juan), in Russia in Russia, appeared Neuropedagogy 1997-2000 (Moskvin V. A., Moskvina N. V., Ereemeeva V. D., Hrman T. P.). The international project "brain and training" was joined by institutions from thirty countries. It is being implemented by the Centre for academic research and innovation (CERI).

In 2013, the brain map presidential program was adopted in the United States. This is also considered important from the space exploration program in the last century. This situation, including for school teachers, has become a condition for building work with students on the negative impact of the task, environment and manuals on the child's brain, taking into account his gender, age and experience.

J. Brewer, president of the James McDonnell Foundation, the largest neuropsychological Association, addressed educators in 1999 with the following statement:

"Over the past 10-15 years, there has been a real opportunity to integrate research into

integrative orientation - neuropedagogy (brain-based / compatible education). Let's take a look at the system of basic principles developed by American Scientists in the form of recommendations for teachers:

1. The brain as a "parallel processor". The human brain is able to perform several functions at the same time. Thinking, emotions, imagination and other complex processes are accompanied in it by mechanisms of information processing and the movement of socio-cultural interaction (communication) with other people. On this basis, the teacher, using different methods and techniques of teaching, should provide many opportunities to engage students in educational-methodological and cognitive activities that are diverse in content and forms. However, underloading the brain, as well as its overload, can negatively affect its development.

2. Learning and cognition as natural mechanisms of brain development. Learning is as natural for the whole organism, in particular for the brain as the process of breathing. Nature has endowed man with curiosity and a desire for science. Pedagogy as a science must create an environment to meet these needs. In addition, learning and cognition are energy-intensive physiological processes, therefore, in the process of learning, it is very important to provide favorable conditions from the point of view of Hygiene and nutrition.

3. Relying on previous experience and searching for meaning as innate qualities of the brain. The human brain always functions in a way that connects previous experience with a new state. Understanding and understanding the latter occurs when the brain finds support in existing knowledge and ideas, which is important for its constant renewal in the learning process. This thesis confirms Vygotsky's understanding of the zone of real and proximal development, which is now extremely popular in the field of pedagogy and psychology in Uzbekistan.

1. The brain seeks meaning by establishing patterns. Confusion and confusion complicate the effective functioning of the brain. In any particular situation or flow of information, the brain tries to find some meaning by setting samples. Learning aimed at simple memorization is harmful to the brain; at the same time, the search for regularity is very useful for him. In other words, intellectual difficulties in searching for Meaning by establishing effective forms of learning when the potential of the human brain arises through elimination.

2. Emotions as a necessary factor in the productive activity of the brain. Surprise, anger, inspiration, a sense of beauty and even a sense of humor are constant "travelers" of a person's full intellectual activity. It is clear that the problem, contradictions, the formation of paradoxical situations, the inclusion of elements of literature, poetry, music, humor in the educational process, regardless of the content of upbringing, mathematics, history or any other topic, it is necessary to create a favorable emotional background in the educational process and constantly support. In a comfortable environment, mastered educational materials are better remembered and have a stable connection with the corresponding emotional state. In addition, the emotional factor stimulates the thinking and creativity of the reader.

3. The brain is able to analyze and synthesize incoming information at the same time, working whole and part by part. The results of neuropsychological studies show that the brain has a specific ability to "see" an object at the same time and in parts, as well as divide and reassemble it at the same time. In other words, performing opposite operations is the natural ability of the brain. It should be noted that American psychologists, in the process of studying the analytical-synthetic activity of the human brain, are guided by S. L. Rubinstein's work of the Russian Scientific School is

paid tribute. Analysis and synthesis are two very important, constantly interacting thought processes in learning, the development of which together requires appropriate reinforcement through adequate teaching techniques and methods. Aimed only at the formation of analytical skills, or in other words, the one-sided study of "piecemeal learning" blocks the natural potential of the brain, its natural ability to analyze and synthesize at the same time. The same mistake, in its one-sided nature, "synthetic" learning is allowed by proponents, who ignore the analytical abilities of students' brains. Therefore, the teaching material must be presented in a way that interacts with the whole and certain, analysis and synthesis, induction and deduction, indirect and inverse methods of problem solving and theorem proving, constriction and generalization, etc.

1. The brain is able to simultaneously absorb information in the context of attention and peripheral perception. For example, in the classroom, the student's brain perceives both the words of the teacher and outside the window, in the school hallway, etc. For example, directors turn to background music to enhance the concept of the film. At the same time, the mechanism of peripheral perception acts as a destructive element. It is important to take this into account, starting with the design of the school building and ending with the design of a particular office and classroom.

2. The processes of consciousness and the subconscious in the brain of the learner occur simultaneously. In the process of learning, we learn more than we think. Here it is appropriate to compare it with an iceberg, symbolizing the processes that occur in the study of the underwater part on an unconscious level. Often, for example, peripheral signals (sounds, words, images) enter our brain "without permission" from our senses. Once they reach the unconscious, they can occur at the level of consciousness with a certain delay or act indirectly on the consciousness of a person, as if through internal motives, unconscious desires, and emotions. This must be taken into account when organizing the educational process. Because the student is not only and simply influenced by what the teacher says, but also internally (previous experience, emotional state, level of motivation, individual characteristics of the student, etc.k.) and the external (general atmosphere of the learning environment, sound, light, etc.k.) the whole complex of factors is affected. The brain works with at least two memory systems: a visual-space memory system and a "compressed" system. The first is more natural, more natural for the activity of the learner's brain. The latter is more artificial and time-consuming. For example, it is not difficult for us to repeat the photo of where and how we spent the night. Of information correspondence there is no need for special methods, since it is placed and encoded by the visual-spatial memory system. This system is closely related to the brain's natural ability to perceive and encode information meaningfully (see points 3 and 4). A second memory system traditionally called a system by American neuropedagogs

Neuropedagogical exercises for the development of high mental functions in a child cause positive dynamics of both cognitive and emotional areas of the student. Each task is useful for all children in the class, so the purpose of this work is to increase the functionality of the individual. At a certain stage of education, it is necessary to have a stimulating effect on each student, since a person has a number of external adverse factors that destabilize the functioning of the central nervous system. The usefulness of using neuroexuality can be appreciated by all school teachers, from elementary school teachers to subordination to teachers of older classes. Especially in children who have been at home for a long time, have little effort, do not participate in a group of egalitarians, a negative effect is felt. This type of work should also be used when teaching a child on the basis of an individual household and when the child returns to school after a long absence due to illness, to "wake up the

child's brain", to adapt the student to the speed of active work in the lesson.

References:

1. Bezrukih M.V. Maktabda va uyda chapaqay bola. Ekaterinburg, 1998. Belaya A.E., Miryasova V.I. Barmoq o'yinlari. Moskva, 1999.
2. Betti Lou Leaver. Butun sinfni o'rgatish. Moskva, 1995.
3. Bekhtereva N.P. Inson aqliy faoliyatining neyrofiziologik omillari. Leningrad, 1971.
4. Abdixodirova G. E. Aliyrov D. N.Tojiyev S.F.Musurmonov A. N UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI O`QUVCHILARINI MA`NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA KUTUBXONALAR, TEATR VA OAV AHAMIYATI 7 –TOM 2–SON/2024-YIL /15 –FEVRAL PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 427-431 bet.

XALQARO AKADEMIK MOBILLIK TENDENTSIYALARI

Xayrullina Parizod Fargat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistri

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi akademik harakatchanlikka moyil bo'lgan talabalar guruhlarini aniqlash edi. Buning uchun ma'lumotlar bazalari yordamida tanlangan guruh talabalarining migratsiya faoliyati tahlil qilindi. Tadqiqot uchta hissa qo'shdi: birinchidan, migratsiyaga moyil bo'lgan ijtimoiy guruhlar aniqlandi va gender farqlari aniqlandi. Ikkinchidan, yoshlarning chet elda o'qishga bo'lgan munosabatini o'rganish. Uchinchidan, chet elda ishlash munosabati, shuningdek, doimiy emigratsiya. Muallifning akademik harakatchanlikni rivojlantirish sohasidagi Rossiya siyosatini shakllantirish bo'yicha takliflari mavjud.

Kalit so'zlar: akademik harakatchanlik, ta'lim migratsiyasi, ilmiy diaspora.

KIRISH

Oliy ta'lim jarayonlarini xalqarolashtirish doirasida talabalarning harakatchanligi masalasi ko'plab mualliflar tomonidan keng muhokama qilingan. Talabalarning harakatchanligi talabalarning bir mamlakatdan ikkinchisiga yoki dunyoning mintaqalari o'rtasida yoki Afrika kabi mintaqada ham ichkariga, ham tashqariga harakatlanishi bo'lishi mumkin. Oliy ta'limda talabalarning harakatchanligini kontseptsiyalash qiyin bo'ldi, chunki talabalarning milliy chegaralar orqali harakatlanishi ba'zida migratsiya va miyaning ketishi kabi boshqa tushunchalar bilan chalkashtirib yuborilgan. Biroq, xalqaro talabalarning qabul qiluvchi mamlakatda qolish muddati talabalarning harakatchanligi bilan bog'liq atamalarini tushunish va ulardan foydalanish uchun hal qiluvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Shunga ko'ra, talabalarning harakatchanligi qisqa muddatga "almashinuv dasturlari" sifatida yoki butun dastur uchun "chet elda o'qish" sifatida bo'lishi mumkin. Agar talabalar o'qishni tugatgandan keyin qolishga va ishlashga qaror qilsalar, buni "chet elda ishlash" yoki "mahorat migratsiyasi" deb ham atash mumkin. Shunday qilib, xalqaro talabalar harakatchanligi deganda, chegaralarni kesib o'tib, boshqa mamlakatda bo'lib, oliy ta'limda qisqa yoki uzoq muddatli ta'lim olish uchun yoki mintaqada, mintaq ichida yoki turli mintaqalar bo'ylab mintaqalararo davlatlar o'rtasida talabalar sifatida tavsiflanishi mumkin (Knight, Woldegiorgis). : 2017).

So‘nggi yillarda rivojlangan ta‘limning xalqarolashuvi (globallashuvi) milliy ta‘lim tizimiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Akademik mobillik va global akademik harakatchanlik tushunchalari 1990-yillarda paydo bo‘lgan ta‘limni xalqarolashtirish kabi ilmiy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liqdir (Almazova, Andreeva, Xalyapina: 2018). Rossiya oliy ta‘limni modernizatsiya qilish dasturiga amal qilib, "Rossiya ta‘limi rivojlanishining asosiy tendentsiyasi" bo‘lgan ta‘limning Evropa modelini qabul qildi (Vorontsov, Vorontsova: 2015). Akademik harakatchanlik globallashuv jarayonining natijalaridan biriga aylandi. Global akademik harakatchanlik xalqarolashtirish vositasi yoki o‘lchovi sifatida tavsiflanadi (Egroun-Polak: 2017). Xalqaro akademik harakatchanlik (IAM) so‘nggi o‘n yil ichida Xitoy va boshqa mamlakatlarda oliy ta‘limni xalqarolashtirish landshaftining tobora muhim qismiga aylandi (Cao, Zhu, Meng: 2015).

Ta‘lim inson kapitali va aholi sifatining asosiy jihati hisoblanadi (Adidam: 2006). Xalqaro migratsiya masalasi bir necha o‘n yillar davomida inson resurslari bo‘yicha mutaxassislar (HR), mehnat iqtisodchilari, siyosatshunoslar va boshqa olimlar o‘rtasida faol muhokama qilinmoqda (Sjaastad: 1962; Becker: 1964). Bekkerning so‘zlariga ko‘ra, "mobillik - bu inson kapitaliga (HC) sarmoya kiritish usuli", migratsiya esa HCga investitsiya qilishning bir shakli va "HC shaklidir" (Becker: 1964). HC odamlarning iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishini ta‘minlaydigan fazilatlari, qobiliyatlari, ko‘nikmalari, iste‘dodlari va tajribalarini tashkil qiladi. Xalqaro akademik harakatchanlik - bu murakkab omillar to‘plamida shakllangan va akademik faoliyatning xalqarolashuviga turli xil ta‘sir ko‘rsatadigan, akademik kasbni nafaqat mobil va mobil bo‘lmagan akademiklar, balki har xil turdagi mobil akademiklar o‘rtasida ham bo‘ladigan dolzarb va yuqori darajada farqlangan hodisadir. (Rostan, Xöhle: 2014).

Darhaqiqat, turli xil davomiylikdagi migratsiyalar kengayib borar ekan, bu harakatlar uchun bog‘liq motivlar va ular bilan bog‘liq migrantlarning xususiyatlari o‘zgardi. Iqtisodiy, siyosiy va oilaviy motivatsiyalar bilan bir qatorda, ta‘lim va ayniqsa oliy ta‘lim ham migratsiya motiviga aylandi va talabalar harakatchanligini oshirdi (Rostan, Xöhle: 2014). Xalqaro harakatchanlikni tahlil qilishda qisqa muddatli harakatchanlik va uzoq muddatli harakatchanlik farqlanadi. Odatda, chet elda 1 yil yoki undan kam davom etadigan davrlar qisqa muddatli akademik harakatchanlik, 1 yildan ortiq davom etgan davrlar esa uzoq muddatli harakatchanlik deb hisoblanadi (Hoffman: 2009).

Bu omillar va migratsiya oqimlarining yo‘nalishi o‘xshash: odamlar rivojlanayotgan va kam rivojlangan iqtisodlardan etuk iqtisodlarga, ingliz tilida so‘zlashmaydigan mamlakatlardan ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarga o‘tishadi. O‘qish uchun erta migratsiya jinsga ta‘sir qilmasa-da, keyinchalik ishga asoslangan migratsiya ayollar uchun erkaklarnikiga qaraganda kamroq ochiqdir (Rostan, Höhle: 2014). Xalqaro migratsiyaning umumiy sabablari yaxshi aniqlangan. Odamlar turmush darajasini yaxshilash, farzandlariga yaxshi imkoniyatlar taqdim etish, ularning ko‘nikma va iste‘dodlarini to‘liq ishga solish hamda o‘zlarining barqaror kelajagi yo‘lida sarmoya kiritish maqsadida boshqa mamlakatlarga ko‘chib o‘tadilar (Migratsiya kelajagi: o‘zgarishlar uchun imkoniyatlarni yaratish: 2010).).

Xalqaro akademik harakatchanlik teng bo‘lmagan hodisadir. Professional tiraji etuk mamlakatlar akademiklarini boshqalarga qaraganda ko‘proq va ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda ishlaydiganlarga qaraganda ingliz tilida so‘zlashmaydigan mamlakatlar akademiklarini ko‘proq jalb qiladi. Bundan tashqari, yuqori darajaga ega bo‘lish, keyinchalik ushbu akademiklarning martabalarida paydo bo‘ladigan xalqaro harakatchanlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, muhim istisnolardan tashqari, xalqaro akademik harakatchanlik genderga

yo'naltirilgan hodisadir. Nihoyat, otalarning yuqori ma'lumot darajasi bilan o'lchanadigan oilaviy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy kapital xalqaro miqyosda harakatchan bo'lish imkoniyatini oshiradi (Rostan, Höhle: 2014).

“Brain drain” yuqori malakali va ma'lumotli mutaxassislarning yaxshiroq hayot va inson kapitalidan foydalanish uchun joy izlab boshqa mamlakatlarga emigratsiyasini anglatadi. Ko'pchilik "Miyalarning ketishi" donor mamlakatlar boshdan kechirayotgan asosiy kamchilik deb hisoblaydi. Bu kambag'al, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhimdir, chunki ular ko'pincha boy mamlakatlarga yorqin odamlarning donorlari bo'lib xizmat qiladi. O'zlarining kambag'al mamlakatlarida farovonlikni oshirishga hissa qo'shish o'rniga, ularning yorqin va aqlli odamlari allaqachon badavlat xalqlarni tark etib, boyliklarini ko'paytiradilar (Hornstein Tomić, Teylor: 2018).

Xulosa qilib aytganda, tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish gumanitar fanlar talabalarining intellektual rivojlanishi va professional muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik metodlar, texnologiyalar va samarali o‘qituvchilar bu ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois, ta’lim tizimida tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lib, bu talabalar uchun kelajakdagi muvaffaqiyatlarning asosini yaratadi.

Xulosa

Tafakkur va mantiqiy fikrlash insonning intellektual va professional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Gumanitar fanlar talabalarining bu ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning akademik muvaffaqiyati va kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun zarurdir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi tafakkur va mantiqiy fikrlashni samarali rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning roli, talabalar bilan samarali aloqalar o‘rnatish va ularni mustaqil fikrlashga undash ham bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, gumanitar fanlar sohasida tafakkur va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish talabalarni zamonaviy dunyoning murakkab muammolarini hal qilishga tayyorlaydi. Shuning uchun, ta’lim tizimida tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lib, bu talabalar uchun kelajakdagi muvaffaqiyatlarning asosini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Аҳмедов, Ж. (2020). "Тафаккур ва мантиқий фикрлашнинг назарий асослари". Тошкент: Ўзбекистон Янги Ношири.
2. Бектуров, М. (2018). "Замонавий педагогик методлар ва уларнинг амалий қўлланилиши". Қорақалпоғистон: Қорақалпоғистон университети нашри.
3. Каримов, Ш. (2022). "Гуманитар фанларда фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш". Андижон: Андижон Давлат Техник Университети нашри.
4. Номиддинов, И. (2019). "Интерактив ўқитиш методлари ва технологиялар". Самарқанд: Самарқанд Давлат университети нашри.

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV JIHATDAN QATLAMLANISHI

Jumanova Nazokat Shuhrat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ikkinchi bosqish talabasi

Annotatsiya: Maqola o‘zbek tili leksikasining emotsional-ekspressiv jihatdan qatlamlanishi, hamda emotsional ekspressiv bo‘yoqdor leksemlarning nuqtda qo‘llanilishi haqida.

Kalit so‘zlar: emotsional-ekspressiv, leksika, leksik usul, kontekstual usul, affiksatsiya usul, fonetik usul.

Leksik ma‘noni ustama hodisa sifatida qoplab turgan konnotatsiya semalari leksemaning uslubiy bo‘yoqdorligini ta‘minlovchi asosiy semantik komponentlar sanaladi. Bunday semalarning leksema ma‘nosida bor yoki yo‘qligiga qarab leksemalar ikki guruhga ajratiladi:[Jamolxonov, 322]
1.Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksemalar. 2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksemalar.

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksemalar. Bunday leksemlarning semantik tarkibida denotativ ma‘no bo‘ladi. Masalan: yuz, oriql, kulmoq, ozg‘in kabi.

2. Emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksemalar. Bunday leksemlarning semantik tarkibida denotativ ma‘no bilan birga uslubiy bo‘yoqlar ham mavjud bo‘ladi. Masalan,yuz(emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf leksema) *turq*(emotsional-ekspressivjihtadan bo‘yoqdor leksema) *Kulmoq*(emotsional-ekspressivjihtadan betaraf leksema) *tirjaymoq*(emotsional-ekspressivjihtadan bo‘yoqdor leksema) *Ozg‘in*(emotsional-ekspressivjihtadan betaraf leksema) *ozg‘in*(emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor leksema) hisoblanadi.

Yaxshi va yomon, g‘azab va nafrat kabi leksemalarda uslubiy bo‘yoq bordek tuyuladi, aslida bu leksemalarda uslubiy bo‘yoq yo‘q. Bu leksemalar belgi yoki voqelikni atash(nomlash) bilan cheklanadi.

Uslubiy bo‘yog‘i bor bo‘lgan leksemalardan nutqda his-tuyg‘ularni, so‘zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi.[Jamolxonov, 323]
Kallavaram o‘zbekning nozik joyidan mahkam ushladi! (O‘.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar) Tursang-chi, muncha shalpayasan (H.Sh) leksemlarning mazmun jihatdan uslubiy bo‘yoqdorligi evaziga gapda ekspressivlik ta‘minlangan.

Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi uchun quyidagi usullarga tayanadi:

1. Leksik usul. Bunda uslubiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan leksemalar nutqqa kiritiladi. Masalan, *Mamlakat bizga ishonsin! Biz shalvirab ishni xurjun qilaylik...*

2. Kontekstual usul. Bunda uslubiy bo‘yog‘i yo‘q bo‘lgan leksema ma’lum bir kontekstda yoki nutqiy muhit ta’sirida bo‘yoqdor so‘zga aylantiriladi. Masalan, *U bir ko‘ngli borib muttaham qozining tumshug‘iga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. Tumshuq so‘zida hech qanday uslubiy bo‘yoqdorlik mavjud emas, lekin yuqoridagi gapda tumshuq so‘zi kontekstda uslubiy bo‘yoqdorlikka uchragan.*

3. Affiksatsiya usul. Bunda betaraf ma’noli leksemalarga sub’yektiv baho ifodalovchi affiksalar morfemalar qo‘shiladi. Masalan, *oyi-oyijon, tili-tillari, dadam-dadamlar, uka-ukaiginam, singilginam, kuchukvoy, mushukvoy kabi -gina, -lar, -voy, -jon kabi qo‘shimchalar, so‘zlarga qo‘shilib bo‘yoqdorlikni hosil qilyapti. Ana sichqon, mushukvoy, Ana xo‘roz kuchukvoy. (G‘.G‘.). Seni o‘zimdek bilaman, ukaginam. (S. Ahm.)*

4. Fonetik usul. Bunda leksema tarkibidagi undoshlar qavatlantiriladi (geminatsiya) unlilar esa cho‘ziladi, urg‘uning o‘rni o‘zgartiriladi. Masalan: *Ishqilib, Zamira bechora uyatga chidayolmay ketib qolgan. Yashshamaqurlar... (P.Q.). Samolyotning yuqori qavatida basseyn bor. Yuring, mazza qilib cho‘milib olasiz. (O‘.H.). Akam bechora go‘shangada ko‘rib, xayro-o-o-on bo‘lib qolganlar. (Mirm.). Uning shu gapidan keyin hamma o‘tirganlar birdaniga “Vo-o-o” deb qiyqirib yuborishdi. (Nuriddin Ismoilov). Yo-o-o-q! –deb baqirib yuborgan Shahlo yerga o‘tirib oldi-da o‘kirib yig‘lashga tushdi. (Nuriddin Ismoilov) Vo-o-oydod, bu qizning dastidan uyda tinchlik bormi?*

5. Leksemalarni metaforik qo‘llash usuli. Bunda ko‘p ma’noli leksemaning metaforaga asoslangan majoziy (hosila) ma’nosidan uslubiy figura sifatida foydalaniladi. Masalan: *Muhtaram qayin otamizga! Siz bilan meni qorong‘i zindonlarga tushirib, dor ostlarigacha tortgan... Homid ismli bir to‘ng‘izni, nihoyat ikki yillik sargardonlik so‘ngida, yordamchilari bilan tuproqqa qorishtirishga muvaffaq bo‘ldim. (A.Qod.). Ushbu gapdagi to‘ng‘iz ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib Otabekning Homidga nisbatan salbiy tuyg‘usini ifodalagan. Mamajon lochin yigit, serharakat, betinim. (Q.M.). Bu gapda lochin leksemasi o‘z ma’nosida emas, ko‘chma ma’noda -yigitning epchilligini, chaqqon va jasurligini baholash maqsadida qo‘llangan.*

So‘zlovchining his tuyg‘ularini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar, emotsional bo‘yoqdor so‘zlar emotsional leksikani tashkil etib, ularsiz badiiy asarni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili— Toshkent "Talqin" 2005
2. Hasanboy Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili — Davlat nashriyoti Toshkent 2013
3. Shavkat Rahmatullayev Hozirgi o‘zbek adabiy tili(darslik)— Toshkent 2006

YOSH FUTBOLCHILARNI TESKOR - KUCHNI TARBIYALASHDA ASOSIY VOSITALARI

Tursunaliyeva Gulasal Botirali qizi

CHDPU MBBT yo‘nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada futbol keng xalq ommasini jismoniy rivojlantirishni va uning salomatligini mustaxkamlashning xammabop ommaviy vositalari haqida so‘z yuritiladi. .Bu sport turi kattalarga ham ,o‘smirlarga ham birdek maqul bo‘lgan o‘yindir.Ushbu o‘yinda futbolchilarning teskorlikni, chidamligini yanada rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: yosh futbolchilar, jismoniy va aqlik jihat, trenirovka, futbol o'yinining turli-

tuman texnikasini

Futbol keng xalq ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustaxkamlashning eng hammabop, binobarin eng ommaviy vositasidir. Bu kattalarga ham, o'smirlarga ham, bolalarga ham birdek ma'qul bo'lgan chinakam xalqchil o'yindir. Xozirgi zamon ilmiy ma'lumotlari va ilg'or tajriba yosh futbolchilarning individual-tipik xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan differentsial ta'lim, futbolchilar tayyorlashning eng samarali formasi ekanligini ko'rsatmoqda.

Tipologik gruppalarni tashkil etish yosh futbolchilarni alohida-alohida o'qitishga va o'quv-mashg'ulot jarayonini individuallashtirishga imkon beradi. Bir xil gruppalarni komplektlash metodikasi shundan iboratki, testlar o'tkazish natijasiga ko'ra jismoniy imkoniyatlari texnik-taktik ko'rsatkichlariga qaraganda ancha past bo'lgan o'quvchilar bir gruppaga tanlab olinadi va birlashtiriladi.

Jismoniy sifatlari texnik-taktik tayyorgarligidan ancha ortiq bo'lgan bolalar esa ikkinchi gruppaga ajratiladi. Yosh futbolchilarni tayyorlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalar va o'smirlar sport kollektividagi o'quv-trenirovka ishlarini to'g'ri tashkil etishda ularni hisobga olish lozim. Futbol o'yinining turli-tuman texnikasini qisqa vaqt ichida egallab olish amalda mumkin emas. Faqat futbolchilarni 9-10 yoshdan 17-18 yoshgacha o'rgatish va mashg'ulot qildirishni to'g'ri perspektiv planlashtirish natijasidagina yuqori texnika darajasiga ega bo'lgan futbolchilar tayyorlash vazifasini hal etish mumkin. Yosh futbolchilar tayyorlashdan asosiy maqsad sport mahoratiga erishish uchun eng qulay bo'lgan yoshda bolalarni asta-sekin mahoratli sportchi qilib yetishtirishdir.

Biroq bollar va o'smirlar futbolining vazifasi razryadli futbolchilar va masterlar tayyorlash bilan tugallanmaydi. Ular, ya'ni o'smirlar futbolining vazifasi ancha keng bo'lib, bolalar va o'smirlarning jismoniy va aqlik jihatlaridan garmonik rivojlanishlari, ularning sog'lig'ini mustaxkamlash va organizmining tashqi muhitning turli xil noqulayta'sirlarida chidamliligini oshirish haqidagi masalaning hal etishini ham ko'zda tutadi. Agar bolalarni o'qitish va ularning takomillashish jarayoni sistemali ravishda, o'sib borayotgan organizmning yosh xususiyatlarini hisobga olib ishlab chiqilgan. Respektiv va ilmiy asoslangan plan asosida amalga oshirilsa, bu jarayon samarali bo'lishi mumkin. O'quv-mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda sportga tayyorlash vositalarini 9-10 yoshdan 17-18 yoshgacha, ya'ni yosh futbolchilarning kattalik hisobiga o'tish paytigacha bo'lgan butun davrga izchillik bilan, asosiy didaktik printsiplarni hisobga olgan holda taqsimlash kerak. Dastlabki tayyorgarlik va boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichlarida kuchni oshirishda asosiy e'tibor butun harakat apparatidagi muskullarni mustaxkamlashga qaratilishi kerak. Shuni hisobga olish kerakki, tabiiy o'sish jarayonida bolalarda qorin mushaklari tananing qiyshiq mushaklari, qo'lning uzoqlashtiruvchi mushaklari, sonning serbor mushagi, oyoqning yaqinlashtiruvchi mushaklari, odatda uncha yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Bolalarning kuch imkoniyatlari oz bo'lganligi uchun ularda kuchlilikni tarbiyalashni juda ehtiyotkorlik bilan, asosan dinamik xarakterdagi qisqa vaqtli zo'r berishdan foydalanib olib borish kerak. Kuchni oshirishga oid mashqlar minimal zo'r berish bilan bajarilishi lozimki, bunda bor kuchni yig'ish, shuningdek uzoq davom etadigan anchagina zo'r berish mustasno qilinadi.

Futbolchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda asosan og'irligi kamroq yuk bilan katta tezlikda bajariladigan mashqlar qo'llaniladi. 9-11 yoshli bolalar shaxsiy og'irligining 30% ga, 12-13 yoshli o'smirlar esa gavda og'irligining 50%iga teng bo'lgan og'irlik bilan bajariladigan mashqlarni bajarishlari mumkin.

Jiddiy trenirovka qilish bosqichida butun harakat apparatining muskul gruppalarini rivojlantirishga qaratilgan kuch mashqlaridan keng foydalaniladi. Shu bilan birga ayrim muskullar guruhi (rivojlanib boruvchi kuchning quvvati asosan shularga bog'liq bo'ladi) alohida ta'sir ko'rsatishga imkon beruvchi mashqlar ham qo'llaniladi. Jumladan, nerv-muskul kuchlanishlarining tuzilishi va xarakteriga ko'ra futbolning butunlay ta'siriga o'xshash mashqlar, shuningdek asosiy yuklama tushadigan muskullar guruhini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar alohida ta'sir ko'rsatishga imkon beruvchi mashqlar hisoblanadi.

Barcha harakat apparatining muskul guruhini, shuningdek ayrim muskullar guruhini rivojlantirish uchun asosan dinamik kuch mashqlaridan foydalaniladi, bular ikki guruhga: shaxsiy kuch va tezlik kuch guruhiga bo'linadi.

Yosh futbolchilarning kuch imkoniyatlari umumiy darajasini oshirish uchun ko'proq takroriy zo'r berish metodi qo'llaniladi. Bu metodda muskulning nisbatan ko'p ishlashi modda almashinuvini anchagina yaxshilaydi. Trofik jarayonlarining aktivlashuvi o'smirlar kuchining o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Bundan tashqari, takroriy zo'r berish metodidan foydalanganda haddan tashqari kuch sarflash ehtimoi kamayadi. 13-16 yoshda og'irliklar bilan ishlashda maksimal darajada zo'r berishga yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun og'irlik keltiruvchi jismining optimal og'irligini aniqlashda yosh futbolchining maksimal imkoniyatlarini emas, balki uning shaxsiy og'irligini e'tiborga olish kerak

Foydalangan adabiydlar

1.Vazirlar Maxkamasining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 1999y. (60-74).

2.Karimov I.A. “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat”. Toshkent “O'zbekiston” 1992y. 62 bet.

3.Karimov I.A. Biz kelajagimzni o'z qo'limiz bilan quramiz. “O'zbekiston”. Toshkent 1999 y. 413 bet.

4.“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 1997y. (39-42).

5.Postanovleniye Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan “O merax po dal'neysheму razvitiyu futbola v Respublike Uzbekistan” //Narodnoye slovo.-1993.-18 marta.

SOG‘LOMLASHTIRUCHI JISMONIY MASHQLARNING YOSHLAR JISMONIY BARKAMOLLIGIGA TA’SIRI

Mamatqulov Ravshanjon Solijonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

- Jismoniy madaniyat" fakulteti Jismoniy madaniyat va sport" kafedrası» katta o'qituvchisi

-Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Eshmamatova Xolida Shavkat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola sog'lom turmush tarzi, faol optimal harakat aktivligi o'zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan. Sog'lom turmush tarzi (STT) jismoniy madaniyati tarkibidagi sog'lomlashtirish trenirovkalarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a'zosini STT jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi ochib berilgan.

kalit so'z; bo'yi-basti, qaddi-qomati, vazni, Sog'lom turmush tarsi, Maktab o'quvchilari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy fazilatlar, jismoniy rivojlanish, vosita faoliyati, popilyatsiya.

Inson jismi yetukligining yuqori bosqichi uning jismi barkamolligi bo‘lib, u abadiy tushunchadir. Millat vakilining bo‘yi-basti, qaddi-qomati, vazni, harakatlarining o‘ziga yarashishi, jismining tashqi ko‘rinishi, vujudidagi harakat fazilatlarining yetakchilari sanalmish kuchi, tezkorligi, chidamliligi, chaqqonligi, bo‘g‘inlarining harakatchanligi va mushaklarining mashqlanganligi, tarbiyalanganligi orqali ko‘zga tashlanadi, namoyon bo‘ladi. Jisman barkamollikka erishish, uzluksiz, doimiy mehnat jarayoni bo‘lib, mashq qilish, ommaviy sport bilan shug‘ullanishni turmush tarzi tarkibiga kiritib, unga rioya qilish, STT qoidalarini bilish va tizimli amal qilishdek, ko‘p yillik jarayonning nazariy bilimlari hamda amaliy malakalari bilan bog‘liq. Hozirgi kunga kelib, yoshlarning jismoniy rivojlantirish va jismoniy tayyorgarligini yanada takomillashtirishni mavjud amaldagi modeli davr talabi darajasida emasligi prezidentimiz tomonidan hamda hukumat qarorlari, ko‘rsatmalari orqali bir necha bor ta’kidlanmoqda. Uning davr talabiga javob beradigan majmuasini, yoshlarning STT jismoniy madaniyatini asosini yaratish, nazariy bilim, amaliy malaka va ko‘nikmalarni boyitish, ularni takomillashtirish hozirgi kunning muammolaridan biri 59 hisoblanadi. Uni hal qilish jismoniy madaniyat ta’lim-tarbiyasining eng ilg‘or milliy va umumbashariy bilimlari, tajriba, an‘ana, qadriyatlariga tayanadi, ularni o‘zida mujassamlashtiradi hamda mavjud jismoniy yetuklik, jismoniy barkamollik modelini ma’naviy boy avlod tarbiyasi jarayonida tagzamin sifatida foydalanadi. STT jismoniy madaniyatiga konseptual qarashning mazmuni Prezidentimizning yosh avlod kelajagi, uning jismoniy madaniyatligi darajasi, unga egaligi, el-yurt farzandlariga daxldor bo‘lgan barcha chiqishlari va qator asarlari, qo‘llanmalari, risolalarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, yurtboshimizning mamlakatimiz yoshlariga bag‘ishlab, ularni avaylab asrash ruhi bilan sug‘orilgan «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» asari bashariyat ahli tomonidan hozirgi kunda ham e’zozlanayotgan zabardast bobolarimizning hayot tarziga yetarlicha baho bergan. Ularning matonati, yashashda to‘g‘ri yo‘l tanlay olishi, umrining mazmunini nimagadir bag‘ishlashi, yashashdan maqsadning ma’nosini anglashdagi fahm-farosati, ilm-fandagi jasoratlari, aql-zakovatlari, zamondoshlarining ular uchun qilgan zulmlari, sun‘iy yaratgan qiyinchiliklarga qarshi ko‘rsatgan mardliklari ilmiy, nazariy, amaliy isboti bilan ifodalangan. Bobolarimizning o‘rnakka arzigulik bo‘lganligi, hayotdagi biz uchun ideallarni chetdan izlamaslikka ishora qilgan. Ularning yashash tarzi, hayoti milliy ma’naviyatimiz shakllanishining yetakchi vositasi hisoblangan muqaddas dinimizning ulug‘ kitobida bayon qilingan «To‘rt muchchasi sog‘larni» Yaratganning o‘zi yoqtirishiga amal qilib yashaganliklarini ta’kidlagan (3). Tarixiy asarlar qatoridan joy olishga arziydigan bu asarda, zakovatli bobolarimizni faqat ilm-fandagi madaniyat, san’at, adabiyot, ijtimoiy sohaning barcha o‘zanlaridagi erishgan yutuqlaridan tashqari odamiylik, insonparvarlik, vatanining sodiq farzandlari sifatidagina emas, o‘z jismlarining barkamolligi, mustahkam salomatlik sohibi, jismonan yuksak shaxslar bo‘lganliklari haqidagi dalillarni o‘rinli bayon qilgan.

Ularning kam harakatlanish, mehnatdan qochish, dangasalik, me‘yoridan ortiq taom tanavvul qilish, uxlashning salbiy oqibatlarini, pala-partish hayot kechirish haqidagi fikrlari hali qator yillar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. “Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” odobi shunday narsaki, u keraksiz bo‘lib qolmaydi, ishlatmasang yo‘qolib ham ketmaydi, kerak paytda esa senga ko‘makchi bo‘ladi, - deb yozadi oliy o‘quv yurtlari uchun yozilgan «Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti» darsligining mualliflari A.Abdullaev, Sh.X.Xankeldievlar (2007). Haqiqatdan ham STT jismoniy madaniyatini hunar yoki kasb, unga egalik san’atidan bexabarlardek «men buni bilmayman» deyish to‘g‘ri emas. Chunki har bir individ o‘ziga keraklimi, keraksizmi fan-texnika yutuqlaridan yoki hayot, turmush tarzining ahamiyatsiz muammolarini zaruriyat bo‘lmasa ham «zo‘r» biladi, lekin ularni

o‘zining shaxsi yoki jismining madaniyatiga oid bilimlari talab darajasida emas. Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mardlik, jasurlik va matonatdek sub‘ektiv qadriyatlarni shakllanishi uchun vosita bo‘ladi. Mardlik, jasurlik va matonat fazilatlarini tarbiyalash jarayoni jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarining barcha shakllarida – u sog‘lomlashtirish jismoniy madaniyati mashg‘ulotlari tarkibidami, ommaviy sport turi bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlaridami, shug‘ullanuvchini istagisiz namoyon bo‘lishi amaliyotda isbotlangan. Bu tarixiy, umuminsoniy fazilatlar yuksak ma‘naviyatli, har tomonlama jismonan garmonik rivojlangan intellektual resurslarning shakllanishiga zamin bo‘ladi. Jamoa, davra, yig‘inning e‘tiborida bo‘lish (kurash, ommaviy tadbirlar, bayramlar, musobaqalar jarayonida va boshqalar)da o‘zini tutishi, g‘olib bo‘lgandan yoki mag‘lubiyatdan so‘nggi vaziyatdan sharaf bilan chiqish, biz qayd qilgan, faqat bizning yurtimiz xalqlari uchun xos bo‘lgan sub‘ektiv qadriyatlar mardlik, jasurlik va matonatni shakllanishida vosita bo‘ladi. Zarur bo‘lganda o‘ylab o‘tirmay matonat talab qiladigan, mardlik, jasurlik namoyon qiladigan vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaslik, o‘zini boshqarishdek jihatlari bilan jismoniy madaniyatga egaligi darajasini namoyon qiladi. Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati qadriyat sifatida o‘z ichiga quyidagilarni oladi: -jamiyat a‘zosining salomatligi, vujud qismlarining xizmat faoliyati darajasi, tanining sihatligi, uni zarur darajada ushlashga yordam beradigan tizimli mashg‘ulotlarni; -jismoniy tayyorgarligi (etuklik) - kuchi, tezligi, chaqqonligi, chidamliligi, egiluvchanligining darajasini; -jismoniy rivojlanganligi – vazni, bo‘yi, tanasi a‘zolarining o‘lchami va ularni o‘ziga yarasha darajada ushlashga oid nazariy bilimlari va amaliy malakalarni; -jismoniy yetuklik va jismoniy barkamollikka oid nazariy bilimlarni va amaliy malakalarni; -kun tartibi tarkibida harakat faolligi o‘quv, mehnat faoliyati, «aktiv», «passiv» dam olish madaniyatini; -aqliy va jismoniy faoliyat uchun sarflanadigan energiya (quvvat)ni tiklashni boshqara olishni; -ommaviy sport turlaridan biri bilan shug‘ullanishni; -salomatlik trenirovkalarining mazmuni va uni tashkillashtirishni; -sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining o‘zi yoqtirgan shakllaridan biri bilan maqsadli shug‘ullanishni; -suv, havo, quyosh nuri orqali chiniqishni; -massaj, shaxsiy jamoa gigienasi omillaridan, birinchi yordam, xavfsizlik qoidalari va undan foydalana bilish hamda boshqa nazariy bilimlar va amaliy malakalarini o‘z ichiga oladi.

Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga oid maxsus adabiyotlar mazmuni, uning nazariy asoslari, amaliy malakalarini egallash jarayonida bir qator atamalar, tushunchalarga duch kelamiz: Turmush tarzi - tushunchasi quyidagi komponentlar majmuasini o‘z ichiga oladi: birinchidan – tabiat, jamiyat va insonning o‘zini o‘zgartiradigan yaratuvchanlik faoliyati; ikkinchidan – moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarni qondirish usulini; uchinchidan – kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati sohasida va davlat boshqaruvida ishtirok etish shaklini; Vatanparv arlik Qaxramonlik Jasorat Mardlik Oriyat Sha’n Sadoqat Insonpa rvarlik Botirlik Halollik Bag‘riken glik Burchni anglash O‘zlikni anglash Oriyatli i-lik Mehnatsevarlik Sub‘ektiv qadriyatlar Ob‘ektiv qadriyatlar Tabiat Jismoniy madaniyat mashqlarida suvdan foydalanish Jismoniy madaniyat mashqlarida havodan foydalanish Jismoniy madaniyat mashqlarida quyosh nuridan foydalanish Sog‘lomlashtirish trenirovkalari mashg‘ulotlarida orqali quyidagi ahloqiy qadriyatlar tarbiyalanadi 63 to‘rtinchidan – nazariy, empirik va qadriyatli yo‘nalish darajasidagi bilish faoliyatini; beshinchidan – jamiyat va uning ijtimoiy tizimlari (halq, sinf, oila va boshqalar)ni. Salomatlik – inson organizmining shunday holatiki, uning barcha organlari va tizimlari tashqi muhit bilan mos kelishi va kasallikka nisbatan moyilligi umuman yo‘qligidir. Jismoniy madaniyat – jamiyat a‘zolarini jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, metodlar, sharoitlarni yaratish va ulardan

ratsional foydalanish bo‘yicha erishilgan yutuqlarning majmuasidir. Jismoniy tayyorgarlik – kishining sog‘ligi, maxsus bilimlar bilan qurollanishi, hayotiy zarur harakat, ko‘nikma va malakasini shakllantirishi hamda jismoniy sifatlarining rivojlanishi darajasini belgilovchi bir guruh sinov mashqlari majmuasini ifodalaydi. Jismoniy rivojlanganlik – inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy shakllanishi – tashqi ko‘rinishi va uning xizmatini o‘zgarish jarayonidir. Jismoniy tayyorlash – insonlarni kasbiy xususiyatidan kelib chiqib, jismoniy holatini rivojlantirish. Jismoniy tarbiya harakati – ijtimoiy harakatning o‘z oldiga aholini jismoniy tarbiyalash darajasini oshirish va sportni rivojlantirishga yordam berishni maqsad qilib qo‘ygan maxsus turidir. Jismoniy mashqlar – harakatlar va harakat faoliyatining murakkab turlari bo‘lib, jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga xizmat qiladi. Jismoniy yuklama – organizm imkoniyatlari va jismoniy holatidan kelib chiqib, unga beriladigan mashqlar miqdori. Ommaviy sport – darsdan tashqari, ish vaqtidan so‘ng davlat va jamoat tashkilotlari orqali hamda har bir shaxsning tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Aktiv dam – organizmni jismoniy harakatlar orqali charchog‘ini yo‘qotish, ish qobiliyatini oshirish. Passiv dam – organizmni hech qanday yuklamalarsiz deyarli energiya sarf qilmay barcha muskullarni bo‘shashtirib dam olish. Meditatsiya – asosan sharq maktabiga xos jismoniy mashqlar majmui bo‘lib, inson jismoniy tarbiya tizimlari ichida har bir shaxs mustaqil yoki shu tizim ishqibozlari alohida guruhlarga ajralib shug‘ullanadilar. Sog‘lomlashtirish trenirovkalari – insonlarni salomatligini mustahkamlashga, rivojlantirishga qaratilgan umumiy xususiyatga ega bo‘lgan jismoniy yuklamalar. Organizmning funksional zahiralari – organ yoki funksional tizimlar ishini tinch holatdagiga nisbatan ortishidir. Jismoniy sog‘lomlik – jismoniy mashqlar va ommaviy sport bilan tizimli shug‘ullanish orqali yoki jismoniy yetuklik darajasidagi harakat faolligiga egalik, organizmni tashqi muhitning noqulay oqibatlari va kasalliklarga qarshi tura olishi, turmush, hayotiy faoliyatlarning talablariga yetarli darajadagi munosabati tushuniladi. Jismoniy qobiliyat - insonning u yoki bu mushak faoliyati talablariga javob beradigan va uning samarali bajarilishini ta‘minlaydigan ruhiy - fiziologik hamda morfologik xususiyatlari majmuasidir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ajdodlarimiz turmush tarzida o‘zlarining va farzandlarining jismi yetukligi, barkamolligi tarbiya tizimida mohiyatiga ko‘ra yuqori qo‘yilgan. Ohiri-oqibat qadriyatlar darajasigacha qo‘tarilgan. Hozirgi kunga kelib sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish trenirovkalarida meros tarzida qadriyatlar tarbiya va sog‘lomlashtirish jarayonida maqsadli foydalanishda qo‘l kelmoqda.

Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining inson organizmning funksional holati bilan o‘zaro uzviyligi Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati, uning yetakchi atamasi sanalgan “sog‘lomlashtirish trenirovkalari”, “sog‘lomlashtirish mashqlari” ning ilmiy asoslangan ta‘rifi bo‘lmagan, hozirgacha ham yo‘q. Lekin qator mualliflar bu tushuncha yoki atamaga o‘zlarinnig fikrlarini bildirmoqdalar. Masalan, «aerobika»ning asoschisi K.Kuper turg‘un, o‘zgarmas oddiy holatdaligimizda kislorod sarfi bilan bajariladigan (aerob) harakatlarni sog‘lomlashtiruvchi yuklamalari deb nomlash zarurligini uqtirmoqda. Sog‘lomlashtirish maqsadidagi yuklamalar trenirovkalar davomida yagona umumiy xususiyatga ega bo‘lishi, ularning hajmi va intensivligi bo‘yicha me‘yorida kuchli zo‘riqish talab qiladigan darajada bo‘lmasligi, bunday yuklamalarni organizmga mosligi, tanamiz resurslari zahirasini tugatib qo‘ymaydigan, organizmni rivojlantiradigan, takomillashtiradigan nafi bo‘lishi lozimligini, jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini pasaytirmay ushlab turishni nazarda tutishini e‘tirof etmoqdalar. Sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egalarning organizmida odatga aylangan mashg‘ulotlar natijasida alohida biologik aktiv moddalarning yuzaga kelayotganligini aniqlanishini ilmiy

isbotlanishi oxirgi 10 yillikdagi tadqiqotlarning yutug‘i deb sanaladi. Ular organizmni turli xildagi kasalliklar, tashqi muhitning zararli oqibatlariga qarshi tura olishini himoya funksiyasini yaxshilanishi bilan ham foydali ekanligini ko‘rsatib berdi. Ayniqsa, miyadagi ayrim o‘zaro tuzilmalar, ya’ni alkohol va narkotiklar ta’sir etuvchi og‘riqqa monand hissiyotlarni beradigan registrlar bilan o‘zaro faoliyatga birlashib, tabiiy xursandchilik holati, xush kayfiyati, bag‘ri - kengligi, fikrlashning tiniqlashgani yoki uning teskarisidek tabiiy qo‘zg‘alishlarni yuzaga keltiradi. Bunga o‘xshash holat tizimli sog‘lomlashtirish trenirovkalari bilan shug‘ullanayotganlarda ham yuzaga keladi. Bu fiziologik 66 holat bo‘lib jismoniy mashqlarni shug‘ullanuvchi organizmidagi yaratuvchanligi bilan bog‘liq. Qonda yuzaga kelgan endorfinlar alkohol va narkotik orqali hosil bo‘lgan patologik qo‘zg‘atuvchilarni bloklab asta - sekin siqib chiqaradi. Jismoniy mashqlarni inson organizmidagi zararli holatlarga nisbatan o‘ziga xos roli ham shundan iborat (6,8). Salomatlik trenirovkalari bilan shug‘ullanuvchilar sportchilar uchun ham salbiy ta’sir etuvchi eng ko‘p uchraydigan, ayrim holatlarda yashirin kechadigan yuqumli kasalliklarni yuqishi haqida ham ma’lum bilimlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Xronik angina, tishlar kariesi, furunkulez, o‘t pufagidagi infeksiyalar va boshqa kasalliklar ayrim holatlarda o‘zini sezdirmay rivojlanayotganini bilmay sog‘lomlashtirish trenirovka mashg‘ulotlarida mashq qilishning oqibati yomon bo‘lishi hozirgi kunda isbotlangan. Jismoniy yuklama yoki faollik tabiiy ravishda organizmda qon aylanishini tezlashtiradi, bu o‘z navbatida yashirin kechayotgan yuqumli kasallik mikroblarini joyidan yuvib, tez oqayotgan qon tarkibida boshqa organlarga tarqatadi. Yangi kasallik o‘choqlarini yuzaga keltirishi mumkin. Qolaversa, organizm xronik kasalliklar paytida o‘zining himoya energiyasini kasallikka qarshi sarflayotgan paytida o‘sha energiyani muskul ishiga (mashq bajarishga) sarflashga to‘g‘ri kelishi organizmni funksional holatini pasayishiga sabab bo‘ladi. Natijada jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish orqali yuzaga keladigan sog‘lomlashtirish effekti yuzaga kelmasligi, sodir bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatning salomatlikka ziyon yetkazishi aniq. Ayrim holatlarda yurak, buyrak, o‘t pufagi va boshqa organlarda hosil bo‘lgan yashirin kechgan kasalliklarni jismoniy mashq bilan shug‘ullanish orqali sodir bo‘lgan kasalliklar deb qabul qilinib, mashq qilish to‘xtatiladi. Shunga ko‘ra har qanday funksional holatning yomonlashuvi tibbiy nazoratni taqazo etadi. Har bir STT jismoniy madaniyatining sohibi, ongli ravishda, ixtiyor qilib, salomatligini jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, 67 sog‘lomlashtirish trenirovkalari orqali amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yibdi, o‘zidagi mavjud xronik kasalliklarini davolamay, bunday mashg‘ulotlarni boshlashning oqibati haqida puxtarok o‘ylashi maqsadga muvofiq. Ko‘p uchraydigan, yo‘l qo‘yiladigan xatolardan biri davolanib ulgurmay, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishni boshlab yuborishdir, natijada gripp, angina, o‘tkir respirator kasalliklari vujudingizni tark etmaydi. Sub’ektiv salomatlik – “klinik” deb nomlanadi, aslida tuzalgandeksiz, lekin har doim ham “anatomik” sog‘lomlik (tuzaldi)ga muvofiq kelmaydi. Ayrim holatlarda shoshilib mashg‘ulotlarga kirishish hali kasallikka qarshi kurashib o‘zining quvvati zahirasini tiklab ulgurmagani jismimizni zo‘rlash demakdir. Kasallikdan so‘ng ayrim to‘qima va hujayralar o‘z funksiyasini tiklab ulgurmaydi. Organizmning funksional qobiliyati yoki kasalliklardan so‘ng jismoniy imkoniyati o‘z o‘rniga qaytmay turib, shoshilib trenirovka mashg‘ulotlarini boshlab yuborishning natijasi qator organlarimiz, ayniqsa, yurak mushaklarini shikastlantirib, turg‘un aritmiyaga olib kelishi sport trenirovkalari hamda sog‘lomlashtirish trenirovkalarining amaliy mashg‘ulotlarida amalda ko‘p kuzatilgan. O‘tkir yuqumli kasalliklardan so‘ng ma’lum muddat sog‘lomlashtirish trenirovkalari to‘xtatiladi. Klinik davolashdan so‘ng kasallik alomatlari (yo‘tal, tana haroratini ko‘tarilishi, og‘riqlar) to‘la yo‘qolgandan so‘nggina mashq qilishni

boshlash mumkin. Bu muddat, masalan, anginadan 4-10 kundan so‘ng, bronxit, virusli infeksiya, oshqozon ichakdagi buzilishlardan so‘ng 6-8 kun o‘tkazib, o‘pkaning shamollashi, dizenteriyadan so‘ng kamida 18 kundan, miyani chayqalishi, o‘tkir revmatizmdan so‘ng 30 kun o‘tkazib shug‘ullanishga ruxsat berish mumkin. Albatta kasalliklar har kimda turlicha kechadi. Qayd qilingan kunlar taxminiy, faqat vrach ruxsatidan so‘nggina shug‘ullanishni boshlashi mumkin. Trenirovka mashg‘ulotlarining sog‘lomlashtirish effektini muhim faktori, chegara hisoblanmagan yuklamalar shartiga rioya qilish. Shuning uchun 68 birinchi planga yuklamani hajmi va intensivligini qat’iy dozalash muammosi chiqadi. Bu muammoni hal qilish odam organizmidagi energetik jarayonning miqdorini va uning sifatini nazariy tahlil qila olish bilimini talab qiladi. Shuning uchun muskul bioquvvatini o‘rganish muammosi mavjud bo‘lib, uni hal qilish ustida tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilgan. Sog‘lomlashtirish trenirovkalaridagi jismoniy mashqlarning ijobiy ta’siri faqat inson organizmining eng muhim organlari va tuzilmalarining funksiyalarini yaxshilashidagina emas, balki mashqdan so‘ng bardamlik, kayfi chog‘lik, xushhollikni qo‘shishdadir. Bu o‘z navbatida aktivlik (tonus) energiyasini qo‘zg‘atish, organizmning tashqi muhitning turli noqulay omillarining ta’sirlariga, jumladan, yuqumli kasalliklarga chalinishini oldini olish, kasallikni yengish, chidamlilikni oshirish va boshqalarda o‘zining samarasini namoyon qilmoqda. Hozirgi kundagi ilmiy - tadqiqotlar, maxsus adabiyotlar, qarish va uni oldini olish muammosini o‘rganish natijasida «ko‘pchilik bevaqt, belgilangan muddatdan oldin o‘lib ketayotganligi» haqidagi asosli dalillar, ma’lumotlarni keltirmoqdalar va uning sabablari haqidagi xulosalarini bermoqdalar. Eng avvalo, tabiiy fiziologik va patologik qarilik, ya’ni organizmning keksayishidan kelib chiquvchi, uning barcha organlari va tuzilmalari faoliyati, birinchi navbatda, markaziy asab tizimi faoliyatining funksiyasini sustlashishi natijasida vujudga keladigan bevaqt, muddatidan oldin qarish mavjudligi aniqlandi. M.M.Mirraximov, T.S.Meymanalievlar boshchiligidagi bir guruh olimlar 1985-1990 yillardagi olib borgan tadqiqotlari orqali hozirgi 20-59 yoshdagilar organizmining ko‘pchiligi salomatligi, jismoniy rivojlanganligi, jismoniy yetukligi haqidagi bilimlari zahirasi o‘ta past bo‘lib (-3- 7% atrofida), jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, me’yori harakat faolligidan foydalanib yashash, uzoq va sog‘lom yashash vositasi ekanligidaligini bilmasligidan, degan xulosaga keldilar. 69 Mashhur xirurg professor Razumovskiy Qozon universitetida o‘zi ishlab salomatligini nazorat qilib turgan 15 ta professorni bevaqt o‘lib ketganligini yozib, unga sabab qilib, aqliy mehnat ahli asosan o‘tirib ishlashi oqibatida turmush tarzi lozim darajadagi harakat faolligi orqali kechmaganligida deb ko‘rsatdi. Hozirgi kunda ham, bir necha asr avval ham harakat, jismoniy mehnat uzoq umr ko‘rishda, kasalliklarning, ayniqsa, katta yoshdagi kishilarga xos bo‘lgan gipertoniya kasalligini, stenokardiyani, atteroslerozning oldini olishdagi ijobiy ta’siri isbotlangan. Sog‘lom turmush tarzi, sog‘lomlashtirish trenirovkalari natijasida yuzaga keladigan sog‘lomlik tushunchasi o‘z ichiga quyidagilarni oladi, -deb yozadi professor T.S.Usmonxodjaev (2005). Sog‘lomlik bu: -oilangiz, yaqinlaringiz, mehnat qilayotgan jamoangiz, qolaversa, davlatingiz uchun «ortiqcha bo‘lmaslik»; - uzoq yillar davomida go‘zallik va maftunkorlikni saqlash; -yuqori ijodiy aktivlikni davom ettirish, aqliy va jismoniy ish qobiliyatini saqlash, davom ettirish; -uzoq umr ko‘ruvchilardan bo‘lish demakdir. Qarish, keksalikning ayovsiz bostirib kelishi haqida ko‘plab kitoblar, risolalar, maqolalarni o‘rganish orqali, har qaysi davrda o‘sha vaqt sharoiti, turmush tarzidan kelib chiqib, bu jarayonga izoh berilganligiga guvoh bo‘ldik. Ularning ko‘pi asosan kuzatishlarning natijalari bazasida yozilgan. Faqat hozirgi davrimiz sharoitida yoshlik davrini uzaytirish va katta yoshda hamda qarilikda unumli faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonini o‘rganishni alohida fan sifatida - tibbiyotda bu fanlar –

“gerontologiya” va “geriatriya” deb nomlanadi. Jismoniy faollikni aholi orasidagi, ayniqsa, bolalar, o‘smirlar, talaba - yoshlarning harakat aktivligi pastligining sababini o‘rganishga oid sotsiologik tadqiqotlarimizda ishtirok etgan respondentlarning asosiy 70 foizi sog‘lomlashtirish trenirovkalari uchun bo‘sh vaqtni yo‘qligini yetakchi sabab qilib ko‘rsatdilar (45%). Aslida, shug‘ullanish uchun vaqtni topishga ham vaqt talab qilinadi. Yana ham muhimrog‘i ayrim jismoniy mashqlar, ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanish uchun sport maydoni, yugurish yo‘lkasi yoki suzish uchun basseyn (suv havzasi) zarur bo‘ladi. Ularni uzoqligi (17%), borish uchun transport (20%), yo‘l haqi – mablag‘ (8%) sarflash kerakligi, degan bahonalar ham yo‘q emas. Aslida ular maxsus jihoz, mablag‘ talab qilmaydigan, uyda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlardan biri, eng oddiy «ertalabki gigienik gimnastika» mashqlarini ham bajarishga erinishlarini sabab qilib ko‘rsatdilar (10%). Tadqiqotlarimiz qatnashchilarining ko‘pchiligi gigienik gimnastika mashqlar komplekslarini tuzishga oid bilimlari zahirasi pastligini ta’kidladilar (37%). “Sog‘lomlashtirish trenirovkalari paytidagi jismoniy yuklamalar yashirin kechayotgan kasalliklarni o‘tishini kechiktirishi, ularni og‘ir kechishiga sabab bo‘lishi mumkinligini adabiyotlar tahlili orqali aniqladik. Sog‘lomlashtirish trenirovkalarining samaradorligi organizmning funksional holati bilan uzviy bog‘liq. Bunday holatga e’tiborsizlik ko‘zlangan maqsaddan uzoqlashtirishi amaliyotda isbotlangan.

Adabiyotlar

1. Юнусов Т.Т., Юнусова Ю.М., Кудратов Р.К. «Алпомиш» ва «Барчиной» махсус тестлари-саломатлик гарови. Ўзбекистон аҳолиси саломатлиги ва жисмоний тайёргарлик даражасини аниқлашда махсус тестлари бўйича услубий куланма. Т., 2004.
2. Яшин В.В. Профессионально-прикладная физическая подготовка в вузах МВД СССР: Автореф. дис... канд. пед. наук. – М. 1991 – 24 с.
3. Теория и методика физического воспитания. Учебник для институтов физической культуры. Под общей ред. Л.П.Матвеева и А.Д.Новикова. Изд. 2-е (в 2-х томах). М.: Фис., 1976. т.1.
4. Бурнаев З.Р., Каратанов Б. Профессионально-прикладная физическая подготовка студентов, обучающихся на военной кафедре ВУЗа. //Межд.научно-теорет.конф. «Проблемы и перспективы развития физической культуры и спорта» Бешкек. 2003.
5. Бурнаев З.Р. Профессионально-прикладная физическая подготовка студентов военной кафедры. //Халқаро илмий-амалий анжумани «Олимпия 133 уйинларига махоратли сифатларни тайёрлаш тизимини такомиллаштириш муаммолари» Илмий тезислари туплаш. Тошкент. 2006.

SOG‘LOM MUHIT YOSHLAR TARBIYASIDA SOG‘LOM DUNYOQARASHLAR GAROVI

Mamatqulov Ravshanjon Solijonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

- Jismoniy madaniyat" fakulteti Jismoniy madaniyat va sport" kafedrası» katta o'qituvchisi

-Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Madrimova Maftuna Muzaffar qiz

Annotatsiya: Ushbu maqola sog‘lom turmush tarzi, faol optimal harakat aktivligi o‘zining

nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to‘liq o‘rganilmagan. Sog‘lom turmush tarzi (STT) jismoniy madaniyati tarkibidagi sog‘lomlashtirish trenirovkalarining nazariy va amaliy asoslariga oid bilimlar, amaliy malakalar jamiyat a‘zosini STT jismoniy madaniyatiga egaligidan dalolat berishi jismoniy madaniyatga egalilikning belgisi ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘z; bo‘yi-basti, qaddi-qomati, vazni, Sog‘lom turmush tarsi, Maktab o‘quvchilari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy fazilatlar, jismoniy rivojlanish, vosita faoliyati, sog‘lom muhit.

Ijtimoiy hayot juda murakkab bo‘lib, bu hayot yoki dunyoni odam umri mobaynida asta-sekin o‘rganib, uning qiyinchiliklarini yenga boradi. Yoshlar va kattalarning hayotga munosabati turlicha. Bola hayotida birona voqea sodir bo‘lsa, u tezda ota-onasi bilan maslahatlashadi. Kattalar ham hayotdagi turli xil holatlarni hal etishga qiynaladilar. O‘smir va o‘spirinlar nima yomon nima yaxshi ekanligi xaqida o‘ylaydilar, ular nima yaxshi nima yomonligini aniq biladilar. Ko‘pincha yoshlar hayotda qiyin holatga tushib qoladilar, ular nojo‘ya hatti – harakatlarning salbiy jixatlarni tushunib yetishda va boshqa olim tajribalari yetishmasligini tushunib yetadilar. Bunday holatlarda o‘zini qanday tutishni bilmay noxushlik holatga tushib qoladilar. Uning xulqi g‘alatiroq bo‘lib, o‘zlarini noxush seza dilar. Bu ko‘pchilik yoshlarni qo‘rqitadi, ular atrofdagi odamlar bilan munosabatni yaxshilash uchun bor imkoniyatlarini ishga soladilar. Bolalar va kattalarning dunyoga munosabati turlicha. Bolalar dunyoni o‘z holida, o‘zi biladigan ko‘chalari misolida tushunadilar. Kattalar dunyoni keng ma’noda tushunadilar. Hayotda o‘z o‘rnini topish bolalar uchun ham kattalar uchun muhim xisoblanadi. Har bir odam yashashi mobaynida hayotga moslashib boradi, yaxshini yomondan farq qilib boradi.

Donolar shunday deydi: “Sen hayotni o‘zgartira olmasang, unga o‘z munosabatingni o‘zgartir”. Yoshlikdagi odamlar bilan bo‘lgan munosabat uning kelgusidagi taqdirini belgilaydi. O‘smirlarning odamlar bilan munosabati oddiy ko‘r-ko‘rona bo‘ladi. U asta-sekin odamlar orasidagi munosabatlarni qoldig‘ini tushuna boradi. Yoshlar kattalarning hulqini yaxshi bilmaydilar. Yosh yigitcha yoki qiz bola hali psixologik himoyalani shdan foydalanishni bilmaydi. O‘smirlar organizmidan gormonlar ko‘p ishlab chiqariladi. Shuning uchun ba’zi hollarda tortishuvlarda o‘zini tuta bilmaydilar, qiziqqon bo‘ladilar. Bundan tashqari, yoshlar jamiyat tomonidan man etilgan qoidalar, urf-odat larni yaxshi bilmaydilar, ularda me’yor yetishmaydi. Yoshlarning odamlarga munosabatida ular haqidagi tasavvurlari asosan quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: - ota-onalarga munosabat, ular haqida tasavvurlar; - do‘stlar bilan munosabat va ular xaqida tasavvurlar; - ular uchun zarur bo‘lgan kishilarga munosabat; - kattalarga bo‘lgan munosabat. Odamlarning bir-biriga munosabati sog‘lom turmush tarzi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Odamlar bilan bo‘lgan munosabat odamning sog‘ligiga ijobiy yoki salbiy ta’sir etadi. Afsuski, betakalluflik, qo‘pollik, kabi sog‘liqqa ziyon keltiradigan, hayotni zaharlaydigan narsalar hali butunlay yo‘qotilgani yo‘q. Biz uyda, maktabda, ishxonada, ko‘cha-kuyda bir-birimizga yetarlicha e’tiborli bo‘lmaymiz, ba’zan atrofdagilarning ruhiy holatini tushunmaymiz yoki tushunishni xohlamaymiz. Hozirgi kungacha toshbag‘irlik va histuyg‘ularni poymol qilish hodisalari uchrab turadi. Bular mojaroli vaziyatlarga olib keladi. Salbiy his tuyg‘ular paydo qiladi. Bunday salbiy munosabatlar oqibatida ba’zi odamlar kasalmand bo‘lib qoladilar, ba’zilarining umri qisqaradi, albatta nosog‘lom turmush tarzini keltirib chiqaradi.

Odamlar bir-biri bilan samimiy, muloyim munosabatda bo‘lishlari kerak. Faqat qo‘pol muomala qiladigan, baqirib-chaqiradigan kishilar emas, balki indamas qovog‘i soliq surbetlar ham odamlar asabiga tegadi. Bir og‘iz ham gapirmay yurishga, ba’zilari qo‘pol gapirishga o‘rgangan

bo‘ladi, boshqa bir odamlarga tepadan qaraydi, “Men hammadan yuqoriman” deb o‘ylaydi. Bunaqa odamlar ozchilikni tashkil qiladi, lekin ko‘pchilikning dilini og‘ritadi. Ular dilozor kishilardir. Agar odamlar bolalikdan o‘zini tuta bilishga va xushmuomalalikka o‘rgatilgan bo‘lsa yana yaxshi. Agar siz odamlarga hushmuomala bo‘lsangiz, ular ham sizni hurmat qiladi. Hushmuomalalik odam sog‘ligiga yaxshi ta’sir etadi. Hushmuomala, hushchaqchaq, ochiq ko‘ngil, bag‘rikeng, dili pok, to‘g‘ri so‘z odamlar sog‘lom bo‘ladi, uzoq umr kechiradi. Odamlarning bir-biri bilan muomalasi ularning o‘ziga bog‘liq. Odam hayoti mobaynida ota-onasi, o‘rtoqlari, ish joyidagi odamlar bilan munosabati sharoitiga qarab yaxshi tomonga o‘zgarib borishi kerak. Yoshlikda odamning do‘stlari ko‘payadi, yangi-yangi do‘stlar orttiriladi. Do‘stlarni o‘zaro munosabati juda muhim. Eng yomoni odamning do‘stlari va o‘rtoqlaridan ajralib yakkalashib qolishidir. Bunday odam o‘zini yomon his qiladi, kayfiyati tushib ketadi. Nima uchun bunday holat yuz berganini o‘ylayverib oxir oqibat betob bo‘lib qolishi mumkin. Sog‘lom turmush tarzini shakllanishida odamning tashqi qiyofasi ahamiyatli, tashqi qiyofa tez o‘zgaradi. Siz oynaga qarasangiz, husnbuzar toshganini, yuz terisi o‘zgarishini bilasiz, bu sizning kayfiyatingizga ta’sir etmay qolmaydi. Ba’zida sizga o‘z qaddi-qomatingiz yoqmaydi, sabr qilsangiz qaddi-qomatingiz yaxshi shakllanadi, qo‘l – oyoqlaringizning uzunligi mutanosiblashadi, chiroyli yigit yoki kelishgan qiz bo‘lib shakllanasiz. Shuni yaxshi bilingki, siz bugun boshqacha bo‘lsangiz ertaga boshqachasiz. Yoshlar o‘z shaxsiyatiga tegishli tanqidiy gaplarni yoqtirmaydilar. Chunki ularning yutuqlari hammani qoyil qoldirishi kerak.

His-tuyg‘ular va salomatlik; Yaxshi xis- tuyg‘ular, shodlik, hursandchilik, inson hayotini gulga o‘raydi, sog‘liqqa ijobiy ta’sir etadi. Emotsiyalar organ va to‘qimalarning funksional holatiga va sog‘lom turmush tarziga ham ta’sir qiladi. Xursandchilik, qo‘rquv, g‘am – tashvish, tantana, achchiqlanish va taajjublanish – bularning hammasi emotsiyalar bo‘lib, odamning o‘z atrofidagi dunyoga va o‘z-o‘ziga munosabatidir. Emotsiyalar ijobiy va salbiy his tuyg‘ularga bo‘linadi. Inson hayotida ijobiy va salbiy his tuyg‘ularni boshdan kechiradi. Ijobiy his tuyg‘ular organizmga yaxshi ta’sir etadi, yurak faoliyatini yaxshilaydi, qon tomirlar devori kengayadi, to‘qimalarning kislorod bilan ta’minlashi yaxshilanadi, ishchanlik qobiliyati ortadi, kayfiyati ko‘tariladi. Agar odamni yomon his-tuyg‘ular qamrab olsa, boshga og‘ir g‘am- tashvish tushsa nima qilish kerak? Ko‘pgina mutaxassislar bunday paytda odamlar uchun ijobiy emotsional holat yaratish maqsadida salbiy his – tuyg‘ularni paydo qiladigan vaziyatni yo‘qotish yoki idrok, mantiqiy fikr yordamida yomon emotsiyalarni bartaraf etish lozim, deyilar. Ma’lumki, harakat aktivligi (yurish, yugurish) dan keyin doim his-tuyg‘ular jo‘sh uradi. Bunday harakat qon tomirlarda aylanib yuradigan lipidlar va uglevodlarning konsentratsiyasini kamaytiradi. Bu esa yurak-tomirlar kasalligiga va boshqa kasalliklarga g‘ov bo‘ladi. Sayr qilsangiz, kayfiyatingiz yaxshilanadi, ko‘ngil g‘amligi ketadi. So‘z ijobiy yoki salbiy emotsiyalarni hosil bo‘lishiga ta’sir etadi. So‘z – degan edi I.P.Pavlov odam uchun ham miqdor, ham sifat jihatdan boshqa qo‘zg‘atuvchilarga teng kelmaydigan shartli qo‘zg‘atgichdir. Odamni so‘zni qanday ohangda aytishi ham katta ahamiyatga ega. Mashhur ingliz dramaturgi B.Shou shunday deb yozgan edi: “Ha” va “yo‘q” so‘zini 50 xil ishlatish mumkin va atigi bitta usul bu so‘zni yozishdir. Ha, xaqiqatdan ham gapirish ohangiga qarab bitta so‘zning o‘zi odamga qattiq botishi yoki kishini erkalashi, ruhini ko‘tarishi, yohud yer bilan yakson qilib yuborishi mumkin. Bitta jumlaning o‘zini hushmuomalalik bilan ham, qahr-g‘azab bilan ham aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F. Xo‘jaev, T. Usmanxo‘jaev. Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya, o‘quv qo‘llanma. T., “O‘qituvchi”, 1996.

2. Osnovi metodiki fizicheskogo vospitaniya shkolnikov., B.N. Minaev, B.M. Shiyan., M., «Prosveteniye» 1989.
3. Spektorov V.B. Salomatlik va tetielik yo‘lkalari. T.: Medesina, 1987. 132
4. Xaziaxmetova M.S., Xankeldiev Sh.X. Osobnosti fizicheskogo vospitaniya studencheskoy molodyoji. //Mat.mejd.nauchn.metod.konf. Kazan – 2003.
5. Xamrakulov R.A. Puti sovershenstvovaniya fizicheskogo vospitaniya studencheskoy molodeji //Fergana Davlat universiteti ilmiy jurnal. 2001. № 1
6. Fizkulturno-ozdorovitel'naya rabota v shcole. Posobie dlya uchitelya. Pod red.
